

HALİS KARABENLİ

**BA'ZILAR  
OLISDAN  
SEVARLAR**



**Sevgilim, o'tib ketmadi... Qalbim hanuz  
qattiq og'riyapti...**

**Ishqsizlik va yolg'onning bo'y cho'zib, hattoki hukm  
surayotgan bu davrda, inson nima uchun qo'lidagi  
narsalarining qiymatini bilmaydi?  
Vaholanki, o'tdi, ketdi deyish qanchalar mushkul.**



## Qanchalar seni sevib boryapman... Qalbim senga qarshi qanchalar tez ilimoqda...

Menga kelishingni istayman. Meni davola. Ishonchimni va qalbimni o'rniga qo'y qaytadan. Yana suyana olay. Jazavasi tutgan bir to'da qarq'a misol ustimda qag'illab turgan bir qancha ovozning ichidan ajrata oladiganim va sira hadiksiramaydiganim yagona narsani, ya'ni ovozingni puflab turib, labimga suya.

Ammo to'satdan bo'lmasin bu. Avval dudoqlaringni biroz sovut. Go'dagiga oshini va suvini ilk marta tutayotgan onaning, lablarini qoshiqqa ohista tekkizib, bolasining og'zini kuydirmasligiga amin bo'lishi kabi shafqat bilan qil. Albatta, bunga majbur emassan. Ammo men tomon kelishingni istayman. Chunki tashqaridagi dunyoda yashamagan bir inson majbur ravishda o'zining ichida yangi bir olam yaratadi va ketgan har joyiga u dunyoni olib yuradi. Masalan, ko'chada yurarkan, ulkan bir gumbazning ichidadek o'zidan amin va xavfsiz ko'rinarkan, baribir uni xafa qilmasliklari uchun insonlar bilan orasiga masofa qo'yadi. Boqishlari teshib yuboray deydi hamma narsani. Birov bilan o'rtoq tomoni yo'q. Doim xayol suradi, ammo so'raganlarga "Sira xayol surmayman" deydi. Aslida, esa xayollarida eng muhim kuychi o'zi, eng mazali taomlarni tayyorlaydigan kishi ham o'zi, yuzsiz bo'lgan ko'pgina inson uni jonqulog'i bilan tinglayotgandek, ichidan davomiy bir narsalar aytib beradi. G'alati bir umidi bor, faqat bu umid yashashi uchun uni vaqti-vaqti bilan qamchilasa ham, eng kichik hollarda har narsadan nafratlanadi. O'sha







onda hatto o'zining qurgan dunyosidan ham ketishni istab, devona kabi bir eshik qidiradi. O'zi qurgan dunyo ham uni o'ldirishni boshlaydi. Nafas ham ololmaydi. U ichidagi oynadan qurgan gumbazni sindirish uchun bor kuchi bilan uradi o'zining ichiga. Yanada tezroq yurishiga qaramay, turgan joyidan qimirlay olmayotgandek sarosimaning ichida o'ngga-chapga o'zini uradi va eng qisqa vaqtda yolg'iz yig'lab olish uchun o'ziga pana yer izlashni boshlaydi. Chunki to'yib yig'lab olsa, yashayotgan joyi kengaygandek tuyuladi. Chunki hech kim yig'layotgan odamning yonida turishni xohlamaydi.

Meni to'xtat. Yoki yo'nalishimni o'zing tomonga bur. Sen kela olmasang, men o'zim boray. Yo'lni ko'rsat. Ichida sen bo'lmagan hech bir hayotning zarrasi bo'lishni istamayman! Bu ulkan gumbazning tepasidan bir deraza och. Ko'ngilsiz yaqinlashgan barcha eshiklarimning ortida meni kut. Bularni qanday amalga oshirasan, bilmayman. Ammo men yo'qolib boryapman... Meni top! Meni bag'ringga bos. Yuzsiz bu insonlarni uzoqlashtir mendan! Boshqalar titib yuborgan bu tanamni, yolg'iz sen ovozing ila tiklaysan. Tilka-pora qilindim. Izlari bor sirtimda. Seskanmasdan tegin menga. Tashqariga qiziqib, ochiq qolgan eshikdan chiqqan bir mushukning, bor-yo'g'i bir kechani tashqarida o'tkazib, butun bir umrining yarmini bir kechada yo'qotishi qanday tuyg'uligini bilolmaysan! O'tgan shuncha vaqtni bir kecha deb hisobla. Juda ko'p narsani yo'qotdim. Ko'p narsa eskirdi, bilaman! Va bilaman, kechirolmaysan. Faqat kechirishni oldin o'zingdan boshla. O'zingga quchoq och. O'zingni top. "Nega" deb so'ra

.....



o'zingdan.

Nima qilishingni va qanday qilishingni bilmayman.  
Ammo ishonchimni va qalbimni o'rniga qo'y boshqattan.  
Telbaga aylanmasimdan, bu qarg'alar galasining ovozi  
o'chir. Meni top. Meni bag'ringga bos. Titilgan bu tanamni  
yolg'iz sen ovozing ila tiklaysan...



**Bir kun keladi va "Ha, biz ham sevgan edik" deymiz. Kech aytilgan haqiqatlar qanchalik to'g'ri bo'lsa-da, shunchalik samarasizdir!**

Tark etilganimni qanday tushuntirsam ekan? "Lablarim bilan so'zlarim orasiga bir pichoq sanchilgan-u, men har gapirganimda tilimni kesyapti" deymi? Menimcha bu yangi chiqqan bir yozuvchining o'qigan kitoblaridan terib-terib o'g'irlab yozgan uzun-yuluq jumлага o'xshab qoldi. Men tark etilganimni tushuntirmoqchi bo'lib, nega bular haqida gapiryapman o'zi? Ha, aslida mavzudan u qadar uzoqlashib ketmadim. Chunki sassizlik bo'lgan yoki bo'lajak voqealardan avval yuz beradi. Oldin jim bo'lasan. Baqirishdan avval butun kuchingni to'plab, jim bo'lasan. Og'zingga katta toshni solasan va qorninga qo'llaringni qo'yib, bardoshing yetguncha chidaysan. Ovozing seni tark etmasligining oldini olishning eng samarali usuli — sukut saqlamoq. Agar bu qo'lingdan kelmasa, demak, hammasi tugadi degani. Tugabdi bardoshing, kuching. Agar sen gapirsang, dunyoning eng katta urushi boshlanishini bilsang ham pinagingni buzmaysan. Faqatgina bir xarobaning ostidan chiqish yo'lini izlaysan xolos.

Ulkan devorlar ustingga qulagan. G'ishtlarning orasidan ko'rinib turgan o'likning qo'li esa senga tegishli.


Ammo bir binoning kichik tirqishidan oqib kirayotgan nurdan ham so'rashingiz mumkin, "Tark etilish"ning nimaligini... Chunki u bunga ko'p bora guvoh bo'lgan. Bir erkak yoki ayol, qo'lida ko'ylagi, yoniga boshqa hech narsa olmay, pillapoyalardan yugurib tusharkan, eshikdan





bir zumda chiqib, qorong'uda ko'zdan g'oyib bo'ladi. Ortiga qayrilib ham qaramaydi. Yoki ikki kishilik yotoqda necha yillardan buyon yonma-yon turgan ikki yostiقدan birining mehmonxonadagi divanga ko'chirilishining nimaligini yotoqxonada qolgan yostiقدan so'rashingiz mumkin. Birgalikda taom yeyilmaganligi uchun idish yuvish mashinasiga alohida-alohida joylashtirilgan likopchalardan, alohida tayyorlangan taomlardan, dush qilganidan so'ng bir begonaning yoniga chiqayotgandek, hammomda ustiga kiyib, azalda "seni qattiq sevaman" degan erkakka hozir hatto tanasining bir qismini ham ko'rsatishni istamagan ayoldan, "Bu bizning kuyimiz bo'lsin" deya tanlangan bo'lsa-da, o'tgan kunlarni yodga solgani uchun endilikda hech tinglanmaydigan, ustiga ustak nafratlaniladigan bir kuydan, onasining tungi klubda ishlashidan xabar topgan o'n to'rt yoshli qiziqqon bir o'smir boladan yoki onasi kir yuvarkan, dadasining balkonda boshqa bir ayolga shivirlagan tovushda "seni sevaman" deganini eshitgan yoshgina bir qizdan, morg eshigi tagida bolasining jasadini tekshirish uchun kutayotan otadan va hatto uchi yirtilgani sababidan ko'chaga uloqtirilgan bir paypoقدan "Tark etilish" ning nimaligini so'rashingiz mumkin.





Ishon, menga. Hislarim  
meni sen tomonga itaryapti.  
Kimni hayotimda bo'lishini  
istasam yoki kim men tomon  
kelishni iroda qilsa, shu hol yuz  
beradi...

Oradan shuncha vaqt  
o'tganiga qaramay, "Hatto  
o'tmishimda ham qolmading"  
deyishning o'rniga, men  
senga "Sen hanuz o'tmishga  
aylanmading" demoqdaman...



**Sening yo'qliging abadiy bo'lishi mumkin emas. O'rtda qoldirilgan har iz, mutlaqo o'z egasining ortidan ketadi.**

Hamma narsa qaytib keladi. Vaqti kelib, bunga o'zingiz amin bo'lasiz. Yuragingizni siqib turgan noma'lum narsa, yuzaga chiqadi. Chunki yashirinishdan charchaydi. Xuddi bir siniq tovush kabi... Bir jiringlash kabi... Mushaklarning jarohatlanishidagi og'riq kabi...

Yoki undan ham battarroq narsa. To'satdan boshlangan va nimaiki bo'lsa, o'zi bilan birga olib ketgan shafqatsiz bo'ron kabi dahshatli.

Aslida, siz javobini bilgan narsa savol bo'lishi mumkinmi? Mumkin emas. Javob nimadaligini bilasiz, aslida. Tugagandir, boshlangandir, ko'chgandir, parchalangandir, og'rigandir, sovugandir. Va ko'pgina savolni biz o'zimiz yaratamiz! Bor-yo'g'i shu.

Biz kechki ovqatga o'tirgandik. To'rt kishilik stolning atrofida, ko'rinishidan faqat ikkimiz bor edik, ammo ichimizga yutgan narsalarni yolg'iz ikkimiz ko'ra olardik. Menga qolsa, o'nlab kishilar to'plangandik stol atrofida. Masalan, tongdagi men, kechagi men, o'tgan haftadagi men, o'tgan oydagi men, o'tgan yildagi men va ancha yillar burungi men, eng avvalgi men... Tongdagi, kechagi, o'tgan haftadagi, o'tgan oydagi, o'tgan yildagi, ancha yillar avvalgi va eng boshidagi men... Ammo... G'alati bir shaklda "hammamiz" bir-birimizga begona edik. Bir marta foydalanib, keyin tashlab yuborish uchun ishlab chiqarilgan qog'oz salftkasi edik go'yo. Har bittasi o'z burchini bajarib va oxir oqibat





lom-mim demasdan bir chetga chiqqandi. Anchadan beri ahvol shunaqa. O'zimizdan o'nlab o'zimizni hosil qilib, yana hosil bo'lgan o'zlarimizdan nafratlanardik.

Kutilmaganda qo'limdagi sanchqini tashlab, "Bu yana qancha muddat davom etadi?" dedim. U ham sanchqisini joyiga qo'ydi. Bir marta ishlatilib, keyin tashlab yuborish uchun ishlab chiqarilgan qog'oz salftkasi bilan ohista og'zini artib, o'ng tomonda turgan stakandagi suvdan bir qultum ichdi. Menga nazar solmas edi. Qo'llarini stolning ustida birlashtirdi. Yutunganini ko'rdim. Faqat kimning yutunganini anglay olmayotgan edim. Tongdagi "u"midi, yoki kechagi "u"mi, bilmam, undan ham ilgarigisimi? Bir-birimizga o'ta begona edik! Ehtimol bir-birimizni yaqindan tanishni xohlamayotgan edik. Chunki yangi narsalardan xabar topsak, birga yashashni istayotgan insonimiz juda o'zgarib ketardi. Xuddi bir tush kabi. Yonimda uxlagan insonning ovozi tushimda boshqa bir insonda ko'rardim. Yuzlar boshqa-boshqa edi. Faqat ovozlar bir xil edi. Nima uchun ovoz o'zgarmas edi? Menimcha, ichki ovozlarimizdan bexabar edik. Ha, balki sabab shundadir. Janjallashayotganda g'oyibdan baqirish kabi emas bu, ichki ovoz nihoyatda boshqa narsa. O'zga bir tovush so'zlaydi. Balki bu — mening aslim! Sening asling! Bizning aslimiz! Bular haqida o'ylamoq qanchalar qo'rqinchli! Nafs birla g'azab birla yoki marhamat birla yonib qovurilgan boshqa bir odam bor edi ichimizda...

Va nihoyat boshini ko'tarib, ko'zlarimga boqdi va "Biz o'zimizni ko'pdan beri yashayotgandek tutyapmizmi?" dedi. "Mavjuddek, uxlayotgandek, hammasi

.....



joyidadek, sevishayotgandek, talashayotgandek... Shu qadar yashirdikmi o'zimizni? Men-chi? Qalbimni qanchalik bila oldim va o'zimni qanchalar taniy bildim-ki, senga o'z holimcha ko'rina olsam? Tovoqdagi taomning nomi, qovurma makaron. Nomi, vujudga kelishi, tayyorlanishi, pishish muddati ma'lum. Ammo biz insonmiz... Suvi qurigan bir chuqur! Yoki bilmadim, og'zigacha suv bilan to'la bir chuqur. Seningcha ham vaqti kelmadimikan?"

U gapini tugatib, stuliga suyandi. Horg'in ko'rinayotgandi, ammo og'ziga qo'lini tiqib, o'zini majburlab qusgan odamning keyin yengillashib qolgani kabi g'ayrioddiy hotirjamlik ichida edi. Go'yo taslim bo'lgandek. Va yoki og'ir yukdan qutilgandek... Ichini tirnagan narsaning tirnoqlarini tag tubidan yulib tashlagandek... Tabiiyki, tirnoqlarni tagidan kesib tashlash insonga dahshatli og'riq hissini beradi. Bundan keyin qo'lini cho'ntagiga ham sololmay qoladi inson. Go'yo bir darddan qutulish uchun boshqa hamda ulkanroq va eng kamida oldin ko'nikilmagan bir dardni tanlamoq kabi... Yangi dardiga hayrat-la boqarkan, u bilan tanishishga urinayotib, eski dardining og'riq va chinqiriqlar-la o'layotganiga quloq solmoq, aynan insonga oid bir tuyg'udir. Ammo vaqt o'tib, bu dard ham kamlik qilayotgandek, yanada ulkanroq va yangi bo'lgan dardning payiga tushiladi...

To'g'ri, o'ta xotirjamdek ko'rinardi qarshimda. Va nihoyat so'z ochganidan keyin, endi nimalar yuz berishini taxmin qilayotgani ko'rinib turardi. Aslida, ancha vaqt oldin o'zimiz yaratgan savollarning rad etilishi edi bu. Men ham yog'och qirrali, o'rtasida yostig'i bo'lgan stulga





suyangancha, "O'ylashimcha, tugadi. Qovurma makaron juda mazali bo'libdi. Birinchi bor tayyorlashingmi?" dedim.

Xuddi u bilan ilk marta ovqatlanayotgandek tutayotgandim o'zimni. Chunki qarshimda turgan inson boshqa bir "u" edi. Stol atrofida o'tirgan ko'rinmas "men"larga ko'z ostimdan qarab, yotoqxonaga ketishlari uchun ko'z qisdim. Meni tushunishdi va tezda g'oyib bo'lishdi. Axir ular ham yuklarini yig'ishi lozim. Ma'lumki kimnidir biror yerga ketishi uchun hozirlik ko'rmog'i ancha vaqtni oladi. Qolaversa, xotiralar, tabassumlar, tortishuvlar sirlashuvlar va yana qanchasi...

Endi cho'zib o'tirishning ma'nosi yo'q edi. Bu safar men yutindim. Ichimda aytilmagan biror so'z qoldimikin deya tekshirib ko'rdim o'zimni. Biroq bo'm-bo'sh edim. Xuddi u singari o'ng tomonimda turgan stakandan bir qultum ichib, qog'oz salfetka bilan lablarimni artdim. Stulimni orqaga surgancha, o'rnimdan qo'zg'aldim. Hali hozirlashim kerak bo'lgan ulkan yukim bor edi. Sokin qadamlar bilan yotoqxonaga tomon ketdim. Boshqa "men"lar yuklarini hozirlab qo'yishgandi. Biri "Tish cho'tkamizni olmaysanmi?" deya ogohlantirdi meni. "Qolaversin" dedim "men"larning biriga. Jim edik! U hanuz stuliga suyangancha qimirlamay o'tirardi. Qo'llari ikki yoniga tushirilgan. Ichimdan so'nggi so'z aytish istagi keldi. Ovozingni yana bir bor eshitishim kerak edi. Ammo bunday qilmadim. Barcha savollar tugagan ekan, yangi savol o'ylab topishning sira keragi yo'q. Negaligini bilmadim-u, faqat tishcho'tkamni qoldirdim. Hammasi tugadi.



**Uni topganimni his qilyapman, ammo  
buni o'zimga ham aytolmayman... Bu qadar  
yo'qotishlardan keyin kim bo'lsa ham sukut  
saqlardi...**

O'sha tun juda ko'p o'yladim. Aslida, anchadan buyon ichimni kemirayotgan bir narsa bor edi. Birgina u tunda emas, undan avvalgi tunlarda ham doim o'sha harsa haqida o'y surgandim. Men u bilan ayrilishni istayotgandim. Chunki bir insonning birov bilan birga bo'lishi uchun, eng avvalo, o'zi bilan bir bo'lishi kerak edi. Qolaversa, men ko'pdan buyon o'zim bilan emasdim. O'zimda nimani qabul qilolmayotganimni, nima bilan kurash olib borayotganimni, nimadan istisno qilganimni aniq bilmayotgandim... Qisqasi, juda katta bo'shliq bor edi. Yolg'izlikni ko'proq sevadigan va tezda hamma narsadan zerikadigan odamga aylangandim. Berkinmoq go'zal hisga aylangandi. Birov bo'lmas edi yonimda. Tim qora bir nurning ostida, qop-qora samoga boqardim. Yuzlar mavjud emasdi. Ovozlar eshitilmasdi. Nimaga teginganingni bilmasang, undan jirkanishga hojat yo'q bunday hollarda. Tongda uyg'onganimda, bir necha oy o'tgandek, yana ilk bor uning ovozini eshitgandim. Oshxonada qo'shiq xirgoyi qilgancha, nonushta tayyorlayotgandi. O'rnimdan turib, biroz o'tirdim.

Uning mayin ovoziga quloq soldim. Biroz g'alati edi. Menga tegishli bo'lgan biror narsa yo'q edi go'yo. Kiyimlar turgan javonning oynasidan o'zimga qarab, birdan o'rnimdan turdim. Bechorahol ko'rinardim. Sochlarim





to'zg'igan va yuzim osilib qolgandi. Ortiq o'zimga toqat qilolmadim! Keyin esa mudhish bir qaror bilan oshxonaga tomon ketdim va uni belidan quchdim. Gapirishiga fursat qoldirmay, "Sen bilan ajralishni istayman" dedim. Qo'llarimni ohista belidan tushirib, tayyorlagan narsalarini birma-bir mehmonxonadagi stolning ustiga tuzishni boshladi. Xuddi hech narsa bo'lmagandek yana qo'shiq xirgoyi qilishda davom etdi. Nimaiki tayyorlagan bo'lsa, bitta-bittadan tashirdi. Mehmonxonadan oshxonagacha kamida sakkiz marta borib keldi. Muzlatgichga suyangancha uning harakatlarini tomosha qilardim. Pishloqni, nonni, zaytunni va nimaiki bo'lsa hammasini bitta-bittadan...

Oxirgi kelishida esa orqasini menga o'girib, oshxonada joylashgan uzun stolning ustiga ikkala qo'lini qo'ydi. Xirgoyi qilayotgan qo'shig'ining sasi tindi. Jim bo'ldi. Keyin esa "Stolga hamma narsa qo'yildi, nonushta tayyor!" dedi. Ovozida titroq bor edi. Yig'layotganini sezdim. Yoniga borish uchun bir ikki qadam bosganimda, men tomonga qayrilmasdan, "yonimga kelma" degandek, bir qo'lini havoda ko'targancha, "Uzr so'rayman! Shundoq ham sendan bundan ortig'ini kutmagandim ammo o'ylaganimdan ham og'ir bo'ldi bu! Bir shaharni tasavvur qil. Oldin sen bormagan bir shahar. Avtobusdan tushasan va atrofga shashtsiz boqasan! Biz ham xuddi shunday edik... Sen avtobusdan tushding. Boradigan aniq biror yering yo'q edi va men seni uyimga taklif qildim. Bunda sening aybing yo'q! Bir kun yana o'zing bilmagan biror shaharga ketishni istab qolishingni bilmagandim! Har tun shu qo'rquv bilan uxladim. Har tong uyg'onar-uyg'onmas hali ko'zlarimni ochmay turib, qo'llarim bilan paypaslab seni qidirdim!




Agar ketgan bo'lsang, buni ko'rishni istamasdim, chunki... Ketganingni hatto qo'llarim-la his qilmoq ham menga dahshatli qo'rquv va og'riq berardi, bunida yaxshi bilardim. Sen ketmagan har tong shukr qildim, yonimdaliging uchun. Uxlashingni tomosha qildim. Va ishon menga, hayotimda senga bo'lgan tuyg'ularimdan ham go'zalroq narsaga duch kelmadim! "Go'zal narsalar tez nihoyalanaadi" deyishardi. Aytchi, seni kim tugatdi? Meni-chi? Qo'yaver! Tasalli berishga urinma! Ammo... yana bir bor yelkamdan o'p. Ortimdan quch. Agar yuzingga qaraydigan bo'lsam, yana stolga nimalardir tashishimga to'g'ri keladi. Iltimos, o'p yelkalarimni... Va yana yolvoraman, bundan keyin o'zing bilmagan biror shaharga sayohatga chiqma!" dedi. Ikki qadam tashlab, ortidan quchdim. Lablarimni yelkasiga bosib, "Choy damlashni unutibsan, o'zim damlayman" dedim. Yig'ladik. Bola kabi yig'ladik. Bir yelkasidan, narigi yelkasigacha takror-takror o'pdim. Hanuz stolning ustida turgan qo'llarini tutib, o'zimga qaratdim. Sochlari yuziga tushgan va ko'z yoshlaridan nam bo'lgandi. Barmoqlarim uchi bilan nam sochlarini tarab, qulog'ining orqasiga o'tkazib qo'ydim. Iyagidan tutib, "Topdim" dedim, hayajon bilan... Ishonish qiyin edi. Nimani topganimni so'ramadi hatto. "Ishonching komilmi? Chindan ham o'zingni topdingmi" dedi. U titrardi. Qo'rqayotgani ko'rinib turgandi. "Topdim" dedim, shasht bilan takrorlagancha. "Topdim!" Hayotimda ilk bor kimdir o'zimdanda ketmasligim uchun mendan ketishni o'ylardi. Yonida turdim. O'sha kuni nonushta qilmadik. Tashqariga chiqdik. Shunchaki yurdik. Ikki dona simit\* oldik. Uzoq yurdik. Uyimni topgandim.

.....



Shubhasiz, hech kutmaganimizda qo'ldan boy berdik ba'zi narsalarni. Juda xohlaganimizda, qo'limizdaligida va yo erishishga oz qolganida...

Biroq bularning hech birini endi qaytarib bo'lmaydi. Qaytargan taqdirda ham, avvalgidek hayajonlantirmas balki... Va ayni shu lahzada yashayotganimiz hamda o'tmishning go'zal xotiralari eng oliy yutug'imizdir. Boshqatdan boshlash mumkin emas! Hayotingda kelgan joyidan davom ettirish mumkin xolos. Zero, buni qabul qilishdan boshqa yo'l ham yo'q.





**Avvaliga uning ham yarador ekanligi sizga yoqadi. Ammo vaqt o'tib, shunchaki yarasidan xalos bo'lish uchun kelganini anglab yetasiz.**

Yangidan boshlamoq uchun meni tanlama. Chunki hech qanday yangi munosabatlarga muhtoj emasman! Zotan insonlarning yangi boshlaydigan munosabatlariga sira ishonmadim. O'ylab qara, shuncha narsani boshingdan o'tkazgansan "Kechirasan, boshimdan o'tkazganlarimning hammasi shunchaki yomon tajriba edi, aslida, yashashni endi boshlayapman" demoqchimisani? Chindan ham bu senga ishonarli tuyulyaptimi? La'nat izlaring tamoman yo'qolib ketdimi? Kimnidir bag'ringga bosding, o'pding, isini va ovozini o'zingnikidek qabul qilding. Uyining eshigiga olib boradigan yo'laklarni hatto ko'zing yumuq holda topadigan bo'lding va to'satdan hammasini unutding-u, o'tdi-ketdi, shundaymi? Yo'q! Aslo! Men hech kimning yangi hayoti bo'lishni istamayman! Qayerda biror halokat bo'lsa, shunga yo'liqqandek his qilaman o'zimni. Qayerdan qichqiriq eshitilsa, men ham baqirayotgan odam bilan birga baqiraman. Sen ham shunday qil: baqir, jim bo'l, yiqil, oyoqqa tur va bulardan aslo uyalma. Agar puchbo'lib chiqqan xayollaringning sababini mendan qidiradigan bo'lsang, buni ham to'g'ri qabul qilaman. G'azabingni so'ndiraman. Orqaga surmayman, senga bag'rimni ochaman. Chunki samimiyatning bahosi yo'q! Masalan, onangdan birinchi tarsakini qachon yegan bo'lsang, ilk bor qayerda qoqilgan bo'lsang, qaysi taomlarni xushlamasang, qachon bor kuchingni yo'qotgan bo'lsang, hayotdan ne

.....



vaqt nafratlangan bo'lsang, tunning qaysi soatidan keyin uxlaydigan bo'lsang, horg'in bo'lsang, gavjumlikdan bezgan bo'lsang, kimdir seni sevaman degan holda, aslida, sira sevmagan bo'lsa va bu barcha bo'lib o'tganlardan aqlingni yo'qotgudek bo'lsang-u, ammo birovga aytolmayotgan bo'lsang, menga yoril. Sezdingmi? Quvonchingni hamma bilan o'rtoqlashishing mumkin, seni eshitishadi, hatto g'ayirliklari kelsa ham bildirishmaydi. Lekin hech kim bir yiqilishning qanday bo'lganligiga qiziqmaydi. Faqat ayblaydi. Xuddi jirkanch bir narsaga yo'liqqandek aftini bujmaytirib qaraydi. Ich-ichidan rohatlanib, kuladi. Bu ham senga kam, sen bundanam ortig'iga arziysan deya sevinadi, ammo o'zini senga rahmi kelgandek ko'rsatadi. Shuncha vaqt o'tib ham insonlarning asl basharasini ko'rishga qiynalayotgan bo'lsang, yanada diqqat bilan qara artrofingga. Yoningdagi insonlarning aslida nima sababdan yoningdaliklarini bilishdan qo'rqma! Va shu boisdan ham mendan yangi munosabatlar kutma. Qo'yaver, qayerda qoqilgan bo'lsang, qo'l cho'zay. Yoningga o'tiray.

Yo'qotadiganimizni yo'qotaylik! Nima bo'пти shunga?! Birinchi marta bo'lyaptimi bu? Ko'pdan beri tayyorlamagan nonushtalarimizni tayyorlaylik. Avtobusdan tushishimiz kerak bo'lgan bekatdan bir nechta bekat oldinroq tushib, piyoda kezaylik. Uyqung qochgan paytlari tunni birga bedor o'tkazaylik. Zotan, hayot shu emasmi? Bo'lib o'tgan narsalar uchun ko'z yosh to'kib, ahmoqona tasallilar axtarish o'rniga, "Endi men borman" deya bilmoq... Ana shular bilan kel menga. Haqiqatlaring bilan, yo'qotgan kuylaring bilan, eshitishni unutgan so'zlaring

.....



bilan, qo'rsaganlaring bilan... Qoqilib tushgan joyingdan tur endi. Qani, tezda qaddingni rostla! Qo'limdan tut. Boshingni ko'ksimga qo'y va yuragim sasini tingla. Oyoq kiyiming o'lchovini, iforingni, ovozingni, kepakli nonni yoqtirish-yoqtirmasligingni hali bilib olaman. Menga mana shular bilan kel. Ammo mendan aslo yangi munosabatlar kutma. Chunki inson qanchalik achchiq bo'lmasin o'tmishi bilan bir butundir!

[t.me/FirDaws\\_21](https://t.me/FirDaws_21)





**Bir narsadan shu qadar qattiq ranjidimki, endi jonimni og'ritish uchun yanayam ulkanroq yaralar qoldirishingizga to'g'ri keladi. Ammo bunga men izn bermayman!**

Yolg'iz qolganimdan so'ng insonlarni tanishni boshladim. Naqadar g'alati bo'lmasin, gavjumlikda birov birovni taniyolmaydi. Har doim birga bo'lgan insoningizni ham bo'lganicha taniysiz. Uni o'ylayotganda, ayni dam yonimda bo'lishi lozimligida va u qalban yo vujudan boshqa bir yerdaligida yoki aynan qarshimda turganida va unga juda ko'p narsalar haqida aytishni istab turib, tilimni tishlaganimda, yo u ayni on vujudan yonimda bo'lgan holda qalban boshqa yerdaligida yoki u tinmay gapirarkan aslida bu gal gaplashadigan hech narsa qolmagani uchun u gapiryotganiga qaramay, sukut saqlaganimda. Parlangan derazada paydo bo'lgan bug'ga yaqinlashib, ismingning bosh harfini yozarkan, to'satdan derazaga tushgan quyosh nuri bug' bilan birgalikda ismingning bosh harfi ham erib ketgani uchun ezilganimda. Avtobusga chiqqanimda, yonimda o'tirgan yo'lovchiga tashqaridagilar hasrat bilan qo'l silkitganida va men bilan xayrlashish uchun hech kim kelmaganida. Hech qachon va hech qayerda birov tomonidan kutilgan inson bo'lmay turib, avtobusda yonimda o'tirgan yo'lovchidan "Yana qancha qoldi? Qayerdasan? Qachon yetib kelasan?" deb so'roqqa tutishlarini eshitgan onimda, sayohatga hech qanday yuksiz chiqqan vaqtlarim, yukim yo'qligi uchun yordamchi menga tilxat yozib bermagan damlarda, yonimdan kimsalar kulishib o'tganida,

.....



xonamda bor ovozimcha baqirganimda, hatto ovozimning o'zimga qaytib kelmagan paytlarida, yotoqqa cho'zilib, o'lim haqida o'ylayotib, qizg'in olov ichimga tushib, butun badanimni junjiktirganida va hech bir suratga baxtiyor tushmaganimni anglaganimda tanidim insonlarni. Naqadar g'alati. Gavjumlikda tanimaydi birov birovni. Yashadim va angladim...





**Hayotda yashashni boshlashni hech kechiktirib bo'lmaydi. Va kech yuz bergan baxtiyorliklarning ta'mi nordon bo'ladi. Chunki uning yuzi doim dard tomon burilgandir...**

Bu kitobni naq yigirma yil oldin o'qigandim. Yuzlab kitobning orasidan unga ko'zim tusharkan, xuddi ancha yillar ko'rmagan bir tanishimni ko'rib qolgandek, hayajon bilan qo'limga oldim va orqa muqovasini barmoqlarim bilan siladim. Kitob ham menga "Xush kelibsan" deyotgandek edi. Baxtiyorligingni his qilgan edim. Bir necha soniya shu holatda turgandan so'ng sahifalarga ko'z yugurtirdim. Vaqt faqat kitoblarda to'xtab turadi. O'sha ko'chalar, o'sha insonlar, o'sha fasllar, o'sha siyosiy hokimiyat, hali mobil telefon kashf qilinmagani uchun ko'cha boshida yonma-yon turadigan jetonli telefon butkalari, butkalarining orqasida qo'lida jetonlar bilan navbat kutayotganlar va "Buning gapi qachon tugaydi" deya jahl qilib qo'yayotganlar shitirlayotgan yomg'ir, ohista esayotgan shamol, sal nariroqdagi qahvaxonada qarta o'ynagancha, oldindagi saylovda kimga ovoz berishlari haqida bahslashayotgan nafaqadagi amakilar, furgonda qaynatilgan makkajo'xori sotadigan yuzi oftobda kuygan, bir ko'zi ko'rmaydigan va xotinini o'ldirgani uchun yigirma yil qamoqxonada yotgan sobiq mahbusning "Yangi qaynatilgan makkajo'xorilar bor" deya baqirgan ovozi, bir necha daqiqa avval svetaforda bir-biriga kelib urilgan ikki mashinadan birining ruli va o'rindiq o'rtasida qisilib qolgan o'ttiz yoshlardagi ayolning achchiq qichqiriqlari va yana bir necha holatlar o'sha-

.....



o'sha edi va men ham go'yo o'z uyimga qaytgandek edim. Meni qattiq ta'sirlantirgan bu kitobni o'qigan vaqtlarim bu qadar g'oyib bo'lmagandim, lekin xuddi hozirgi kabi nimalarnidir izlab yurardim. Bir kun kelib, izlagimni aniq topaman, bunga amin edim. Qolaversa, shuncha yildan keyin izlagan narsamni topganim bir yon-u, men bo'lsa yana hamma narsadan uzoqlashib ketgandim. O'qishim ham yakunlangan, sira ayrilmaymiz degan insonlardan-da allaqachon yiroqlashilgan, ularning o'rniga yangilari kelgan, yangi kelganlar ham ketib bo'lishgan, yangilana-yangilana ortidan bir nafasda eskirgan bu holatlar g'oyat ko'p takrorlangan edi. Kitobning ilk nashrini yangi ishga kirganimda, boshqa bir shaharga ko'chayotib yo'qotgandim va bu kitob o'shandan keyin sira xayolimga kelmagan edi. Borishni istagan joylarim, ko'rishni xohlagan insonlarim, sevib eshitadigan musiqalarim, o'quvchilik paytlarimda har ikki kunda bir yeydigan turli xil makaronlarim ham kitobga qo'shib, unutilib ketgandi. Ammo vaqtlar o'tib, ichimga bir bezovtalik qaytib kelgandi va menga nimadir yetishmayotganini va u nimaligini qanchalar eslashga urinmay, topa olmagan edim. O'tmishdagi sevgilim Nihon, otam va onam, bankda turgan hisob raqamimdagi pulim, bog'i bilan ikki xonali, ikki qavatdan iborat uyim, har yili yangilanadigan mashinam, ish bo'yicha majlislarim, bir paytlar eng yaqin do'stim bo'lgan, hozirda chet elda yashaydigan Samedning uch yashar o'g'li meni biroz chalg'itgan bo'lsa ham, hammadan g'alati bir tarzda uzoqlashgan va meni hech bir shaklda qoniqtirmasliklariga ko'nikib ketgandim. Qiyinchliklar o'tib ketayotgan va baxt

bo'lib ko'ringan narsalar ham barham topayotgan edi. Hamma narsaning tasavvurga sig'mas darajada darrov o'zgarib ketishi, insonni hech qayerda ko'p qololmaydigan bir yo'lovchiga aylantirishga yarardi xolos. Yigirma yil ichida ishim sababli o'nlab shahar va mamlakatlarni ko'rgandim. Yuzlab kitob mutolaa qilgan va har on qo'ziqorin kabi ko'paygan-u lekin birinchi kitobidayoq nomi o'chib ketgan yoki o'zini har asarida takrorlagan yozuvchilarning unutilishga guvoh bo'lgan, qarindosh urug'larimning hammasi oila qurib, bola-chaqasi bilan ovora bo'lgan bir damda, men uzoq masofali dam olish maskanlaridagi iflos qoshiqlardan jirkangan, avtobuslarda ikki bukilib uxlagan, uyg'ongan, borgan, qaytgan, halokatlarga uchragan ammo eng yomon va fojiaiy halokatlar o'z ichimda yuz berishidan va men qanday bo'lsa ham bu halokatlardan soppa-sog' chiqayotganimdan nafratlanardim! O'lishni judayam istardim-u, ammo o'lganimdan keyin qayerga borishimni bilmaganim uchun bundan ham qo'rqardim. Meni hayotga ushlab turgan bir narsa bor edi va ayni damda bu narsa meni hayotning noma'lum tomonlariga irg'itar edi. Chunki nimani izlayotganingni bilmaslik insonni charchatardi va qidirganingni topa olmaslik yoki topdim deb o'ylab, yanglishganingni anglashing — butun harakatlaringning kulini ko'kka sovurardi. Nihoyatida esa yo'lning eng boshiga qaytib, ayni izlarni takroran bosmoq, tanish insonlarni ilk bor ko'rayotgandek boshqatdan tanishishga urinmoq, qayerda xato qilganingni anglashga kirishmoq, bir qancha yo'l bosib, ikkiga ayrilgan yo'lning boshida to'xtaganicha, o'tgan safar qaysi biridan yurganligimni eslashga urinib,

.....





xuddi o'sha yo'lni tanlamaslik uchun ehtiyot bo'lish bilan birga baxtsiz ravishda yana o'sha yo'lni tanlaganimni yo'lning yarimiga yetganda bilmoq va u yerdan endi ortga qayta olmaslik lekin yo'lning oxiri qayerga olib borishini bilish ham juda qo'rqinchli edi. Shu boisdan, umrimning ko'p qismi behuda o'tganligini qabul qilish mening tez-tez yuzlashadigan haqiqatim edi. Bu kitobni topganimdagi quvonchimning sababi ham shu. Endi juda-juda ilgariga qaytishim mumkin edi. Go'yo umrimning ham avvaliga... Odamlar juda kam va yashash uchun chiroyli joylarni ifloslantirmaydigan o'sha davrlarga... Ya'ni tashlab ketilmagan, doim tabassum qiladigan, ishlab pul topishga majbur bo'lmagan, jamiyat ichida kimligimning zarracha ahamiyati bo'lmagan o'sha davrlarga...

-B- Kitobni olgancha, apil-tapil uyga qaytishim ham, xuddi bolaligimdagi kabi uyga qaytishim bilan maktab formalarimni va portfelimni bir chetga uloqtirgancha, ko'chaga yugurishim kabi bo'lgandi. Xonamning chirog'ini yoqmasdan, pidjagimni va oyoq kiyimimni kravatimning bir chetiga tashlarkan, yolg'iz o'zim yashaydigan uyning mehmonxonasidagi kulrang yumshoq yostiqchali o'rindiqqa cho'zilishim, tirikligida yashashdan nihoyatda charchagan va endi o'lganidan keyin qabrda bamaylixotir oyoq uzatib yotishni o'ylayotgan o'likning tuygan saodati bilan bir xil edi. Boshqa vaqtlardagidan farqli o'laroq, hozir hech narsa haqida o'ylashni istamayotgan edim. Qish mavsumi asta-sekin kirib kelayotgan edi va go'yo sovuqqotgani uchun o'jarlik bilan derazadan ichkari kirishga urinayotgan shamolning hushtaksimon uvillashi ham meni bezovta

.....



qilmayotgan edi. Shamolning tovushini sevmasdim sira. Go'yo yuz yoshga kirgan bir odam, quruq va kuchsiz tirnoqlari bilan oynani tirnayotgandek tuyulardi menga. Uyimga qamalib olish menga judayam yoqardi. O'zim bilan o'zim qolgan paytlarim o'tmishimga oid nimalarnidir eslashga urinar, dengizga ilk bor sho'ng'iganimni, balandlikdan qo'rqishimni qachon payqaganimni, yozgi ta'tillarni, birinchi o'qituvchimning ismini, meni eng ko'p nima qo'rqitishini, tushunarsiz aybdorlik tuyg'ularimni, menga aytilgan yolg'onlarni, men so'zlagan yolg'onlarni, bir xil suratlarni tomosha qilarkan, payqamay o'tib ketadigan mayda detallarni bu safar ko'zdan qochirmaslik uchun nega telbalarcha uringanimni, nima uchun onamga qo'ng'iroq qilmay qo'yganimni, birovga yoki biror narsaga osonlikcha ko'nikolmas ekanman, nega ilk bor sigaret chekkanimda boshqalarga o'xshab yo'tal tutib qolmaganini, ichimga yutib yurganlarim, biror yo'l topib tashqariga chiqib ketolmagani uchun meni mutassil ezganini, asablarim nega doim bunchalik tarang tortilib turishi haqida o'ylardim. Qidirayotgan narsam shularning ichida bo'lishi mumkin edi. Baxtsiz hodisa yuz berib, insonlarning ichiga kirib qolganimda esa ular bilan yuzlari mavjud emasdek gaplashardim. Ular faqat quruq jasaddan iborat edilar men uchun. Tanalarining ranglari bir xil edi. Yuzsiz bo'lganlari uchun ovozlari ham bir-biridan farq qilmasdi. Yelkasidan yuqorisi mavjud bo'lmagan bir mavjudot edilar. Men kimsani tanimaganim uchun mukofot o'laroq berilgan huzur-halovat ichida edim.

Nihonni sevardim. U hayotimda kamdan kam hollarda men qabul qilgan to'g'ri qarorlardan biri edi.





Ammo qanchalar qochishga urinmay, yolg'izlikka shunchalar yaqin edim. Yonidaligimda hadeb gapirmasdim. Xuddi hech qanday sababsiz nimanidir unutib qo'ygandek yoki nimadandir jahlim chiqayotgandek. Go'yo hayotdan ko'nglim qolgandek. Oxirgi uchrashuvimizda shunday holat bo'lgandi. Ajoyib boshlangan tong, peshindan o'tib falokatli tus olgan edi. Men yana boshqa birovga aylangandim. Men qo'lini tutgan ayolning yuzi birdan g'oyib bo'lgan edi. Seskanib ketdim undan. Hozir uyqudan uyg'ongandek, ko'zlarimni katta-katta qilib ochib yumgancha yuzini ko'rishga urindim. Buni bir necha bor sinab ko'rdim. Avval barmoqlarim bo'shashdi. Keyin gavdamni tutolmay yiqildim. Yiqilgan joyimdan o'zimga qarardim va u yerdan darhol ketishni istardim. Bir muncha vaqt o'zimning ham yuzim g'oyib bo'ldi degan sarosimada barmoqlarim bilan qo'rqa-pisa paypaslab tekshirib ko'rdim va yuzim joyida turganligini anglaganimdan keyin yengil nafas chiqardim. Bir necha daqiqa o'tib, unga yuzimni o'girmasdan: "Yetar, ketishni istayman" deyishim zahoti darhol aks-sado o'zimga qaytib kelgan edi. Biroq kech bo'lgan edi. Bular Nihonga ta'sir qilmay qolmagan edi. Chunki bir gal "Rost yo yolg'on bo'lsin, xoh hazil, xoh chin bo'lsin, bir kun menga ketishni istayotganingni aytsang, bir lahzayam yoningda qolmayman! Qanchalik qalbim og'rimasin, bunga chidayman! Ammo senga qol demayman. Tushunyapsanmi? Bu sevgimni qadrlamasligingni bildiradi. Birga o'tkazgan kunlarimizni sariq chaqaga chiqaradi. Sendan yagona istagim shu, agar ishonching komil bo'lsa va chindan ketishni istayotgan bo'lsang, yuzimga tik boq va ketishni istayotganingni







ayt" degandi. Kutilmaganda o'rnidan turdi. Bir oz oldin yiqildim deb o'ylab, cho'kkalab qolgan joyimdan unga hadiksirab boqdim. Yuzida ishonib bo'lmaydigan darajada chuqur dard va hayrat zohir bo'lgandi. Eshitganlariga ishonch hosil qilishni istayotgan edi. Xato eshitmaganini tushunib, yiqilib tushmaslik uchun oyoqlari bilan yerni teshib yuborgudek qilib, qattiq tiragancha, qaddini tik tutishga urinib, kuldi. Jiddiy bo'ldi. Qoshlarini chimirdi. Yana kuldi. Ko'zlarining kosasi kattalashdi. Xuddi yuk mashinasi barcha xarobalarning tuproqlarini yig'ib kelib uning ko'zlariga to'kkandek limmo-lim to'ldi uning ko'zlari. Ammo yig'lamadi. Ishonib bo'lmas tezlikda o'zini qo'lga oldi. Qaddini rostladi. Qo'llarimni qo'lidan bo'shatib, birgina "Mayli" dedi. Shu on o'zimni o'zimdan ham kuchliroq narsaga urib, vayron qilganimni his qildim. Bir to'qnashuvda narigi tomon qanchalik kuchsiz bo'lsa ham, urilgan narsasida mutlaqo bir iz qolardi, ammo men unda hech qanday iz qoldirmagan edim. Ustida hatto biror chiziq ham ko'rinmasdi. Go'yo hech qachon mavjud bo'lmagandek edim. Mayda bo'laklarim ham uvalanib, qum zarrasi singari ko'kka sovurildi. Mag'firat qilingani uchun ranjigan bir gunoh kabi edim. Tabiiyki, bir gunoh kechirilsa, gunoh qilganning egasi ustidagi yukdan qutilgani uchun xotirjam bo'lardi, ammo gunoh o'zining o'limidan keyin g'amga botar edi. Nafrat bilan o'zimga boqdim. Xudbin va manman edim. Buning boshqa bir izohi yo'q edi. Boshqa biror so'z demadi. Qo'llarini cho'ntagiga solgancha, kelgan tomonimizning teskari tarafiga qarab keta boshladi. Meni ushlab turadigan hech narsa qolmagan





edi. Atrofimdagi insonlarning yuzlari yana g'oyib bo'ldi. Ko'zdan yo'qolgunga qadar ketishini tomosha qilib turdim. Bir qancha vaqt devorga suyanib, samoga boqdi. Dovdirab qolgan edi. Ammo bu juda oz muddat yuz berdi. Qolaversa, u bunday ahmoqona yakunga munosib emasdi. Ketganidan keyin so'ngan umid bilan yonimdan o'tib qaytgan hammaning yuziga tikildim. Ancha vaqtdan beri ilk bor insonlarning yuzlariga qarayotgan edim. Begona chehralardan uni izlardim. Bo'ydor, pakana, semiz, oriq, sergap, kamgap, baqirgan, yig'lagan, kulgan, maqsadsiz yurgan ayol va erkaklarga diqqat bilan nazar soldim. Lablarini, ko'zlarini, qo'llarini yurishlarini hamma hammasini sinchiklab kuzatdim. Ammo qilayotgan bu ishim o'ta ahmoqona edi. Aslida, uning ortidan borishim kerakligini yaxshi bilardim. So'ngan bo'lsa-da, hali umid bor edi. Balki kichik bir ehtimol bilan kechirilardim. Ammo qachongacha? Oqibatda yana shu ishni qilardim. Hayoti zaharga aylanar edi. Va ikkinchi yo uchinchi martasidan keyin, na unda va na o'zimdagi eslashga arzigulik biror go'zal xotira qoldirmasdim...

Uzun muddat hayotimda birov bo'lmadi. Bo'lgan yo bo'lishga uringanlar ham men "Yetar, ketishni istayman" deyishimga fursat qoldirmay, o'zlari tark etardilar. Zero mendan bir ishchiqmasligi ma'lum edi. Biror so'z demasdim. Yuzlari va ovozlari g'oyib bo'lardi. Bu ko'nikmam sira o'zgarmasdi. Bank hisobimdagi pullar, muzlatkichimga terilgan-u, ammo yeyilmagani uchun tashlab yuboriladigan turli xil pishloqlar, bog'i bilan ikki xonali, ikki qavatdan iborat uyim, har yili yangilanadigan mashinam, ish bo'yicha majlislarim va men ega bo'lgan boshqa narsalar hech

.....



qanday qiymatga ega emasdi. Bir tartibsizlik bor edi va bu betartiblik kundan kunga palak yozgan edi.

Shamolning o'limni chaqiradigan tovushiga kulganча, ortimni o'girdim. To tug'ilgan kunimdan boshlab hozirgacha, o'zinga bir qur nazar tashlash payti kelgan edi. Men kitobni o'qimay turib, uning ovozi yangrayotgandi. Barcha ishi va tashvishini bir chetga surib, o'z hikoyasini aytib berish uchun betoqatlanardi... Telefon butkasining yonida navbatini kutganlar, qaynatilgan makkajo'xori sotuvchi, qahvaxonadagi amakilar, avtohalokatga uchragan ayol... Masalan, sotuvchi bilan ayol aldanganlardan edi. Ayol uyidan g'azab bilan chiqib, rulga suyangancha yig'larkan, kutilmaganda ro'paradan kelib qolgan mashinani payqamagan va to'qnashuv sodir bo'lgan edi. Menga aytib bergan hikoyasi shu edi, ammo men bunga unchalik ishonmadim. O'ylashimcha, voqea asli boshqacha edi: To'g'ri, ayol aldanganligidan xabar topgan va g'azab bilan uydan chiqqanidan keyin o'z joniga qasd qilish haqida o'ylagan. Buni qanday amalga oshirish haqida reja tuzayotib, unga mashinani tezligini oshirish va qayergadir borib urilish juda yaxshi fikrdek tuyilgan va shu o'y bilan tormozni bosmasdan ro'paradan yuqori tezlikda kelayotgan mashina bilan to'qnashgan edi.

Biroq halokatdan keyin o'limdan juda qo'rqqan va qilgan ishidan qattiq pushaymon bo'lgan edi. O'limga yaqinlashgan onida ichida g'ayrioddiy bir yashashga bo'lgan tabiiy instinkt paydo bo'lgan edi. Hamma narsa bir tomon, "Men nega o'lishim kerak ekan? Agar o'lsam, qolganlar yashashda davom etadi va hatto mendan qutilganlari uchun







quvonib, go'yo g'amga botgan singari bir ikki tomchi soxta ko'z yoshi to'kib qo'yishadi. Ammo bir oz vaqt o'tib, yo'qligim sha'niga bazm-u jamshid uyushtirishadi" deb o'ylagan edi. U haq edi. Nima bo'lgan taqdirda ham hayot davom etardi. Chunki har doim shunday bo'lgan. Orqada qolganlar qanchalik g'ussaga cho'kmasin, baribir yashashda davom etishar edi. Sotuvchiga kelsak, xotini va uning xushtorini bir yotoqda ko'rgan zahoti aqldan ozgan, avval o'sha odamni keyin esa o'zi sevib uylangan xotinini o'ldirib, jasadlarning boshida o'tirib yig'lagan va jinoyatiga vosita bo'lgan qo'lidagi pichoq bilan bir necha bor o'zining bilaklarini ham kesgan, ammo so'nggi daqiqalarda o'zini o'ldirish fikridan voz kechib, militsiyaga xabar bergan edi. Mahkamada ham advokatining qancha qistashiga qaramay, aslo pushaymon emasligini takrorlagan va shuningdek, u bunday jinoyatlarda qo'llaniladigan jazoni yengillatish qonunini ham rad etgan edi. Telefon butkasining yonida navbatini kutayotganlar bilan qahva-honada qarta o'ynagancha, oldinda turgan saylovda kimga ovoz berishlari haqida bahslashgan amakilardan esa so'z ochishni istamayman. Ularning ma'nosiz hikoyalari bor. Navbatdagi va kundalik tashvishlari bor xolos. Aytgancha, aslida yuragimni g'ash qilgan narsa shuncha dardi bor insonlarning ichida o'zimga tegishli biror narsa topa olmaganim edi. Go'yo bolaligimga borayotgan edim, lekin yoshim ancha ulg'ayib qolgan edi. Boshimdagi yostiqni jahl bilan uloqtirdim-da, kitobning sahifalarini tez-tez varaqladim. Shu payt qarshimdan kitobni ilk bor o'qigandimda, meni lol qilgan, ammo ancha vaqtlardan

.....





beri xayolimga ham kelmagan bir ayol qahramoni chiqdi. Aslida, u oson unutiladigan narsa emasdi. Ayolning bo'yi mendan bor yo'g'i bir necha santimetr past va lablarining orasiga sigaret qistirilgan edi. U ko'chaning boshida turib, qizishgancha sumkasini titkilab, zajigalkani qidirardi. Yonidan o'tib ketayotganlar sigaretini yondirib berishni taklif qilsalar ham hech biriga ro'yxush bermayotgan edi. Darhol qo'lim yonimda turgan stol tepasidagi plashimga bordi. Juda ahmoqona ish edi bu. Balki telbaning ishidir, ammo o'zimni boshqara olmayotgan edim. Beligacha tushgan kumushrang va to'lqinsimon sochlari, mayin esayotgan shabadada gapirish uchun oxirgi kuchini ham sarflagan bir xasta kabi bilinar-bilinmas o'ngga-chapga tebranar, lablarining har ikki chetidagi mayda chiziqlar esa ayolning o'ta horg'in ekanligidan darak berib turardi. Sigaretini yoqqanidan keyin, chuqur ichiga tortib, tutunini boricha uzoqqa pufladi. Men u buni astoydil istaganidan yo ongli ravishda qildi deb o'ylamayman. Uni yanayam diqqat bilan kuzatdim. U ham kimdir ta'qib etayotganini sezgandek atrofga nazar soldi. Orqasiga burilib qaradi. Hech kim uni kuzatmayotganligiga ishonch hosil qilganidan keyin, yelkasiga osib olgan qora sumkasini bu gal bo'yniga osgancha yurishni boshladi. Ayolning ismi Merve edi. Oldingi sahifalarning birida qandaydir erkak uni shu nom bilan chaqirgani yodimga tushgan edi. Biroz vaqt o'tib, o'sha erkak ayolning yoniga borib suhbatlashishni istashini bilardim. Yana ahmoqona bir tarzda "To'xta! U tomonga borma" degim keldi. U yurishda davom etdi. Kitob do'konining qarshisiga kelganida esa endi u erkak

.....



bilan to‘qnashishdan qochib bo‘lmas edi. Yana biroz kitob sahifalarini varaqlab, Merveni o‘sha yerda qoldirdim. Faqat eslashim bo‘yicha, u erkak bilan yig‘lab gaplashgan edi. Nima uchun yig‘laganini unutgan edim. Shu bois kitobning sahifalarini varaqlarkan, men ham u bilan birgalikda qadam bosdim. Go‘yo soyaga o‘xshar edim. Hamisha yonida edim, lekin u meni ko‘rmas edi. Va nihoyat u odam ham ko‘chaning narigi tomonidan yurib kela boshladi. Bu o‘ta ko‘ngilsiz ammo yuz berishi lozim bo‘lgan bir uchrashuv edi. U odamni ko‘rar ko‘rmas Merve bilan birgalikda men ham lol qoldim. Go‘yo tomirlarimda qon oqishdan to‘xtab qolgandek bo‘ldi. Chunki u erkak menga quyib qo‘ygandek o‘xshar edi. Xuddi yigirma yil burungi ko‘rinishim singari biroz ozg‘in va soqollari siyrak edi. Havo ancha salqinligiga qaramay, erkakning egnida faqatgina yupqa bir ko‘ylak bor edi. O‘rtadagi masofa ancha qisqarganidan so‘ngra qo‘llarini cho‘ntagidan chiqarib, Mervega hayrat-la boqdi. Bu uchrashuv uning uchun ham kutilmagan bir hodisa bo‘lganligi ko‘rinib turardi. Bezovta edi. Gapirish uchun og‘iz juftlardi-yu, ammo xuddi keraksiz biror so‘z aytib qo‘yadigandek, tilini qattiq tishlardi va sukut saqlar edi. Bu holat bir necha bor takrorlandi. Ikkisining o‘rtasida ko‘zga ko‘rinmas ulkan bir jarlik bor edi. Va nihoyat bor jur‘atini to‘plab, “Salom, Merve” deyishni uddaladi erkak. Ikkisini shu yerda qoldirib, shoshgancha kitobning so‘nggi sahifalariga ko‘z yugurtirdim. Balki erkakning ismi biror joyda tilga olingandir deya. Biroq topa olmadim. Darrov o‘sha sahifaga qaytgancha, yana Mervening yonidan joy oldim. “Nima uchun?” dedi Merve va gapirishda davom etdi:

.....



“Nega ketding?” go‘yo Merve erkakka o‘tgan vaqtlarning eng qiyin savolini bergandek edi. Aslida, erkak uchun ham, Merve uchun ham, javobi o‘ta muhim bo‘lmagan bir savol edi bu. Ketgan edi, vassalom! Buning javobini bilish na vaqtni ortga qaytarardi va na bo‘lgan voqeani o‘zgartirar edi. Erkak bu gal tilini tishlay olmay, nimjon bir tovushda “Qololmasdim, bilasan” dedi. Ovozida nadomat va andishadan sira asar yo‘q edi.

Qilgan ishini to‘g‘riligiga ishonchi komil edi. Biroz sukutdan keyin yana takroran “Qololmasdim, bilasan” dedi va yana so‘zida davom etdi. “Mendan jahling chiqmasin, insonlarning yuzlari g‘oyib bo‘lishidan, hammani bir qolipda ko‘rishdan, har kimning ovozini bir xil eshitishdan, vaqt o‘tib seni ham bularning ichidan topishim mumkinligi haqida qaytarib aytishni xohlamayman. Qololmasdim, vasallom! Men umidsiz bir insonman, o‘zgarolmayman! Bu qo‘limdan kelmaydi. Men har lahza yolg‘izlikka ko‘proq yaqin edim.”

Erkak bularni aytar-aytmas, qo‘lim bilan uning og‘zini yopib, qarshilik qilishga harakat qildim. Hatto uni yaxshilab do‘pposlab qo‘ygim keldi. G‘azablandim. Aslida unga bir musht tushirib, u yerdan uzoqlashishim kerak edi. Xo‘p, nega bunchalik jahlim chiqdi undan? Mervega bularni ravo ko‘rgani uchunmi yoki faqatgina tashqi ko‘rinishidan emas, harakteri ham menga juda o‘xshagani uchunmi? Yoki bularni gapirgan menmidim? Merveni qachondan buyon tanirdim? Tark etishni va insonlarning yuzlari g‘oyib bo‘lishi haqida shu kitobdan o‘rganganmidim?

Kitobning ichida bir oz oldin tezlashishni boshlagan yomg‘irning sochlarimni yaxshigina nam qilganini va





qo'llarim sovuq qotganini sezdim. Qocha boshladim. Qayrilib ortimga qarashni istamayotgan edim. Merve bilan u erkak ortda qoldi. Qahvaxonada qarta o'ynab o'tirgan amakilarning oldidan o'tdim. Ular saylovda kimga ovoz berishlarini, iqtisodning butunlay past ko'rsatkichdaligini va bu iqtisodni faqat yangi partiya to'g'iray olishini, partiya rahbari juda yoshligini, ishsizlik balosi tugashini, mamlakatda adolat qaror topishini va hokazolar to'g'risida gapirishardi... Ko'chaning boshida avtohalokatga uchragan ayol ham jon taslim qilgan edi.

Voqea yuz bergan joyga tez yordam mashinasi yetib kelgan va ayolni murda solinadigan sumkaga joylashgan edi. Ayolning eri yig'layotgan edi. Juda kulgili holat edi bu. Hayot davom etardi. Sotuvchi esa furgonini yig'ishtirib, ketishga chog'lanar edi. Qolganiga toqat qiladigan holim qolmagan edi. Peshonamdan oqayotgan reza terlar lablarimga qarab oqib tusharkan, darhol kitobni yopib, stolning ustida qoldirdim. Qidirib yurgan narsamni topgan bo'lishim mumkinligidan qo'rqayotgan edim. Ba'zilar hech bir joyga tegishli bo'lolmas edi. Ustiga ustak bunga arzigulik biror bahonalari yo'q edi. Shamolning derazani timdalagan kabi mudhish tovushi o'jarlik bilan ichkariga kirishga urinarkan, onam xayolimga keldi. Telefonni qo'limga oldim va ro'yxatdan "o" harfini bosdim-u, ammo so'nggi lahzalarda bu qarorimdan voz kechdim. Yana unga qo'ng'iroq qilolmadim. Muammo yana o'sha edi. Ovozlarining va yuzlarning g'oyib bo'lishi! Vaqt allamahal bo'lgan edi va men esa agar eplay olsam, uyquga ketishim ilozim edi.

BV IIIIIII







**Ortingdan bora olmaydiganchalik horg'in emasman. Biroq bilamanki, bu hol yana takrorlanadi. Yana hammasi tugaydi. Sen yana ketasan. Chunki biz — yaradormiz...**

Seni judayam qattiq sog'indim. Koshki, ba'zi narsalarni tuzata olishga ko'zim yetsa, hech bir bahonaning orqasiga berkinmay, senga qo'ng'iroq qilar va oldingda boshimni egardim, ishon! Chunki hamma gap ovozingni eshitishda. Barcha masala, "Nima bo'lsa ham, sen yaxshi bo'l" deya go'shakni qo'yib, ovozingdagi sog'inchni tuya bilishda.

Ming afsuski, endi buning iloji yo'q. "Koshki"ga imkon qoldirmaydigan darajada bir-birimizdan uzoqlashganmiz... Tugaganmiz... Boshqa usullarni ham sinab ko'rganmiz. Foydasi bo'lgan yo bo'lmaganini endi nima ahamiyati bor?! Men ham bilaman, bundan keyin biz sen bilan munosabatlarimizni yaxshilay olmaymiz va hatto uringan taqdirimizda ham bundan battar arazlashib, yaxshigina nafratlanamiz bir-birimizdan. G'azab yo adovatdan emas bu! Aslo! Ehtimol sabr qilganimizda, eplay olardik, tuzata olardik deb o'ylashimizdan xolos.

Bilaman, sen ham sog'inyapsan... Bilaman, ikkimiz ham og'ir yaralandik va endi buni ortga qaytarib bo'lmaydi. Bilaman, bu endi shu tarzda tugaydi. Yaxshi bo'l. Nima bo'lsa ham, sen yaxshi bo'l...



mi' Har bir insonning o'tmishga nisbatan hurmat  
va motam tuyg'usi bo'lishi kerak. Ketgan inson  
hech yo'qsa bir joyda to'xtab, tin ola bilishi lozim.  
O'tgan narsalarni chalkashtirib yubormaslik sharti  
bilan. Go'yo hech narsa bo'lmagandek, qanday qilib  
darhol boshqatdan boshlaysiz? Qalblaringiz qanday  
qilib bunchalar tez bir tosh parchasiga aylanadi,  
hayronman...





**Hatto bir qadam tashlashdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rayotgan bo'lsam, demak, bu bejizga emas. Sabahattin Alining aytganidek: "Odamlar mendan ishonish qudratimni tortib olganlar."**

Qarang, men hanuz o'zimga kelmadim, o'zimga kelolmayapman! Qolaversa, o'zimga kelsam nimalar yuz berishi to'g'risida kichik bir taxminim ham yo'q! Bu haqida o'ylashning o'zi juda qo'rqinchli. Nima qilayotgan edik? Ketayotganmidik? Yoki qolayotganmidik? Nahotki, o'zingga kelganingdan so'ng hammasini unutib qo'ysang? Men turgan joyimda qolishga ko'nikib qolganman, ketish qanday bo'lishini bilmayman! Yangi hayot qurish uchun faqatgina jasoratning o'zi yetarli deganlarga ishonolmayman. Chunki birgina jasoratning o'zi yetmaydi. Chunki boshqatdan ishonch bog'lash oson ish emas. Buning uchun tole kulishi lozim. Yaxshiliklarga duchor bo'lish lozim.

Agar hayotim bilan bog'liq biror xulosa qiladigan bo'lsam, birovga ortiqcha savol bermasdan, qiynamasdan, niyatim — shunchaki jimgina, unga suyangancha uxlash. Boshqa narsa emas. Bor-yo'q istagim shu... Biroq kimnidir eng sevgan insoni bo'lmadim hech qachon, bo'la olmadim! Buni o'zim uddalay olmadim! Har doim nimalarnidir ortidan ketdim.

Oyoqlarimni his qilmay qolgunimgacha yurdim. Ishonishni istardim. Eshik raqami o'n bo'lgan uyda ham yashadim, bir raqamlisida ham yashadim va zinalari quyiga olib tushadigan uylarda ham yashadim... Zulmatda qolish nimaligini yoki yerning eng tub-tubini va yoki





biror narsaga ega bo'lishning haqiqiy ma'nosini bilganim bois parvo qilmadim bularga. Bularning bari o'tkinchi bir holat edi. O'tib ketadigan hollar esa insonga azob bermas edi. Ammo bularning birortasiga qoqilib tushmoq, nuqson-la dunyoga kelgan bolaning tug'ilishiga o'xshar edi. Bunday holatda o'zining qonidan bo'lishiga qaramay birov uni tan olgisi kelmas edi. Sizga buni tushuntirib beraman. Hoynahoy, siz ham buni bir paytlar kimgadir tushuntirib bergandirsiz... Ammo xabaringiz bor, nega bunchalar toshbag'irsiz deya qolgan so'zlarni ichga yutmoq ba'zan insonning yagona chorasi bo'ladi. Aslida, nozik tushunchalar qanchalar go'zal, shunday emasmi? Masalan, gazetani olib, (qancha jildligini bilmadim-u, lekin aslida, hecho'qib tugatolmaydigan) ensiklopediyalar uchun kupon yig'moq, buni juda sog'indim. Onamning pekmez\*<sup>1</sup> bilan unni qovurgancha, dunyodagi eng mazali shirinlikni tayyorlashidagi g'amxo'rlik... Qo'rquvning ham pokiza narsalardan kelib chiqqan onlari... Qilayotgan ishlaringiz oqibatlarini insonning hayotiga zarar yetkazmaydigan bolalarcha xatoliklar. Hozirgacha bir-biriga o'xshaydigan juda ko'p narsani ko'rdim. Ammo hech narsa tashqaridan ko'ringani kabi emas. Olmos faqat yaltiragani uchun o'ziga tortadi va biz insonlarga ham shunday nazarda qaraymiz. Ammo dardga na teginish va na qiyo boqish bilan ta'sir qilib bo'lmaydi. Agar jasoratingiz yetsa, birgina lahza bo'lsa ham his qilishga urinib ko'ring. Boshidan qanday kunlar o'tganiga qiziqing. Ko'rgan kechirganlarini,

<sup>1</sup> Pekmez - Odatda uzum va tut kabi mevalarning qaynatilganda quyushadigan suvi







qilgan qarorlarini, "Men bo'lsam, unday qilmasdim, bunday qilardim" demasdan, ayblamasdan, qarang! Asli, yaralar jirkanch emas! Yaralardan jirkanishingiz yomon! Birovni azoblashdan zavq olishingiz va bunga sira ahamiyat bermasligingiz jirkanch!

Singan bir buyum kabi ko'chaga otishingiz,  
burningizga o'rnashib qolgan qon hidi, yo'lingizdan  
chiqqan halokatga qiziqish bilan qaragancha,  
"Xudoga shukr, begona ekan" deb yo'lingizda  
davom etishingiz jirkanch! Mana bular o'tkinchi  
emas! Va o'tib ketmaydigan narsalar hamisha  
insonga azob beradi...





## Takroran

Kel, bu kecha nimalarni yo'qotganimiz to'g'risida gaplashaylik. O'tir qarshimga. Jonim og'riydi deb qo'rq-ma. Bir marta bo'lsa ham qaddingni tik tut, tishingni tishingga qo'y, his et, bu befarqligingni bir chetga sur va bir kuni boshingga katta baloni olib keladigan sening xudbinliging ekanligini tan ol. Yorib chiq, endi o'z qobig'ingni. Bahonalarning ortiga berkinishni bas qil. "Sen juda yaxshisan, lekin men senga arzimayman" degan ertaklaringni yig'ishtir! Ming bor o'yladim bular to'g'risida. Qolaversa, qo'limni bir aravaning orqasiga bog'laganicha, meni qanday sudrashini tomosha qilayotgandek, kiprik qoqmasdan kutdim. Gap ayriliqda bo'lsa, men hamma narsamni bir chetga surib qo'ygandim senga kelishdan avval. Maqsadim seni pastga urishemas. Bunga ko'zim qiymaydi. Ming la'nat bo'lsin-ki, senga hamon ko'zim qiymaydi. Shuncha narsaga qaramay, "Juda go'zal edi" deyman... Ammo buni chindan his qilishim kerak. Ya'ni mendan olganlaringning evazini qaytar! Quchma, qo'lingni uzatma, menga tegma! Ahvolimga rahming kelganidan emas, bularni chin yurakdan qil. Kerak bo'lsa, ko'ksimni o'yib ismingni yoz. Bilinsin... Xuddi shu ko'chaning boshida o'rganimdagiki kabi ko'zlaringni yum... Yuzimga biroz yomg'ir yog'dir. Mening dardim seni ushlab o'tirish emas. O'tir qarshimga. Gapir. Shunchaki bu kecha nimalarni yo'qotganimiz to'g'risida gaplashaylik. Keyin mayli, ketaver. Qo'lingni bir aravaning orqasiga bog'laganicha, seni qanday sudrashini tomosha qilish qanday bo'lishini sen ham tushun. Mening dardim... O'tir qarshimga... Yana bir bor...





**Va men hanuz borligingizga ko'nikmagan ekanman, siz meni yo'qligingiz bilan qo'rqitmoqchi bo'lyapsiz. Birida bor, birida yo'q... Nima farqi bor?**

Hayotdan ko'p narsani kutmasdan yashang. Hatto, bundan ham yomoni bo'lmaydi deganingizda ham undan ham battariga yo'liqishingiz mumkinligini unutmang. Masalan, birovni juda qattiq quchmang... Chunki qattiq quchish bilan o'tib ketmaydi. Qaytaga insonning ko'ksi og'riydi. Ustiga yana jismoniy og'riq qo'shilgani qoladi xolos. Biror joyingiz yirtilsa, birovga ko'rsatmay tikib olasiz. Agar singan bo'lsa, hech bo'lmaganda bog'lab olasiz. Ammo bari befoyda. Kasalni yashirsangiz, istimasi oshkor qiladi. Yarada insof yo'q, o'zini ma'lum qiladi va hammaning unga ko'zi tushadi. Keyin hamma boshingizga kelib yig'iladi, ustingizdan kuladi, yarangizni tirnab ko'radi. Va yana kimsaga egalik qilmang. Chunki ketadigan yo'lingiz hali juda uzoq va oxiriga yetmay yolg'iz qolasiz. Ba'zan esa ortda qoldirgan yo'lingiz sira qaytib bo'lmaydigandek olislarda qolib ketadi. Qimirlashga ham holingiz qolmaydi. Mavjud bo'lganlar eng muammoli imkoniyatlar ekanligini anglaysiz.

"Bugun sizda bo'lgan narsa, ertaga bir tushga aylanadi va aslida hozir ham sizga tegishli emas" deydi vaqt. Tuzoq... Omonat... Hammasi juda jirkanch narsalar. Chunki kecha boshqa narsa bor edi, biz o'sha narsani yo'qotib, hatto qatl qilib keldik bugungacha, vaholanki undan hech qachon voz kecholmaymiz deb o'ylardik, ammo unday







emas ekan. Bugun, kechagi kunni o'ldirdik. Qo'llarimiz qon, lablarimiz qon, yotoqlarimiz qon. Devorlarga sachragan chinqiriqlar bor. Ammo bu chinqiriqlar tovush emas. Damimizni ichimizga yutib, tishimizni tishimizga bosgancha baqirganganmiz. Oyoqlarimizni qornimizga tiragancha, og'riqni kamaytirishga uringanmiz. Qo'shni xonada o'tirgan onamiz, otamiz, ukamiz, do'stimiz, sevgilimiz eshitmasliklari uchun... Balki mushugimiz eshitib qolgandir, ammo unida zaboni yo'q birovga aytgani. Faqatgina yalingannamo boqadi ko'zlarimizga, biroq uning ham qo'lidan hech narsa kelmaydi. Kelajak uchun yaratilayotgan yangidan yangi musiqalar bor. Ammo biz eskisini sog'inamiz. Hozir hech qaysimiz gunohsiz emasmiz. Shu sababdan tez-tez nafasimiz qaytgancha, uyqudan uyg'onamiz. Go'yo "uyqu kasalligi" deydilar buni. Bizdagi g'azab tutqanog'i shundan. Ehtimol, shuning uchun ko'kka boqqancha, kipriklarimizga yomg'ir tomchisi qo'nishini sevarmiz. Chunki bu bizni biroz bo'lsa-da tinchlantiradi. So'ngra bir umid bilan hayotga boqamiz. Ammo bu qadar bo'shliqdan keyin bu ham insonni qo'rqitadi. Masalan, men hatto suv ichishga ham yaramayapman. Chunki bir stakan suvda cho'kib ketyapman. Barcha gullarning tikonlari bor! Pichoqlar meni yaralashga kelganida, temir sovutlar kiyib olaman egnimga. Na o'laman, na yashay olaman... Yana bir narsa bor. Yaxshi narsalarga keladigan navbatimni sog'indim... Kingayam suyanaman endi, kimga boraman, kim keladi menga, kim tushunadi, kim teginmaydi o'tmishimga? Meni o'tmishimni tinch qo'yishadimi o'zi? Axir kim?!



**Qo'lidan boy bergan narsalarini osonlikcha qabul qilgan insonlarni ayaylang. Chunki ular birovlariga malham bo'lishdan charchagan va so'nggida yolg'iz qolishni afzal ko'rganlardir.**

— Biroz suhbatlashamizmi? Oramizda turgan shu la'nati jimlikni odobsizlarcha buzmaymizmi birga? Sen ham shuni istaysanmi? Unda menga yordam ber... Qo'rqayapsanmi, menga har doim boqqaningda ko'zimda ko'radigan chorasizlikning senga aloqador ekanligini qabul qilishga?! Va men bilan yuzlashayotib, endi o'z-o'zingdan qocholmaganingda, tura olasanmi qarshimda? O'zingga menchalik toqat qila olasanmi?

— ...

— Mendan qo'rqma. Men aslida ramkalari ko'rkam bo'lgan bir ko'zguman va faqat sening aksingni ko'rsataman! Agar xohlasang, meni ko'rsatkichsiz kompas deb atashing mumkin. Mening har bir zarram faqat va faqat senga qorishgan. Senga tobe va senga taslim bo'lganman. Xush kelibsan! Endi ketma. Meni yaqindan tani. Bir bor bo'lsa-da, oynaga boqqaningda boy berganlaringni emas, meni ko'r! O'tkinchilarni emas, har on yoningda bo'lganni... Ertaklarni, metologiyani, qo'shiqlarni, qazilgan lahmlarni, tiqilgan nafaslarini, yo'qolgan qishloqlarni, har daqiqa peshonangdan otish uchun qo'lingda tutib turgan to'pponchani bir chetga sur va faqat menga tegishli bo'l.

To'xta. Menga qaramasang ham sendan jahlim chiqmaydi. Baqirib-chaqirmayman. Chunki tasalli berolmaydigan bu yurakni men sevdim, sen majburlamagan eding.





— ...

— Biroz suhbatlashamizmi? Menga kelgan payting, sening nimangni tortib olishgandi-ki, bu qadar qattiq quchganding meni? Menda kimlarni tasavvur qilding? Hatto men ismini ham bilmaydigan qancha odam bilan lablarimni bo'lishishga majbur qilding? Ko'zimga parda tutib, qanday uxlatding meni va qanday qilib sendan boshqa hech narsani ko'ra olmadim? Ranjidingmi mendan?

— ...

— Bu safar meni yo'q qil. Yo'q! G'azabimdan aytmayapman. Senga biroz bo'lsa-da foydasi bo'ladigan bo'lsa va atrofingdagilardan ololmagan alamingni mening ichimga bir axlat quti kabi to'kib, tinchlanadigan bo'lsang, xalqumimgan o'zim o'tkazishib yuboraman. Chunki men uchun sening jirkanch holating yo'q.

Hatto nafasingni ko'kka puflaganingda ham kimlargadir nafi bor deb o'ylayman.

— ...

— Seni sevaman.

— ...

— Qayerga qarayapsan? Ulkan va dahshatli jang mashinasiga o'xshagan ko'zlaringni qanday qilib meni dunyodagi eng oddiy so'zlarni xuddi ilohiy og'izdan chiqqanday qabul qilishga majburlaysan? Qanday qilib bu qadar dono bo'lishing mumkin?

Nima qilayapsanki, hanuz barini bu qadar jo'n amalga oshiryapsan? Qanday eplayapsan buni?

— ...

— Yonimda bo'lmagan paytlaring qalbimga mutassil

.....



azob berayotgan narsani og'riq deya nomlashdan o'zga bir choram qolmadi. Biroq nima bilan olishayotganimdan bexabarman. Iltimos, bu darddan xalos qil meni. Bu gavjumlikdan qutqar. Loaqal, ichimga nur tezligida inib, pishqirgan holda yana ichimning devorlariga urila-urila o'zimga qaytgancha, ko'ksimni bo'g'ayotgan bu bezovtalikni kamaytir. Birgina ikkimiz qolaylik. Boshqalardan ko'rgan qismatingni menga yuklashni bas qil endi. Asli shulardan ko'nglim ayniydi mening. Senda totganim toza zahar, men hozirgacha tatib ko'rgan barcha lazzatlarimdan ham ko'ra yoqimliroq. Tushunyapsanmi? Ammo birgina sen... Faqat senga tegishli bo'lganlarini qoldir menga. Boshqa jamiki narsalarga o't qo'y!

— ...

—Ketaqolaylik endi? Baribir gapirmayapsan. Yoki undan avval derazadan biroz senga termulay. Keyin tashqariga chiqaman. Har dam ortingdan kelaman, bilasan. Ehtimol yomg'ir yog'ar. Agarda, yomg'ir yog'adigan bo'lsa, balki necha martalab menga yopishtirib kelayotgan o'tmishingning izlarini badanimdan yuva olarman, nima deysan?! So'ngra menga toza zahringni lablaringdan soch. Tomirlarimning ichida yugurayotgan qon singari qabul qilaman buni. Paysalga solmay, o'p meni. Mayli, dahshatli qoraxatga mengzalsin yomg'irda meni o'pmog'ing va har kim bundan keyin loaqal bir bora yomg'ir ostida o'psin o'z sevgilisini.

— ...

— Chindan ham so'nggi bor o'pa olasanmi meni? Yana ortingdan kelsam... Yomg'irning ostida...

.....





Yalangayoq... Yelkalarindan tomchilar oqarkan...  
Birgina sen... O'zgalar tomonidan boshingga solingan  
ko'rgiliklarning badalini menga to'lattirmasdan... Chin  
yurakdan... So'nggi bor...



Agar shu yerga qadar yolg'iz o'zing kelgan bo'lsang va haqiqatan hech kim yoningda turmagan bo'lsa, "Butun borlig'im bilan sen bilanman" deydi biror kimsa uchraganida ham beixtiyor qalbing qo'rquvdan titraydi...

Agar, yarador bo'lsang, shu holatda kel menga, buni mendan yashirma. Uyaladigan narsa emas bu. Vaholanki, har qanday yaraning egasi bir kuni ayon bo'ladi. Masalan, men sakkiz yildan beri ishlatib kelayotgan atirimni o'zgartirmaganman. Sakkiz yildirki, bir joydan, bir xil atirni xarid qilaman. Ko'p bor "Bu yangi tovar va ifori ham juda ajoyib. Ham oxirgi paytlarda modada. Siz ham endi atiringizni o'zgartiring-da" deb undaganlarga e'tibor ham bermadim. Chunki ba'zi narsalarning dastlabkisi o'zgacha bo'ladi. Bir narsalarni eslatgani uchun yoki qalbingni tirnagani bilan voz kechib ketolmaysan. Chunki inson ortiga boqib, "Hamma narsa tamoman rasvo edi, butunlay yomon holatda edi, bir lahza ham baxtli bo'lmadim" deyolmaydi. Bunday deyishi mumkin emas. Balki eng oddiy hol seni o'ziga jalb qilgandir. Shu boisdan, sen ham o'tmishingdan afsuslanma. Ochiq-sochiq bo'l menga nisbatan.

Hayron bo'lma. Ochiq-sochiq degani - har doim ham kiyimlar bilan aloqador degani emas. Inson hamma narsadan ham avval qarshisidagi inson bilan durust bo'lishi lozim. Mana shudir aslida, haqiqiy ma'nodagi ochiq-sochiqlik va asosidagi uyalmaslik lozim bo'lgan narsa ham shudir. Qolaversa, mening nima ishim bor sening tanang bilan? Boshingdan o'tkazganlaring bilan-chi? Meni ham

.....



farishta deb o'ylaysanmi? Unday emas! Men to'g'rimda yanglishma! Shunchaki, yana adashmaslikka harakat qilyapman. Men hozir bir joyda qolishni xohlayman. La'nati hayotimni ilma-teshik qilma. "Vaqti kelsa, o'zim hammasini aytib beraman" deyapman. O'shanda sen ham yorilasan. Bundan avvallari kimnidir gulning nomi bilan atagan bo'lsam, sendan buni yashirmayman va nargiz gulini nima uchun sevganimni o'shanda tushunasan. Qalbimning yonidan ham o'tolmay turib, o'zini yonimdadek hisoblaganlardan bo'lma. Biroz kut. Bir kuy hadya qilaman senga. Ehtimol, iforingni ham biror gulga qiyoslarman... Balki bularning hech biri yuz bermaydi. Qisqa muddat o'tib, yakunlanar... Aslo o'zingni birovning soyasi ostida qoldim deb o'ylab, mening oldimdagi qiymatingni to'kma. Chunki men sira g'irromlik qilmadim. Kimnidir o'rniga boshqa birovni qo'ymadim va boshqa birovning o'rniga ko'z tikmadim. Endi yo senga suyanaman yoki yana o'zimga qaytish qilaman. Turgan yerimizda meni yiqitma... Yo'qsa, ketaman!



## Sizmoq

Ba'zan dahshatli bir gumbazning ichidadek his qilaman o'zimni. Barcha eshiklar yuzimga yopiladi. Sovuqqonlashadi hamma narsa. Ishon menga, o'z qo'l-larimga ham dushmandek qarayman o'sha lahzada. Biror kimsaga teginolmayman. Butun g'azabim va adovatim bilan nafratlanaman hamma narsadan. Bir narsalarni otib, sindirishni istayman. Hatto hamma narsa men bilan birga poyoniga yetishini xohlayman. Meni yashashga qo'ymagan jamiki narsalarning ham yashashga haqqi yo'q deb o'ylayman.

Biroq bu uzoqqa cho'zilmaydi. Chunki bu g'azab-ning ichimda palak yozishini istamayman va tinchlanish uchun qo'limni yuragimga qo'yib, ko'kka boqaman. Nima sababdan og'riyapti va nimani izlayapti, buni anglashga urinaman. Va aslida, biror joyga qochib ketishni va u yerda hech qanday ishora qilmasdan jim turishni, biroz xotirjam nafas olishni, olgan nafasim o'pkamdan chiqishga urinarkan unga izn berishni va nafasimni ushlab turmasdan, o'zim sezmaganda tishimni tishimga qo'ymaslikni va o'ta tabiiy hodisadek oyoqlarimni boshqa bir oyoqning yoniga uzatishni, shu lahzada oyoqlarimning yonidan qush galasining uchib o'tishini, oyoq boldirlarimga qanotlarning urilishi natijasida soch tolalarimgacha seskanib ketishni, darhol ortidan dardli va nolali, ammo hozirda ilgarigidek azoblamaydigan bir musiqa tinglashni, huzur beradigan kishingning iforiga ming dona kapalakni tenglashni va balki kapalaklarning uch yoki beshtasining o'lganiga







qayg'urishni, bir tubsizlik qa'riga ismimning bosh harfini ko'mib, ustiga ipak bir ro'molcha qoldirishni, lablarimga o'xshash lablaringning ichiga kirib yashirinishning yagona yo'li shu deya seni o'pishni, bu senmisan bilmaymanu, u yerda o'zimga tegishli izlarni topib, oyoqlarimni qornimga tirab uxlashni, uyquda yig'lashni, tinchlanishni, hozirgacha o'tkazib yuborgan barcha avtobuslarim eshigimning tagigacha kelib, meni istagan yerimga olib ketishlarini aytishini... Men shularni istayman.

Bu senmisan?

Hamma kitoblardagi, qushlarning ko'zi bog'langan holda uchishi haqida hikoya qilingan, senmisan?

Quchmoq uchun yerga qo'nishingni kutmasamchi? Chunki yuzingda yangi qabr qazish uchun kelmadim, zotan yuzingga o'zingning jasadini ko'mgan ekansan... Ammo u yerga ikkimiz ham sig'amiz. Chunki agar sevsang, qalbing kengayadi. Tashqarida qolganlar esa bizga faqat tashqaridan baho beradi. Qoningdagi moddalargacha his qildiraman seni sevishimni. Bir kunni o'tkazib, xuddi ming kunni o'tkazgandek bo'lmaymiz endi. Zerikmaymiz, kunlarni sanamaymiz, muzlatgichdan pishloqni olayotib qo'llaring titramaydi, seni bag'rimga bosaman. Sen gapirayotganingda minglab kapalaklar kelib, ovozingga qo'nadi, gapiraver deyman. Oyoqlarimning yoniga oyoqlaringni uzatsang, qush galalari o'tadi yonimizdan deyman. Faqat jim bo'lma, gapir, gapiraqol...





## Badal

Yer yuziga tushgan ilk oyat yo'qoldi.

Ilk inson o'ldi.

Ilk tomchi qolgandir, balki.

Ilk jinoyat esga olindi.

Ilk jinoyat hamon davom etmoqda.

Bugun siniq oynaga yozayotgan bir bolani ko'rdim:

“Ayollar tovushdan tezroq yig'laydi” deyilgandi.

O'layotgan insonning xayoliga ilk bor kelgan narsa ko'rgan kechirganlari emas, aslida, hali ko'rishni istaganlari bo'lishi kerak. Ya'ni men uchun bu shunday. Agar hozir o'ladigan bo'lsam, mutlaqo o'tmishim haqida o'ylamayman. Zotan yetarlicha vaqtimni yo'qotdim. Hamda o'z filmimda istagancha rol o'ynash imkoni bor ekan, nega endi so'nggi sahnalarni qadrimni sira bilmagan insonlar bilan to'ldiray? Masalan, kino tasmasini sotib olaman, ichiga 67 modeldagi Mustang yoki Dodge Charger qo'yaman. Orqa g'ildiraklari hayvon kabi ulkan. Amm mashinada hozirgi zamona modasi mp3 va CD player kabi texnologik narsalar yo'q. Klassik, ikki tugmachali magnitafon bor xolos. Dvigatelning shovqini bilan chiqindi ovozi bir-biriga qarishib ketyapti, hoynahoy ular sevishmoqda. Yonimda xayollarimdagi yor. Ko'zlarini mendan uzmaydi va gapirsin deya og'zimni poylaydi.

Menda esa agar yuragimni siqsang, seni tashlab ketaman degan kiborona munosabat... Qisqasi, u menga chidashga majbur. Men ketishim mumkindir, ammo u ketolmaydi. Chunki kinoning ichiga uni men oldim. Rolini ham men berdim.



G'alati inson bo'lsam kerak deb o'ylayman. Masalan, ushbu yozayotganlarim hammom qabul qilayotganimda xayolimga keldi. Aqlim har doim g'ayritabiiy holda ishlaydi. Shu boisdan, ko'p marotaba o'ylayotganlarimni unutib qo'ymay deb, eng yoqtirgan mashg'ulotim bo'lgan suvning ostida qimirlamay yotish mashqimdan ham uzoqlashdim va hammom ishini chala qoldirib chiqdim. Chunki fikrlar ajoyib. Xotiralar insonda doimo qolishi mumkin, ammo ayrim fikrlar bir bor keladi-yu ketadi. Koshki ba'zi xotiralar ham shunday bo'lsa edi...

Biror kishining o'tirib, biror narsa ixtiro qilgan vaziyatiga men sirayam tushunolmayman. Rejalar tuzib, qanday qilib biror narsani topish mumkin. Bu ishning yaxshi tomoni shundaki, dahlsiz joylarda sodir bo'ladi. Masalan, biror bir ish bajarmayotganda yoki shunchaki sayr qilib yurganda. Menimcha, stulga suyangancha, bugun nima ixtiro qilsam ekan, deb o'ylamoq, ba'mani ish bo'lardi. Shu boisdan, insoniyatning eng yuksak topqirligi menimcha, Nyutonning Yerning tortishish qonunini aniqlaganidir. Asl masala, vaziyatni to'g'ri anglab yetishda. Agar aytilganlar haqiqat bo'lsa, daraxtdan bir olma uzilib tushadi va Nyuton "Ha, la'nati yerning tortishish kuchi bor ekan-ku" deydi. Bu borada Arximed qonuni ham qolishmaydi. Tasavvur qil, hammomdasan, zavq-u shavq ichidasan. Balki yoningda ko'rkam ayollar ham bordir. Ayni shu payt ko'zing suvning betidagi hammom krujkasiga tushadi va "To'xtang, xaloyiq suvning ishiga qarang, jismni qanday ko'taryapti" deysan. Voqeaning ajoyib tomoni ham shunda.

Diqqat qiling, endi mavzuni boshqa joyga buraman.





Ba'zilar dard chekayotgan insonlar bilan yaqinroq munosabat o'rnatishadi va ularni har kimdan ko'proq suyib, alohida mehr va muruvvat ko'rsatishadi. Aslida, bu vijdonlarining o'ta tozaligidan emas. O'zlari ham bir paytlar xuddi shunday dard chekishganki, boshqalarning ham bu holga tushganlarini ko'rib, ich-ichlaridan qanoatlanib qarshilashadi va bu olamda yolg'iz emasliklarining eng buyuk jismoniy dalilini topadilar. Bu turdagi insonlar uy hayvonlari do'koniga borib, it va mushuk sotib olmaydi. Aksincha, hayvonlar uchun qurilgan boshpanaga borib, qayerda eng qarovsizi, eng zaifi bo'lsa o'shani tanlashadi. Ham biroz bo'lsa-da o'zlariga o'xshagani sababidan hamda u hayvonga g'ayrioddiy qiziqish bildiradilar va boshqa hayvonlar singari uni sog'lom holga keltirish orqali hamma narsasidan ayrilgan va zarracha e'tiborsiz qoldirilgan bu dunyoda biror narsani eplayotganidan faxrlanib yashaydilar. Aslida, bu voqea jamiyatda hech kimni qiziqitirmaydi va ular o'zlaricha g'alaba qildim deb o'ylashadi, bor-yo'g'i shu...

Dardlar ahmoqonadir va biroz kulgili. Negaki, juda katta bir yo'qotish qilasan, ammo uning azobiga ham ko'nikib ketasan. Albatta, dastlab insonning ichida ulkan bir o'yiqlik kabi kattalashib boradi. Ammo vaqt o'tib, o'zingni ovuta boshlaysan. Masalan, shunday deysan: "Hammasi shu qadar yaxshi ediki, bundan ortiq bu dunyoning go'zalligiga ishonib qolish mumkin emasdi; U shu qadar go'zal ediki, zotan meni sevib qolganiga ishonish qiyin edi; Shu qadar chiroyli kunlarni boshimizdan kechirdikki, natijada har go'zallikning bir nihoyasi muqarrar edi."





Ammo biz boy bergan kichik narsalar bizga zarar yetkazadi. Xuddi o'zimizni keraksiz buyum kabi qolib ketgandek his qilamiz.

Boshlang'ich sinfdaligimda o'qituvchim qo'rg'oshinli qalamimni yo'qotib qo'ygan edi. O'shanda qiyomat qo'pgandek bo'ldi men uchun.

U yoshda kichik bir bola qiyomatning nimaligini qayerdanam bilsin?! O'ta kamgap edim bolaligimda. Zotan jimlik ko'p narsani o'ldirar ekan, o'shandan bilaman. Bir o'ylab ko'ring, dunyo yaratilgandan beri qancha milliard inson tug'ilgan bo'lsa, hammasi o'sha kuni bir joyga to'planadi. Hamma o'sha yerda. Onang, otang, tog'ang, kelinoying, bolalaring, to'p tepayotib, derazasini behosdan sindirib qo'yganing baqqol Ismat amaki. Shunchaki ko'z qiring bilan emas, bilib va istagan holatda atrofingga boqar ekansan, sen hatto ismini ham bilmaydigan ayol va erkaklar bilan uningizni chiqarmasdan kutayotirsiz. Hammaning boshida, "men haq edim, mana ko'rasan adolat qaror topadi" degan o'y-xayollar. Dunyoda payti amalga oshirgan vafosizliklarini qo'yib turing, ya'ni o'sha yerda ham o'zni oqlashlar. Har kim o'z qilmishining hisobini beradi. Endi qanchalik o'zni oqlasak-da behuda...

Natijada buning nomi qiyomat ataladi. Bir maktabdagi kaltak navbati singari. Aqli joyida bo'lganlar, navbatdan tashqariga chiqmaydi. Ammo isyonkor bo'lganlarning holiga voy! Qolaversa, oldinda biz buyukligini hatto tasavvur ham qilolmaydigan ulkan bir kuch bor! Istagan narsasini o'sha joyidayoq kulga aylantirishi mumkin. Ya'ni qo'rquv bor, ehtirom bor. Bular esa jimlikni yuzaga keltiradi. Bu



narsa esa (harbiy nizomdan namuna ko'rsataman) Brigada komandiri kelgan-u tekshiruvni amalga oshirmoqda. Yuzlab askarlar yig'ilish maydoniga to'plangan. Hatto yaproq ham qimirlamaydi. Ohista kiyimingni to'g'irlaysan. Bu ham qo'rquv. Aytmadimmi, "Qo'rquv jimlikni yuzaga keltiradi" deya.

Mayliga... Voqea aslida qanday yuz berganini, o'qituvchim mening qalamimga nega teginganini eslay olmayman. Shu qadar xafa edimki, ayol toqati yetmay o'zining qalamini menga bergan edi. Juda ajoyib qalam edi.

Sinfdagi barcha do'stlarim qalamga qiziqish bilan qarashgandi, ammo u mening diqqatimni tortmas edi. Chunki mening qo'rg'oshinli qalamim yo'qolgan edi. Shu onda qo'limda turgan, menga tegishli bo'lmagan qalam juda ajib edi. Qimmatbaho edi. Biroq men uchi singan o'sha qo'rg'oshinli qalamimni sog'inayotgan edim.

Bir kuni o'qituvchim menga bergan ajoyib qalamni ham yo'qotib qo'ydim. Bundan sira xafa emasdim. Hatto ichim oydinlashgan edi. Ehtimol do'stlarimdan birontasi uni o'g'irlab olgandir. Nima bo'lganining sira ahamiyati yo'q edi. Go'yo intiqomdan keyingi huzur qoplagandi ichimni. Qolaversa, u menga tegishli emasdi. Qo'limga yarashmayotgan edi. Asl masala bular ham emas. Intiqom edi bu! Bahosi past ammo o'z-o'zimga tegishli bo'lgan narsaning evaziga qimmatbaho, ammo menga tegishli bo'lmagan bir narsani yo'qotgandim. Bu g'oyatda ajoyib edi. Hayotimning ilk va so'nggi intiqomi edi...

Keyinchalik juda ko'p badallar to'ladim. Menga



tegishli bo'lgan juda ko'p narsamni tortib oldilar, ammo evaziga hech narsa bermadilar. Hatto televizorni yoqib, chiroyli ko'rpani ustimga yopganimda, har doim pultni yonimga olishni unutdim va pultni qarg'adim. G'ururim balandligidan o'rnimdan ham qo'zg'almadim. Pultning o'zi oyog'imning tagiga kelishini istadim, ammo u kelmadi. Men ham majburan ayni kanalning hatto reklamalarigacha tomosha qilib o'tirdim. Kim yutdi? Albatta, televizor pulti.

Qisqasi, kuchim o'zimdan boshqa narsaga yetmadi. Sutni to'kdim, tuxumni sindirdim, birovni uraman deganimda o'zimning barmog'im sindi. Bundan boshqacha intiqomlar ololmadim. Ha, aytganicha, "Qasos bu - sovuq bir taomdir" deydiganlar, hoynahoy axlat nimaligini bilmasa kerak. Qasos olishuchun ham vaqt kerak insonga. Qo'lingda nimadir bo'lishi lozim... Biroq menda yo'q edi. Hech qachon bo'lmadi ham... Agar bo'lganida ham qo'limdan kelarmidi?!



## Sir

Portalagunimcha sukut saqlashni istayman. O'zimning va sening ovozingni unutgunimga qadar va hattoki butun ovozlarni unutgunga qadar sukut saqlashni istayman. Chunki jim bo'lmasam, butun umrim bo'yi hammadan yashirgan va oshkor qilishni lozim deb ko'rmagan g'azabim bilan adovatimning, yana butun umrim bo'yi hammadan avaylab, senga loyiq ko'rgan sevgimning, yomon xotira bilan eslanishingni, hechbir niqob insonning yuzini butunlay berkitishga qodir emasligini, tushuntirishni istarkan, qo'l siltagan hamma narsamning, seni boshqa insonlar oldida obro'yingni to'kishini va natijada bular seni emas, meni yaralashini bilganim uchun sukut saqlashni istayman...



## Opera

Aka-ukalarning gap-so'ziga quloq solinadigan davrlarga ulgurolmay qoldik. Majburan o'tirib nikoh dasturini tomosha qilamiz yoki bema'ni bir serialni tomosha qilib, hordiq chiqaramiz. O'zing bilasan, "Men senga aytgan edim" deyishni yoqtirmayman, ammo "Barcha be'mani ishlarni amalga oshirishda, bir xil tUSDagi sport shimlaridan kiyamiz va hech kimga parvo qilmasdan parkdagi arg'imchoqning boshida navbat talashamiz, orada lablaringdan bo'sa olaman" degan edim.

Nima bo'ldi, endi? Hali tunning yarmiga yetmay turib, bir quti sigaretni chekib tugatdim... Agar onam ko'rganida boplab qarg'ardi. Men esa, "Qo'limdan kelmayapti ona, necha yillardan beri bu yolg'izlikni yengolmayapman" degan cha, boshimni uning tizzasiga qo'yardim. Ammo onam kechirsin-u, agar bo'yimdan ham baland bo'lgan bir giyotin<sup>1</sup> boshimni uzib oladigan bo'lsa ham, ishon men sening tizzalaringni tanlardim... Aniq bilaman sen ham bu ahvolimni ko'rsang, xuddi onamdek meni qarg'arding va "Tashlasangchi, shu zahar-zaqqumni" derding. Mendan jahling chiqardi, ammo baribir tizzalaringga boshimni qo'yardim va o'pkam to yorilib ketguniga qadar bor iforingni ichimga tortib olardim. Bilasan, faqat onam va sendan g'azablanmayman, meni qarg'asangiz ham.

Ammo boshqa birov bo'lganida og'zimga kelganini gapirib, umrimning oxirigacha adovatlashib yurardim!

1 Giyotin — Fransiyada o'limga mahkum etilganlarning boshini kesib olish uchun ishlatiladigan vosita



Nima bo'ldi, endi? Ko'zim yangi ochilmagan sigaretning qutisida va qulog'imda hanuz men voz kecholmagan o'sha she'r aks-sado bermoqda... Sen ham eshityapsanmi? "Uzun bir qish oldinda, sevgilim. O'zingni ehtiyot qil" deyapti, Murathon...<sup>1</sup> "Ayriliqning ilk qishi boshlanyapti. Kirib borayapmiz qora va sovuq bir mavsumga..." O'zingni ehtiyot qil.

---

1 Murathan Mungan — Yolg'iz bir opera

**Buning iloji yo'q. Chunki sevmoq hamma narsaga kifoya qiladi, degani emas. Sevgan bilan insonning qalbi tuzalib qolmaydi. Ochilgan yaraning sababini unutish imkonsiz ekan.**

To'g'ri, bir vaqtda to'g'ri joyda bo'lishni tayinli o'rgana olmadim. Ehtimol, bu bir-biriga to'g'ri kelmas. Go'yo baqqolda eng oxiri qolib ketgan kuygan nonning taxirligi bor ichimda. Shu qadar yolg'iz his qilyapmanki o'zimni, shu qadar yakka... Bu betoqatligim, bu kurashuvchanligim, ya'ni hamma bilan o'rtaga qo'ygan masofam o'z-o'zidan sodir bo'lmadi. Juda ham xohladim, kimgadir ishonib, ko'zim yumuq holda yurishni. (E'tibor bering, ko'zim deyaqman. Ko'zlarim emas. Chunki ikkalasini ham yumish g'irt ahmoqlik bo'lar edi. Shu qadar ishonib bo'ladigan birov bormi hayotda?) Shu boisdan yashayotgan hayotimizning tashqarisida xayollar surdim doim. Butunlay farishtaman deya da'vo qilmoqchi emasman. Lekin ovozigacha ifloslangan insonlarning loaqal ovozinga tegishiga ruxsat bermaganman. Qarshilarida jim bo'lishimning sababi shu. Qo'rqardim. Yoningda ekanman, uzoqlarga ketishimning boisi shunda edi. Shu edi, aytishdan tortinib, yodimga tushganida yaramni tirnaydigan hayotimni sendan yashirishimning sababi...


Ammo bu imkonsiz ekan. Ichimda doimiy g'imirlaydigan tushunarsiz og'riq hatto sen bilanligimda ham deyarli chekinmadi. Xafaqon bo'lsam, yana o'z qobig'imga o'ralib olgan bo'lsam va barcha eshiklarni yopgan bo'lsam, bu hech qayerda nafas ololmaganim

.....



uchun edi. Horg'in edim. Kuchsiz edim. To'lagan badallarimni, qilgan xatolarimning menda qoldirgan izlarini izohlab berishning ham endi imkoni yo'q. Ishon, sira bu qadar voz kechmagandim! Sira bu qadar yolg'iz qolmagan edim. Chunki sevgilim, sen avval tanigan ammo hozirda boshqaga aylangan insonning yonida bo'lmoq, yolg'izlikdan ham battarroq. Meni kechir. Seni bag'ringa bosa olsam kerak deb o'ylagan edim...





**Bir xil kunni  
qayta-qayta yashaysiz, bir  
so'zni takror-takror eshitasiz,  
o'sha yo'ldan yana yurasiz, ammo  
shunchaki tark etolmaysiz. Chunki ayrim  
xatolar bir necha marotaba takrorlanishga  
mahkumdir.**



**Bundan buyon senga tegishli bo'lmasa va hatto senga "ket" desa ham isiga o'rganib qolgan insoningni qalbidan chiqmoq sira ham oson kechmaydi. Yo'lini yo'qotib qo'yish deb aynan shunga aytiladi...**

O'lim — vaqt og'zidan go'yo ko'rkam bir shalola kabi oqmoqda. Uning bu chorlovi albatta, sening ovozingning ichidagi gul to'la gulzorlardan ko'ra qadrli emas, biroq qo'limdagi qonni tozalashim uchun hali boshqa bir narsa kashf qilinmadi. Ustimga yopirilib, tanamni kuniga yigirma to'rt marotaba yerga itarayotgan shu osmon guvoh, bir dam olish kunining tongida yoningda uyg'ona olish uchun, onasiz qolgan barcha go'daklarning bag'rimda cho'zilib, yuzimdan sut emishlariga ham churq etmasdim. Shubha qilma! Koshki, mendan o'tmishimga aloqador yana nimadir so'rasang, shuncha bo'sh shahar turib, bu og'riq meni xuddi o'z mezbonimdek o'zimdan chalg'itishga, tomog'imni qisib, o'tkir mix bilan qonga botirgancha ismingni mendan olishga urinayotgan tovushlarga, nimani unuta olmaganimni yoki nimani eslashni istamaganimni ulardan yashirish uchun nega bu qadar keskin bir iroda bilan tirishganimni so'ra.


Ikkimizning ham yana adashib qolmasligimiz uchun urinayotib, bilaman, sening ham yuragingni siqib qo'ydim. Ammo har doim behudaga ketgan harakatning yana boshiga qaytish uchun telbalarcha kuch sarf qilmoq menga ham yoqadi deb o'ylaysanmi? Hatto uyimning devorlari ham seni mendan kam kutayotgan emas. Mana shu yuzimdan pastga qarab oqib turgan yiring, seni bag'rimga bosmagunimga





qadar to'xtamaydi. Yo meni o'p yoki boshqa biror narsa o'ylab topki, to'xtasin bu suyuqlik. Ovozingning ilohiy jarangiga go'yo borini qurbon qilishlarini da'vo qilayotgan o'sha soxta payg'ambarlar, og'zingning ichida uxlagan qushlarning tilingni bilmaganliklari singari, topganlarini ham ilk fursatdayoq barbod qilishadi, buni yodingda saqla.

Endi to'xta-da, dardingga qara! Ko'p o'tmasdan sen ketgan bu yo'l ikkimizni ham boshqalarga olib boradi...



**Kim nima qilsa ham, yana takror joni og‘riganida,  
g‘ayritabiiy ravishda, ilk bor qachon va qayerda joni  
og‘riganini eslashga urinib ko‘radi.**





**“Hayotda tavakkal qilolmaydigan narsang nima?”  
deya so‘rsalar, hamma narsani boshqatdan  
boshlamoq deyishning o‘rniga, menda har safar ayni  
so‘zlarni takrorlab, birov bilan tanishish uchun toqat  
qolmaganini aytaman.**

Hatto o‘zimning ichim ham men bilan gaplashmaydi.  
U — zamonaviy kiyingan, chiroyli ovozli, manman va  
shavqatsizning ayni o‘zi.

Qachonki, horg‘in bo‘lsam, menga qarshi tili  
chiqishni boshlaydi. Lekin o‘shanda ham gapini shirin  
boshlashiga qaramay, la‘natlash bilan tugatadi: “Men odam  
bo‘lmasmishman, men tufayli u ham yolg‘iz qolarmish, o‘lsam  
hatto janozamga ham kelmasdan va nihoyat qutuldim, deya  
uzoqdan tomosha qilarmish” va hakoza...

Menga eng oxiri sevgi izhor qilgan kishiga meni  
yanada yaxshiroq tushunsin uchun “Sevmoq va bir kishiga  
tegishli bo‘lmoq hissi men kabi insonlarni qo‘rqitadi.  
Men shunaqa odamman, meni nimamga qiziqayapsan,  
hayronman?” degan edim. Albatta, orqasiga ham qaramay  
ketdi. Uning o‘rnida men bo‘lsam, xuddi shunday qilardim.  
Ya‘ni ketganiga hayratlanmadim. Ammo nega yolg‘on  
gapiray, baribir ichimning qayeridir zirqiradi.

Aslida... Balkim...

“Nima uchun va qanday qilib” degan savollar to‘la  
hayotda yashashdan charchadim. Faqat savollar, faqat  
umidbaxsh gaplar eshitardim, lekin menga bularning hech  
biri haqiqatdek tuyulmasdi. Chunki ishonmasdim. Go‘yo  
tug‘ilganimdan buyon har kimdan va hamma narsadan

.....



g'azabda edim. Yashamoq uchun kurashishdan o'zga choram yo'q edi. Men his qilayotgan narsalarga kuch qo'shgan va meningdek o'ylaydigan bir qancha insonlarni tanidim, albatta. Bunday o'ylayotganim uchun biroz bo'lsa-da ulardan qarzdorman. Biroq hech qaysimiz butunlay bir xil emasdik. Ilgari dunyoga kelgan odam tajribali jahldorga aylanadi va g'azabi endi olovlanib boshlagan odamga yuqoridan qarardi. Keyin tug'ilganlar ham o'zidan bir qancha muddat avval tug'ilganlarning o'rnini egallash uchun yanada jangovar bo'lardi. Menimcha, oramizdagi yagona farq shu edi — hayot deb atalmish bu badbaxtlikka eng avval kimning qorishgani... Nafratga ega bo'lish va o'zingga yuqori o'rindan joy topish oson ishemas edi.

— ...

— Biroz bo'lsa ham amalga oshmadimi? Sirayam sevmadimmi? Albatta, sevdim. Ammo hayotning ustimga yopishib qolgan, la'natlangan bu qo'l izi, boshqa birovga tegmasin deya, ko'p marotaba sevgan narsalarimdan voz kechdim. Chunki sarg'aygan bir yaproqni yashilga bo'yashning hech kimga foydasi yo'q edi. Men esa har doim bo'yimdan ham balandroq ko'lmakni qidirib yurdim. Nafasimni suv bilan almashtirib, juda sovuq shaklga aylanmoqchi edim. Chunki o'zimdan ham ko'ra sovuqroq ko'rinishga ega bo'lish orqali o'zimni himoya qila olardim.

— ...

— Keyin bu fikrimdan ham voz kechdim. Hamma narsani o'z holiga tashlab qo'ydim. So'ngra ichimdagi gumonni quchdim. Har gal bo'lmasa-da ko'p marotaba birovga ishonmaslik





to'g'risida haq bo'lib chiqdim. Va aslida, bunday kamdan kam ishonch tuyg'usi ichida meni chindan ham sevgan va sevgisini ko'zdan qochirganim sababdan qo'ldan boy bergan narsalarim menda yanada chuqurroq izlar qoldirdi. Negaki kamdan kam uchratadigan yoqimli narsalarimizning qayta takrorlanishi juda qiyindir. Ammo bularni mensimaydigan darajada manman va xudbin edi mendagi g'azab tuyg'usi. Men esa yon berdim qahrimga. Chunki bu ham o'zimni himoya qilishning bir usuli edi. Shundoq ham meni birov sevmaydi, men ham hech kimni sevolmayman dedim. Men haq edim. Chunki sarg'aygan bir yaproqni yashilga bo'yashning hech kimga foydasi yo'q edi... Chunki men azaldan... Chunki men eng boshidan buyon...





**Sening ovozingni qaytadan eshitmoq og'ir kechgan mag'lubiyatning takrorlanishi bo'ladi. Ba'zi narsalarni tugagan joyida qoldirish eng maqbul ish...**

Butunlay mahv bo'lishini qo'yib turing, azaldan biror narsa nihoyaga yuz tutmasidanoq, darhol undan voz kecha olardim. Masalan, hech qachon tish pastasini eng oxirgi yuqi qolgancha siqib ishlatadigan yoki paypog'imning yaxshigina yirtilishini kutib, har kiyganimda barmoq uchlaridan boshlab titilib borayotganini sabr va qo'rquv bilan kuzatadigan odam bo'lmadim. Tish pastam tugayotganini ko'rsam, tashlab yubordim. Paypog'imning uchi yirtilishni boshlagan bo'lsa, hali barmog'imning uchi yirtib chiqishiga fursat qoldirmay darhol undan ham qutuldim. Vaziyat atrofimdagi insonlar uchun ham xuddi shu tarzda edi. Hech qachon kimgadir ikkinchi imkonni bermadim. Eshityapsizmi, hech qachon! Hattoki arzirli bahonasi bo'lganlarni ham oxirgacha eshitmadim. Ular haq edi. Va men ham haqlari bilan qo'shib jo'natdim ularni. Hecham mendan o'z xohishlari bilan ketishlariga imkon qoldirmadim. Qarabsizki, har doim g'alaba qilgan men bo'ldim, ammo asta-sekin tugab borayotganimga parvo ham qilmadim!

Aslida, bu holat qo'rquvlarimning suv betiga qalqib chiqmasligini istashimdan o'zga bir narsa emas edi. Qattiq qo'rqdim! Har on tark etishlaridan, mahv bo'lishlardan juda ham qattiq qo'rqdim. Deyarli, hech narsa yo'qotmaganimga qaramay, juda qo'rqdim.

Ichimni quyuvq bir tuman qoplagan... Zulmat nurni







o'ldirmoqdami, yo'qsa nur zulmatnimi? Yoki bularning ikkisi ham ayriligni boshdan o'tkazganlardanmi? Stolning ustidan, o'z xohish-istaklarini stolning ustiga tashlaganicha, bir-biriga qarab uzatilgan ikki qo'l kabi... O'sha kuni barmoqlarimiz so'nggi bor bir-biriga tekkanida, ulkan olov o'chib, muzlab qolganini tomosha qildim. Ilk bor mendan nimadir ketayotgan edi. Ilk bor o'zimni sening qarshingda ojiz his qildim. Go'yo bir lahzaga quloqlarni kar qilgudek baland tovushda musiqa chalayotgan gitara solisti bilan yuzma-yuz kelgandim. Qo'llarimiz bir-birimizdan uzoqlashgan sari, u battar hayajonlanganicha, uzun va iflos tirnoqlari bilan torni qattiqroq chertardi hamda shiddat bilan sochlarini bir orqaga, bir oldinga silkitardi. U ilk bor yengilayotganimni bilgandek, biz istamasak ham, bizning musiqalarimizni chalardi birin-ketin. "Oxirgi marta eshitingda, daf bo'ling" degandek, sovuq kulardi menga qarab. Birgina u emas, hatto atrofimizdagi barcha ofitsiantlar ham ishlarini tashlab, bizni tomosha qilayotgandek edi go'yo. Hatto ulkan stakanlarga quyilganu, bir qultum ham ichilmay tashlab ketilgan bizning stolimizdagi ichkiliklar ham o'zlarining aybsizliklariga amindek, shafqatsizlarcha bizni boshqarayotgan edi. Barcha qasoslar bir joyga yig'ilib, o'z egalarining intiqomini faqat mendan olishni istayotgandek edilar.

—...

—“Bundan ilgari men uchratgan bir dardga judayam o'xshayapsan. Seni uchratgunimga qadar, dard chekish deganda kim nimani tushunadigan bo'lsa, men ularning hammasini tatib ko'rganman deb o'ylardim.

.....



Ammo senda undan ham ortig'ini ko'ryapman. Qanday qilib bunchalik adashgan bo'lishim mumkinligini hayrat-la kuzatdim. Bilasanmi? Hatto ovozingni eshitiboq bir ayolning ko'zlari jiqqa yoshga to'larkan, vaqt o'tib bundan mahrum bo'ladigan bo'lsang, barcha so'zlar nihoyasini topibdi. Men hech bir sukunatning yashayotgan yerini tashlab ketganini ko'rmadim. Sira bir narsaning bu qadar yakunlanishiga ham guvoh bo'lmagan edim. Bu darajada jonimni og'ritadigan narsaga ham yo'liqmagandim. Bir yakun eding men uchun va shu bilan birga hamma narsaning boshida turarding, allaqachon nihoya topganingga qaramay. Kelajak haqida rejalar tuzar edim. Chunki biz mavjud bo'lgan hayot va birga baham ko'rganlarimiz juda ham go'zal edi. Bizda hammada bo'lgani kabi turli xil tashvish va ko'r-ko'rona bog'lanishlar yo'q edi. Juda birlashib ketganmidik sen bilan? Yoki azaldan bir-butun edigu, buni bir-birimizdan yashirib yurganmidik? Hozir vujudimdan o'pirilib tushgan narsa nima edi? Biz qachon bu qadar jipslashib ketgan edik? Xo'p, jipslashgan ekanmiz, nega endi yonma-yon tura olmayapmiz? Yoki o'lim degani shumi? Quloqlarni kar qilgudek baland tovushda musiqa chalayotgan gitara solisti bilan yuzma-yuz kelganimda jasadning joni og'riydimi yoki jasadidan chiqib ketgan ruhningmi, deganding. Eslaysanmi, qo'llarimiz bir-biridan uzoqlashgan sari, u battar hayajonlangan cha, uzun va iflos tirnoqlari bilan torni qattiqroq chertgandi va keyin shiddat bilan sochlarini orqa va oldinga silkitgandi. Ilk bor yengilayotganimni payqagandek, biz istamasak ham, bizga tegishli musiqalarni chalgan edi birin-ketin... Ammo sen





qayerdan ham eslaysan? Axir u sen bilan yuzma-yuz kelishi mumkin emasdi. Chunki sen butun sahnaga ortingni o'girib olganding va sen hanuz sahnaning eng ko'zga ko'ringan qismida eding. Tepamizdan nur sohib turgan qizil chiroq, pardalar, bezaklar... Bu jirkanch ayriliqning bir oz oldin boshlanishi uchun hamma narsa hozir edi va o'z vazifasini yuksak bir zavq hamda o'ta mohirona bajarishayotgan edi. Hatto yon tarafdagi stolda o'tirgan ikki yosh ayol ham mum tishlagancha, faqat bizga quloq solib o'tirardi. Ular o'z muammolarini biz orqali yengillatishmoqda edi. Qanaqasiga yengillatish? Axir ular bilan bizning o'rtamizda ulkan tafovut bor-ku?!

— ...

—“Nima bo'lganda ham sevgi haqiqat tomonida, isbot talab qiladi. Biroz muddatdan so'ng quruq so'zlarning o'zi kifoya qilmay qoladi. Vaqt o'tib, boqishlar xiralashadi va teginishlar sustlashadi. Men umrbod sen bilanman degan so'zlar ishonarli chiqmaydi va beixtiyor umrbod emas, aynan hozir qayerdaligini so'roqlashni boshlaysan. Meni tushunyapsanmi o'zi, gaplashib olsak bo'ladimi, bizda kurashish uchun biror nima qoldimi, bir-birimizni o'zgartirib yubormadikmi?” Mana shular ham o'sha kuni mening senga aytadiganlarim edi: quloqlarni kar qilgudek baland tovushda musiqa chalayotgan gitara solisti bilan yuzma-yuz kelgan onimda. Qo'llarimiz bir-biridan uzoqlashgan sari, u battar hayajonlangancha, uzun va iflos tirnoqlari bilan torni qattiqroq chertganida va keyin shiddat bilan sochlarini orqa va oldinga silkitganida. Ilk bor yengilayotganimni payqagandek, biz istamasak ham,

.....



bizga tegishli musiqalarni birin-ketin chalayotganida...

—...

—Ichimni qoplagan bu quyuq tuman. Bu chuqur yara. Ilk bor meni yerga urib, soʻzlarimni tugatgan, ichimdagi yarani qonatib tirnagan, meni ilk bor nimanidir tark etishini kuzatishga majbur qilgan, qoʻldan boy berish nima ekanligini miyamga quygan, umrbod davom etadigan yolgʻizlikning ildizini ichimga ekkan, bulutli, qaynoq, sovuq, siniq va tark etgan sening ovozing...

—...

Koshki seni uchratgunga qadar oʻn martalab yengilsaydim. Koshki insonlarga nisbatan bir marotaba ham gʻalaba qildim, deb oʻylamasaydim. Koshki koʻnikkan boʻlsaydim va bir kun kelib yana oʻsha kasallik qaytalashini bilganim uchun bunga oʻzimni tayyorlasaydim. Sukut saqlashning oʻrniga, loaqal “Nima boʻlganda ham sevgi haqiqat tomonida, u isbot talab qiladi” deganicha, sening yuragingga ham biroz boʻlsa-da shubha urugʻini ekib, bu katta oʻyinlarda yutqazganlarning asosiysi ikkimiz ekanligimizni, shuncha vaqtdan buyon tik turishim meni qutqarishga yetmaganini va bundan keyin senga ham yordam berolmasligini, hali ketmasingdan turib, seni qattiq sogʻinganimni, ancha vaqtdan buyon seni oʻzimda topolmayotganimni, yaʼni sen mendan ancha oldin ketganingni ayta olsaydim, koshki...

Quloqlarni kar qilgudek baland tovushda musiqa chalayotgan gitara solisti bilan bir lahzaga yuzma-yuz kelgandim. Qoʻllarimiz bir-biridan uzoqlashgan sari, u battar hayajonlanganicha, uzun va iflos tirnoqlari bilan torni

.....





qattiqroq chertgani va keyin shiddat bilan sochlarini orqa va oldinga silkitgani. Ilk bor yengilayotganimni payqagandek, biz istamasak ham, bizga tegishli musiqalarni birin-ketin chalgani...

Qayerdasan? Sen ham bularning barchasini eslay olasanmi?

Voz kechishni o'rgangan lahzangda insonlar senga hayrat-la boqqanicha, "Qanday qilib bu qadar osonlik bilan hayotingdan chiqarasan" deya so'roqqa tutishadi...

Biroq ishonib, bu siz o'ylagandek oson bo'lmagan... Ammo "Sendan voz kechmayman" deganlarning bir onda yangi bir hayotga qadam qo'yganlarini ko'rgandan so'ng, boshqa yo'l qolmadi menda...

**Men voz kechishni o'rgandim!**

**Meningdek insonlarning nidolari bo'lmaydi...**

**Meningdek insonlar xayollar surmaydi...**

**Meningdek insonlarning yarasi o'nglanmaydi...**

**Meningdek insonlar tashlab ketayotgan yerida ortiga qaramaydi...**

**Kunduzi va kechalari ayni shu tarzda o'tadi...**

Bir fotosuratni tomosha qilayotib, "O'tgan yilning shu davri edi" deysan. Hamma suratga qarab shularni o'ylaydi. Vaqtiga qaraydi... Oxiriga qaraydi... Sog'indim deyolmasdan faqat qaraydi...

"Bizni bir-birmizdan ajratib turadigan ulkan narsaning o'rtasida qoldik. Endi hech narsa avvalgidek bo'lmaydi" degan eding menga. Qanaqa avvalgi, qanaqa imkonsizlik deb so'ramagandim men ham. Chunki keragi yo'q edi. Baribir biror narsa avvalgidek bo'lmasdi. Yo avvalgidan yaxshiroq bo'lardi yoki oldingidan ko'ra yomonroq. Ovozingning ohangidan ham buni bemalol anglab olsa bo'lardi. Aslida, ovoz ohangidan avval qarashlaring va menga nisbatan uzoqliging bularni oshkor qilib bo'lgan edi. Shunchaki ikkimizdan birimizning qadam tashlashimizga to'g'ri kelayotgan edi va buni men sendan kutayotgandim. Faqat tugashidan qo'rqardim. Xullas, ancha vaqt oldin yakunlangan narsaga, ikkimizdan birimiz nom qo'yishimizga to'g'ri kelayotgan edi. Yagona istagim, "Ortiq kelishib yasholmaymiz. Men senga munosib emasman, sen mendan ko'ra yaxshilariga loyiqsan!" degan ahmoqona va be'mani jumlalarning bizning o'rtamizga ham kirmasligi edi.

Aslida, tugaganligini tan olish va bunga munosib so'zlar bilan iqror bo'lish faqatgina tugagan narsaning sharafini saqlab qolardi, xolos.

Ikki kishi o'rtasida bir munosabat yakunlanganida, eng ko'p yarani tugatgan tomon olmaydi. Chunki eng oddiy holda, agar bir olma chirib, shoxidan uzilib tushadigan bo'lsa, bu yerda olmaning joni og'rishi mumkin.





Daraxtga buning ahamiyati bor deb o'ylaysanmi? Ammo biz bir edik! Daraxt ham, uning mevasi ham biz edik! Mabodo o'rtamizdagi munosabat tugaydigan bo'lsa, tabiiy ravishda ikkimiz ham yaralanar edik. Agar masala qadr-qimmatimizni saqlab qolishda bo'lsa, o'sha qahvaxonaning yonida ortimizga ham qaramasdan turli yo'nalishlarga qarab ketgan paytimiz bizdan boshqa hamma narsaning sharafi saqlab qolingandi. Ko'rgan kechirganlarimizni nomini oqladik va "xuddi pushaymon emasdek" lom-mim demasdan, oxirgi marta bir-birimizni quchib xayrlashdik.

Naqadar badbaxt, naqadar jirkanch hamda yolg'on tomosha edi bu. Ko'zlarimga ham qarolmayotgan eding. Lekin buning sababi mutlaqo "Hammasi tezroq tugasin-da, bu oxirgi qadamni ham balo-yu ofatsiz tashlaylik" emasdi. Men ham qarshingda qat'iyat-la turganim bilan yiqilib tushmaslik uchun qanchalar katta kuch sarf qilayotganimni yashirardim. Agar, hatto yana bir so'z so'zlasayding, "Ketma!" deya seni bag'rimga bosardim. "Yaxshi qol" deb emas.

Biroq biz sukutni afzal ko'rdik. Bir narsalarning qadr-qimmatini saqlab qolamiz deb o'zimizni qattiq yaralaganimizni payqamadik. Bu ham o'tib ketadi deb o'ylagan edik. Yoki ikki kun o'tganidan keyin toqatimiz tugab, yana shu yerda uchrashadigandek, ammo qanchalar jiddiy bir vaziyatning ichida ekanligimizni anglamagan edik.

Koshki, o'sha lahzada gapirsayding... Koshki, men gapirsam edi... Koshki, seni so'nggi bor bag'rimga bosganimda, yonimizdan o'tayotganlar bizga "To'xtang! Nima qilyapsiz, aqlingizni yedingizmi?" deyishsa edi.







Koshki, seni quchgan onimda o'sha yomg'ir yog'masa edi va aslida, yig'layotganimni ko'ra olsayding... Koshki, o'sha damda xayolimda aylanayotgan kuyning jonimni qanchalar og'ritganini bilsayding... Koshki, seni qo'yib yubormasaydim. "Shusiz ham hech narsa avvalgidek bo'lolmaydi!" deya quchsaydim seni. Koshki, "G'urur va qadr-qimmatning ishqdan ustunligi yo'q" degancha oyoqlarimizni bir-birimizga qarab boshqara olsaydik... Koshki, o'shanda sentyabr oyi bo'lmasa edi va yog'masaydi o'sha yomg'ir. Koshki, har sentyabr kelganida mendan qayta-qayta ketmasayding. Koshki... o'sha kun... yomg'ir yog'masaydi...



**Ketaman desang ham, qolaman desang ham  
bo'lmaydi. Men doim qayerda tugashini bilgan  
yo'llarimda yurdim...**

Bir paytlar bir narsalarning o'zgarishiga umid qiladigan darajada aqldan ozgan edim. Ammo hozir yaxshiman, aqlim ham joyida. Chunki yo'l qo'ygan xatoliklarim va xayollarimning puchga chiqishi meni bu telbalikdan uzoqlashtirdi. Tark etishni, voz kechib ketishni, odamlarga ortiqcha ahamiyat bermaslik kerakligini va qo'l siltab ketishni o'rgandim. Nonko'rlik va adabsizlarcha boshlangan narsalarning shu yo'sinda davom etishini, nima bersang ham hech kim qoniqmasligini, agar ming bo'lakka bo'linsang ham, qo'llaridagi ulkan bolg'alar bilan tirik qolgan so'nggi bo'lagingni ham urgancha mayib qiladigan darajada vijdonsiz va shafqatsiz ekanliklarini yaxshi bilaman. Cheksiz osmon ostida, uzun ko'chalardan yurib o'tarkanman, yolg'iz va sassiz qolgan paytlarimdagi tuygan halovatimni endilikda boshqa hech narsadan topa olmayapman. Parchalandim, uvalandim, yiqildim va yengildim! Bularni tan olaman. Kurashishdan to'xtaganimning sababi kuchim qolmaganidan yoki qo'rqqanimdan emas. Zinhor meni noto'g'ri tushunmang.

Chunki siz shu holatda baxtli edingiz. Chunki sizlarning baxtingiz har doim mening baxtsizligimdan oziqlandi. Chunki men sizlarga o'xshashni istamayman. Hatto sizlar bilan bir xil qurollar va ayni usullardan foydalanishning o'zi ham meni o'zimdanda sovutishga yetarli! Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, o'zimga quchoq





ocholmayman va asl mag'lubiyatni ana o'shanda tan olaman.

Ammo sizlarning hech qaysingizdan xafa emasman. Faqat yomg'irning ostida birovga turtilmay va ortimdan o'tmishim ta'qib qilmay yurishni juda sog'indim. Oyoq bosgan joylarimga qaytib qadam qo'ymaslik va qadam bosgan joylarimdagi izlarni darhol o'chirish uchun kuch-quvvat sarf qilish ham meni nihoyatda charchatdi.

Men ichida mavjud bo'lgan vaziyatning nomini bilmayman! Bir narsalar buzilgan, yirtilgan. Uchini uchiga olib kelaman deb uringanim sari o'zimni vayron qiladi va ovozimni yo'qotayapman. Terimning osti achimoqda. Etimning ichiga nimadir kirib qolgan — balki bir qichqiriqdir... Tashqariga chiqishni istayotgan bu narsaning natijasi meni yengishi qochib bo'lmas bir nihoya kabi ko'rinardi.

Endi nima qilaman? Hech narsa! Chunki sizdan menga, mendan esa sizga endi naf yo'q! Tegolmayapman, yig'olmayapman, siqilolmayapman va o'zimga diqqat bilan boqolmayapman! Bundan buyon yuzimda ko'radiganlarim ham menga zarar berishi mumkin...

Meni o'zim bilan yolg'iz qoldiring. Shunchaki, yurayotgan yo'limda yelkamni o'padigan bir yomg'ir tomchisini qidirayapman, bor-yo'g'i shu...

Meni yolg'iz qoldiring...





## Beparvolik...

Daydi itlar bilan salomlashgan insonlar diqqatimni torta boshladi. Qo'lidagi nonni qushlarga otganlar, gullarga qarab kulganlar, ko'zini samoga tikib, ilk marta quyoshni ko'rayotgandek maqsadsiz boqqanlar — hamisha yolg'izlikning biror burchagida uchrashar edi. Atrof-muhitdan umidini uzgan kishi vaqt o'tib sukunatga oshiq bo'ladi. O'z o'zi bilan baxtni tuyadi. Hozirgacha insonlarni tanimoq uchun shu qadar ko'p kuch sarf qilganki, aslida o'ziga qanchalar beparvolik qilganini payqab qoladi. Endi ba'zi narsalarni yangidan boshlash uchun kechqolgan bo'lishi mumkinligi haqida o'ylaydi. “Oyoqqa turmoq” deydigan narsamiz, aslida, insonning o'z ichida tik turishga urinishidan o'zga narsa emas. Chunki inson eng avvalo o'z ichidan yaralanadi. Va tilaymanki, o'z ichidan yaralangan insonlar bordir. Bu yana qayta tik turish uchun bir mashg'ulotdir. Yarasi sababidan ko'z yosh to'kib, o'ziga motam tutishni boshlaydi inson. Tashqaridan qaraganlar bir yo'qotishning ortidan kelgan qayg'urish deb o'ylaydi buni... Bu fikr noto'g'ri emasmi? Boshiga tushmaganlar buning nimaligini bilishmaydi. Ammo bir kun ayni ahvolga tushganlarida, bir-birlari bilan yana o'sha har doimgi yolg'izlikning biror burchagida topishishadi.



**Naqadar buyuk kech qolishlik bu? Naqadar  
xudbinlik? Qachonki, o'sha ko'rgulik o'zining ham  
boshiga tushguniga qadar, insonlarning o'zlaridan  
boshqa birovni ko'rmasligi...**





**Sevgilim, bu hayotning menga o'rgatgan yagona narsasi shuki, inson hech narsa uchun kech qolmaydi, bor-yo'g'i hadiksiraydi.**

Koshki, ba'zi narsalar haqida sen bilan avvalroq gaplashib olsaydik. Har daqiqada "seni sevaman" deyishni o'rniga, koshki senga maktub yoza olsaydim. Qaniydi, seni sevishimni yanada boshqa so'zlar bilan izhor qilolsaydim. Yuzimning qirg'oqlariga to'satdan urilgan o'sha ayolni qanday sevganimni yaxshiroq tushuntirib berolsaydim. Senga qarshi hislarim aqlingdan va qalbingdan chiqmasligini yaxshi bilasan. Ammo biz osmonning tartibsizligi haqida gaplashayotganda yoki senga "Kuz keldi, buning ortida qish turibdi" degan vaqtim, aslida yana "seni sevaman" deyishni istaganimni anglata olsaydim, koshki...



**Yana oyoqqa turdik, ammo hech narsa avvalgidek bo'lmadi. Bu qalbimizni tez-tez yo'qlab turishimizdan ayon emasmi?**

Bir kuni tongda uyg'onib, qimirlamasdan shiftga tikildim. To'g'rirog'i, qimirlay olmayotgandim. Biroz oldin ko'rgan tushimning ta'siridan bo'lsa kerak, vujudimni his qilmayotgandim. Butun badanim qotib qolgandi. Qo'rqardimki, joyimdan turishim uchun kimdir meni keskir asbob bilan bo'laklarga ayirishi kerak edi. Ro'yo haqiqatlarning, haqiqatlar esa ro'yoning o'rnini egallagan edi. Yashamoq ham, sevgim ham, hamma hammasi bir tushga o'xshardi. Biroz muddatdan so'ng o'zimga keldim va bor kuchim bilan choyshabni barmoqlarim bilan g'ijimlagancha, o'rnimda o'tirdim. Ammo ustimdagi ko'rpani bir chetga sura olmayotgandim. Ko'zim sal nariroqda turgan ro'paramdagi oynaning yonidagi atir shishasiga tushdi. Undan menga qolgan yagona narsa edi. Aslida, undan menga qolmagan, shunchaki u ketgan kunining ertasi kuni hidini sog'inganim uchun o'zim sotib olgandim. Vaqti vaqti bilan yostig'imga sepib, uni yonimdadek his qilishga urinardim.

Roppa-rosa to'rt yil o'tibdi. Undan keyin hayotimga boshqalarning kirishiga mone bo'lmaslikka harakat qilgandim-u, ammo buni ham eplab bajarolmagandim.

Hamma narsa shu qadar soxta va jirkanch tuyulardiki... Ammo hammadan avval o'zim soxta edim. Hayotimga yangi kirganni, uni sevgandek sevishga urinar, yuzining o'rniga uning yuzini qo'yar va qo'llaridan uning qo'llarini qidirardim... Lekin bu vaziyat qisqa muddatdan





so'ng payqab qolinar va yana o'sha og'riqli yolg'izligimga qaytib borardim. Mendan boshqa hamma juda jasur edi. O'zlaricha hamma narsani bilishardi va yutqazish ehtimoli katta ekanligini tan olishni istamasdi. Meni tuzatishga sarflagan harakatlari ko'z oldimda mag'lubiyatga uchrardi.

Ichimdagi tushkunlik, horg'inlik, teginishga ruxsat bermagan tomonimning mag'rur turishi doim menga yangi yolg'izliklarni yetaklab kelardi. Vaholanki, o'zimcha ham men haq edim. Bu yolg'on va yashiqlar orasida o'ylash uchun ko'p vaqtimni yo'qotar va oxiri yo'q savollar miyamni tinimsiz kavlashiga to'sqinlik qilolmasdim.

Sodda, ammo shunga qaramay murakkab va hal qilinmaydigan misollar bilan, o'zimni hammadan farqli ko'rar, keyin hamma e'tiborsiz qoldirgan va osonlikcha yopib qo'yilgan masalalar men uchun naqadar katta ahamiyat kasb etishini anglagandim.

Ha, albatta, insonlar o'zlari duch kelmagan narsalar haqida hukm chiqarish bo'yicha o'ta ustasi hisoblanadi. Gap shundaki, o'sha hammaning hayoti ustidan osongina hukm chiqarayotgan insonlar o'zlarining ustidan qanchalik to'g'ri hukm chiqara olishadi?!

Gomofobiya, fohishabozlik, jinsini o'zgartirish yoki boshqa qarama-qarshi ko'rinadigan narsalarda, ya'ni inson o'sha vaziyatning ichida bo'lmagan holatda qanday qilib to'g'ri xulosa qilishi mumkin? Yoki og'riq haqida men qanchalik xulosa chiqara olyapman? Beparvolik yoki adovat bilan qaragan vaziyatlari o'zlarining boshiga tushsa edi, qanchalar oqilona harakat qila olishardi va bunday vaziyatlarning qanchasini ko'tara olishga qurbilari yetardi?







O'g'ling kelib, jinsini o'zgartirmoqchi ekanligini aytsa yoki qizing kelib, fohisha ekanligini tan olsa, yoki bo'lmasa, "Aysh-ishrat uchun begonalar bilan bo'lyapman" desa, kim buning hammasini tushunishga aqli yetardi? Balki haqdirsiz, bularning barchasini haddan tashqari qattiq misol deb hisoblashingiz mumkin. Ammo bu natijani o'zgartirmaydi. Oxir-oqibat bu sodir bo'lyapti va ajralish haqiqatidan farqi nimada? Hech qanday... Mana shunday vaziyatlardan iboratdir hayot. Boshdan kechirmagan narsalar haqida katta gapirib, soxta tushunishning yolg'on namoyishlarini uyushtirasiz.

Bular haqida takroran, o'sha atirning shishasiga diqqatim tortilganida fikr yuritdim. Endilikda bir narsalarni o'zgartirishim lozim edi. O'zim uchun yo'q qilinadigan bir maqsadni tanlashim kerak edi. Va bu maqsad hech qanday tarzda aybsiz bo'lmasligi kerak. Senmi? Menmi? Qaysi birimiz? Yoki hayotimizga aralashgan begonalarmi? Yoki bo'lmasa hammamizmi?

Ko'p yillardan buyon menga tanish bo'lgan relslarning ustiga atir shishasini qo'ydim va shiddat bilan kelayotgan poyezd uni chilparchin qilib ketishiga ijozat berdim. Shuni afzal ko'rdim... Shuncha yildan buyon xayolotda yashab kelgandim. Hozir ham xayolotda o'sha avtobusga mingandim. Katta shovqin bilan poyezd relsdan chiqib ketdi. Dahshatli bir halokatga guvoh bo'ldim. Atrofimda yaralangan va o'lganlar bor edi. Sevgan insonimning jon talvasasiga tushganini hayrat bilan kuzatdim. Menga necha yillardan buyon tanish bo'lgan rels endi yo'q edi. Oyoqlarim uchqunlar bilan birgalikda qadam bosardi va





har odimimda ustimdan bir parcha uchqun yog'ildi.

Ilk yiqilgan ham u edi. Ilk meni tark etgan ham, yana orqasiga ham qaramay qochgan ham u edi... Yana bir bor va oxirgi marta u meni tark etdi. Men unga yana bir marta shunday qilishiga yo'l qo'ya olmasdim.

O'mimdan turdim, oynaning oldida turgan atir shishasini qo'limga olib, bir marta havoga sepdim. Keyin esa axlatga tashladim. Quyosh olamni yoritishni endi boshlagandi va yuzimga tushayotgan iliq nur menga yangi bir hayotning mujdasi edi. Shuncha soxtalikning ichida, eng avvalo, o'zimning soxta ekanligim, bu yolg'onchi intizorlik ham uni hamda meni bora-bora mahv etayotganini sezdim.

Va nihoyat hammasi tugadi... Zero buni cho'zib yurishning birovga foydasi yo'q edi. Shuni ayta olamanki, hayotimning men payqamay o'tkazgan o'n sakkiz yili, oxirgi to'rt yilidan uzun emas edi. Bu tong bilan avvalgi tongni farqi yo'q edi. Ushbu tong, avvalgi tonglardan ko'ra issiq yoki sovuq emasdi. Bor yo'g'i, ushbu tong men quchoqlab yotgan yostig'im, issiq taftli va xush iforli vujudning yo'qligini eslatgandi menga...



**Menga ochilgan hech bir eshikning ortida ko'zim kular bir yuzga tushmadi. Ko'zlaringga yangi bir dunyo topgandek termulishimning boisi shunda...**

Ba'zan eng katta masala — chiqib ketadigan bir eshigingning yo'qligi. Bir uydan chiqib, ko'chaga ravona bo'lmoq, yo'l topib, bir eshikdan chiqib ketishni anglatmaydi. Chunki butun dunyo eshiklarning ustiga qulagan. Qo'lingda mingta kaliting bo'lsa-da, hech narsa o'zgarmaydi, hech qaysi kalit hech bir eshikka tushmaydi, ustiga ustak kuching ketgani qoladi xolos. Shu dam xotirjam bir nafas olish uchun bor-budingni berging keladi. La'nati bir qo'l bo'g'zingdan bo'g'ib turgandek tuyuladi. Xayolingdan bir qancha ismlar o'tadi va birortasidan madad so'ray deysan-u, ammo yana jim bo'lasan. Agar onang bo'lsa, unikiga borasan, yuzingda siniq bir tabassum bilan. Eshik ochiladi, ichkariga kirasan, lablarim titramasin deb ularni qattiq tishlagancha, go'yo hech narsa bo'lmagandek, "Nima ovqat bor oyi? Qornim judayam och!" deysan xolos. Ammo onalar sezadi. Gap ovqatda emas, buni biladiyu, ammo uni qo'lidagi kalitlar ham hech qaysi eshikni ochishga yaramasligini ham yaxshi biladi. Birgalikda sukut saqlaysiz. U dunyoga keltirgan farzandi dardiga ojizlik bilan boqadi, seni tuqqan ayolning dardingdan qanchalik azoblanayotganiga qaraysan. Kutilmaganda u yerdan ham chiqib ketishni xohlaysan...



**Ba'zan inson hamma narsadan voz kechadi. Lekin biron joyga kelganida to'xtab, so'nggi bor ortiga qaraydi va o'zimni qiynagan ekanman deya yana yashashda davom etadi.**

Ketishingga ruxsat berdim, chunki sen ham hamma singari ichimga ko'z tikishni boshlading. Hatto men birga uxlamaydigan, ismini ham unutgan, och holda qoldirgan, aziyat yetkazgan, intiqom olgan tomonimga ko'z tikding. Qolaversa, "Meni sening o'tmishing qiziqtirmaydi, yonimda bo'lsang bas" deganing xuddi kechagidek yodimda. Bu aytganlaringni darrov unutib, o'zingni endilikda yo'q bo'lgan narsa bilan solishtirishingni ham negadir unutmayapman. Hatto jasadim ham jonlanishdan umidini uzgan bir paytda, sen eng katta raqibingni nafasing bilan tiriltirding. To'satdan, hamma narsaning oldini hadiklaring to'sdi va meni ham darrov o'tmishga sudrab ketding. "Boshqattan boshlayman" degan nimam bo'lsa, hammasini o'tmishning soyasiga aylantirding. Shunday bo'lsa-da, sendan jahlim chiqqani yo'q. Hatto qachon o'zimni sening o'ringga qo'yib ko'rsam, o'zim ham sen tomonda bo'laman. Hammasi chalkashib ketgan edi. Men shu qadar ulkan muhabbatni boshimdan kechirgandimki va senga bularni chin dildan aytgandimki, men hamma narsaga guvoh bo'ldim va o'zimni dardimning manbayidan topdim.

Bularga qaramay, yaqindan ko'rmagan narsalarimning borligini sen bilan birga kashf qilgan va yuragimni qoplab turgan tuman pardasi ham asta-sekin tarqalgan edi. Bir yaramas bola tomonidan yarmidan kesilgan qurt singari







o'ziga yangi bo'laklar hosil qilishi kabi mening ham qo'lim, oyoqlarim, yuzim, hamma a'zolarim yangidan hosil bo'layotgan edi. Bu tortiqni menga sen bergan eding, ilk kelgan kezlaring. Men tuzalib borayotgandim, lekin bu gal sen mening o'rnimni egallayotgan eding. Chunki ba'zi hamkorliklar o'ta xavflidir. Har tashlangan qadam yashirin qurollar bilan qilinadigan duellarga o'xshaydi. Borligini faqat bag'ringga bosganda payqab qoladigan belda turadigan bir to'pponcha kabi. Uyqusi har doim sergak bo'lgan bir qochoqning har narsadan seskanishi kabi. G'ayrioddiy bir sezgi bilan eng past shitirlashdan ham uyg'onar va qo'rqib bir-birimizni bag'rimizga bosardik, xuddi oxirgi martadek. Oxirgi marta gaplashayotgandek oxirgi marta kulishayotgandek, oxirgi marta o'pishayotgandek his qilardik o'zimizni.

Balki yodingdadir, avval o'zing o'qib, keyin menga bergan romaningda o'qigan edim dunyoning adolatsiz bir yerligini. Erkak ayolni qattiq sevardi. Ayol esa erkakni... Ayolning ta'nalari bor edi, o'jar edi qahramonlar, mag'rur edi va har kimni jismonan qabul qilishsa-da, ruhlari yolg'onga keragidan ortiq qat'iy turardi. Oxir-oqibat bema'ni narsalarni deb yo'llari ikkiga ayrilgan va ikkisi ham ayri hayotlarga ko'chirilgan edi. Ular baxtsiz edi. Senga aytmagandim, ammo o'sha paytda erkakni rosa qarq'agandim. "Chindan xohlaganida, ayolni qaytarib olardi" degan edim. Axir bu uning qo'lidan kelardi, baribir bir yo'lini topishi kerak edi...

Shuning uchun menga bergan ikkinchi kitobingni yarimida chala qoldirib, oxirigacha o'qishni istamagandim.





Ehtimol, oxiri bizning yakunimizga juda o'xshardi va yakun bizga biroz kechikib kelishi uchun ehtiyotkorlik qilgandirman...

Guvohi bo'lganing kabi, "Men bo'lsam, unday qilmasdim. Uddasidan chiqa olardim" degan narsalarimizni hechqaysisini eplay olmadik. Aslida, unday emas ekan. Biz degan narsa yo'q ekan! Kuchli bo'lmoq, bardosh qilmoq va o'z bilganingcha yashamoq degan narsalar ham safsata ekan. Hayotning ham o'z qonunlari bor ekan. Tortib ololmadim seni. Sening sababing qanday bilmadim-u, ammo men seni mahkamroq bag'rimga bosolmadim! Meni itargan qo'llaringga emas, qalbingga yetmadi kuchim...

...Qabul qilish majburiyatini, haqiqiy yo'qotishning qila oladiganidan ham ko'prog'ini qilishga urinishi va oxir-oqibatda eplay olmasdan yerga urilishini, inson kutilmaganda o'zini qadrini tushirib qo'yishini, hislarini va hammaga, hamma narsaga bo'lgan ishonchini yo'qotib qo'yishi mumkinligini, yiqilishi mumkinligini va bu ham yetmagandek yer bilan bitta bo'lib ketishi mumkinligini... Men o'sha chala qoldirgan romanimda o'qigandim...

Endi ikkimizdan birimiz ko'proq narsa yo'qotdik. Albatta, buning bir o'lchovi bor va shu qatorda endi buning ahamiyati yo'q hamda buning o'lchovi hozir qo'lizmida bo'lmagan qaytib birga baham ko'ra olmaydigan narsalarimiz bilan ham bog'liq emas. Biz sevgimizni boy bermadik, aksincha, hali oldimizda turgan kimsa va narsalarga bo'lgan sevgimizni yo'qotdik...

Masalan, men shu qisqa fursat ichida o'zimni bo'g'zimga qadar sen bilan to'ldirdim. G'azablandim,





Kuchingiz tugaydi, tirgagingiz sinadi. Endilikda boshqa birovga tegishli ekanligini bilgan holda baribir yomon xotira bilan eslamaysiz, duo bilan orqaga qarab, "Sen yaxshi bo'l. Bir yerlarda tabassum qil. O'ylaymanki, tongda uyg'onganingda, nafasingni ilk tuygan har kimsa qanday mo'jizaga ega ekanligini biladi. Meni unutma va afsuslanma. Men seniki bo'lolmayman. Sen ham meniki bo'lolmaysan. Ko'rgan kechirganlarimiz ortda qoladi va biz eslaganda kulib qo'yamiz. Balki qayerimizdir og'ir ammo o'tinaman... O'tinaman qaytib qarshimdan chiqma. Chunki bularga iqror bo'lish sira oson kechmadi" deysiz.

Qanchalar g'alati bo'lmasin, azalda "O'tinaman, boshqasini sevma" derdim.






Imkoni bo'lsa, o'chirgich bilan umrimni o'chirib,  
sira yashamagandek bo'lishni istardim. Bu  
pushaymonlik emas, shunchaki chidab bo'lmas  
tuyg'uning nomi. Bir yerlardasan va hech qachon  
men-la birga bo'lmayсан.

Ikkimiz ham boshqa-boshqa hayotlarning bo'laklariga aylangan edik. Do'konning yaltirab turgan oynasida ko'rgan aksimga ishongim kelmadi. Katta o'xshashlik bo'lsa kerak. Shu qisqa vaqt ichida, ishqilib, qiyofadoshi bo'lsin-da, deya duo qildim. Bir paytda o'grilib bir-birimizga qaradik. "Berin Bahor!" dedim hayajon bilan. U bilan birgaligimda faqat g'azablangan paytlarimda birdan ikki ismi bilan saslanardim. Bahor dedim takroran, ancha tinchlanganicha. Sira hayron bo'lmagandek qo'lini men tomon cho'zdi. Buni kutib yurganga o'xshardi. Biroq, savdo markazlarining uzun yo'laklari yillar davomida bir-birini ko'rmagan ikki kishining uchrashishi uchun mo'ljallanmagan bo'lishi lozim edi. Hozirgidan farqli o'laroq, o'sha keng va uzun yo'laklar odamlarning adashishini osonlashtirishi kerak edi. Biz ovqatlanadigan qavatning sal pastrog'ida edik. Eng oxiri aytiladigan gapni har doim eng boshidayoq gullab qo'yadigan odatimga xilof qilmagan tarzda, shoshilganicha "Yuqoriga chiqib, nimadir ichamizmi?" dedim. Bunga ham hayron qolmadi. Kulganicha qabul qildi.

Yonma-yon yurarkan bir-birimizga urilib ketmaslik uchun g'ayrioddiy harakatlanganicha yuqoriga chiqdik. Birdan ko'zimning oldiga eski odatlarim keldi. Tez-tez qo'llariga qaradim. Tutmoq istadim qo'lini. Havo







sovuq bo'lishiga qaramay, ochiq maydonda o'tirdik. U yer tinchroq edi. Sochlarini kestiribdi. Mening ham yon tomonlarimda ozgina oqlik bor va peshonamdagi ajinlar aniq ko'rinardi. "Aftidan vaqt to'xtab turmaydi" dedi kulgancha. Indamadim. Hali ham undan ko'zimni uzmay turardim. Xuddi yangi xazina xaritasini topib olgandek, qiziqish bilan uni kuzatishda davom etdim. Biroz to'lishgandi. Oldin bo'ynidan yelkasigacha cho'zilgan va men "bu yerga gullar ekishni xohlayman" deb aytgan o'sha kichkina chuqurcha g'oyib bo'lgandi. Jimgina uni kuzatmoq hanuz yoqimli bir tuyg'u edi, yodimga tushdi. Eng ko'p uxlaganida uni tomosha qilardim. Faqat shundagina u jim, harakatsiz turardi. Boshqa vaqtlari doim nimagadir shoshilib yurardi. Go'yo biror joyga kech qoladigandek... Mendan javob ololmaganidan keyin bu safar balandroq tovush bilan "Vaqtни aytayapman. Aftidan to'xtab turmasa kerak" deya takrorladi. Bu ovoz ohangini bilardim. Jahli chiqqanida o'zini kulayotgandek ko'rsatib, biroz titroq, biroz keskin ohangda gapirishda davom etardi. Bu ikkisini bir onda qanday amalga oshirishiga sira aqlim bovar qilmasdi. Ham g'azablanib, ham jilmayish... Birdan boshimga bolg'a bilan urgandek seskanib ketdim. Gapirishga urindim, ammo eplolmadim. O'zim xohlamagan joyga mehmonga borganman-u, oyoqlarim bilan gilamga yer chizayotgandek xijolat tortdim qarshisida. Bir qultum suvdan ichdim. U aslida haq edi. Chunki uning tabassumi hanuz o'sh-o'sha edi. Go'yo vaqt unga kelganda to'xtab qolganga o'xshardi. Hech bo'lmaganda oqsagandi.

Lekin buni unga aytolmadim. Chunki vaqt

.....



o'zgartirilmagan narsa faqat tabassumi bo'lishi mumkin edi. Men buni sindirishni xohlamadim. Biror narsani tilga olganingda hamma unga nigohini qaratib, diqqat bilan boqadi-ku, men ham uni yashirayotgandek tutdim o'zimni. Yuzimdagi g'alati qisqarish kulishdan vujudga keladigan bo'lsa, men ham xuddi u kabi kuldim. Yoki kulishga harakat qildim, ammo tashqaridan qanday ko'rinayotganimni bilmasdim. Ikkimiz ham sokin suv singari edik. Doim bir tomonga qarab oqishdan charchagan va oqim darajasi tushgan, shiddatsiz, oqim ham deb hisoblanmaydigan g'alati suvlarga o'xshardik. Oxirgi uchrashuvimizdagi g'azabimizdan va baqir-chaqirig'imizdan asar ham qolmagan edi. Stolning ustida turgan kitobni devorga qarab uloqtirishi, ko'z yoshlari, boshini ikki qo'lining orasiga qo'yganча, sukutda qotgani ko'z oldimga keldi. Kimdir o'sha mashhur surga puflagan-u xotiralar tirilishni boshlagandi. Qanchalar g'alati bo'lmasin, xotiralarning ham qiyomati bor edi. Hisob-kitob kuni... O'ylashimcha, yo'qotadigan boshqa narsasi bo'lmagan taqdirda odamlar o'zini xotirjam tutishadi. Zotan bo'lgan narsa, allaqachon sodir bo'lgan. Ushbu soatdan keyin qiladiganimiz va aytadiganimiz hech narsa natijani o'zgartirmaydi. Stulga suyanmay, har daqiqa o'rnimizdan turadigandek o'tirganimizni nazarda tutmasa, nihoyatda xotirjam edik. Nimani gapirishni, qayerdan boshlashni bilmayotgan ikki insonning tashvishi bor edi yelkamizda. Bu qadar xotirjam o'tirishimiz aslida ham xotirjam ekanligimizni anglatadimi? Albatta, yo'q! Garchi uning shafqatsizligi va mening tajovuzkorligim ko'zga ko'rinmayotgan bo'lsa-da, go'yo bu tug'yonlar ikkimizning





bir og'iz so'zimizga qarab turgandek edi. Men hanuz javob bermagandim. U uch yil ichida nimalar qilganligi haqida gapira boshladi. O'tmish yo'q edi. Faqat bugun bor edi. Bir oy avvali, bir yil avvali, ikki yil avvali, boring ana uch yil avvali bor edi.

Uning hayoti bizdan keyin boshlangan edi. O'tgan yili turmush quribdi. U turmushga chiqqan erkak bankda menejer bo'lib ishlarkan va aytishiga qaraganda og'ir-bosiq inson ekan. Uyga kelganidan keyin ko'zoynagini bir chetga yechib qo'yib, to qorong'u tushgunga qadar mijozlaridan qancha pul ishlaganini aytib berarkan. Birga ovqatlanisharkan televizordan axborot ko'rsatuvlarini tomosha qilganicha, yil oxiriga borib dollar kursi qanchaga chiqishi to'g'risida taxminlar qilar ekan. Uni hayrat bilan tingladim. U aytgan odamning men bilan yer va osmonchalik farqi bor edi. Mendan qanchalar charchaganini va aynan shuning uchun menga tamoman zid bo'lgan odam bilan turmush qurganini angladim. Men tanigan serjahl va asablari o'ta nozik bo'lgan bu ayol bunday turmushga bardosh qilishi mumkin emasdi, buni bilardim. Ammo baribir savol bermadim.

O'zimni sira qiziqmayotgandek ko'rsatib, go'yo u aytgan so'zlaridan hayron bo'lmagandek taassurot qoldirmoqchi edim. Nimaga bunday qilganimni bilmayman. Balki uni o'sha erkakdan telbalarcha rashk qilib va ayni damda nafratim qo'zg'agandi. U hikoyasini tugatib, "Xo'sh, o'zing nimalar qilding?" deb so'radi. Bir onda xayolimga sevgilim keldi. O'sha ongacha go'yo yolg'iz yashashotgandek edim. Qayerdan boshlashni bilmay dovdirdim. Chunki hayotimdagi ayol bilan shu on yonimda o'tirgan ayolning





sira aloqasi yo'q edi. U nima desam ham e'tiroz qilmas va menga munosib bo'lish uchun qo'lidan kelganini qilardi. Aytmoqchimanki, mening horg'in va tashlandiq jussamga u taqlid qilardi. Men uni bemalol shakllantira olardim. Go'yo xamir kabi... Bolasi bilan yigirma to'rt soat mashg'ul bo'ladigan bir onaning barcha odatlarini bolasiga yuqtirishi kabi... Xohlaganimda gapirib, xohlaganimda jim bo'lardim. U ham go'yo bir soya kabi oyoq uchida qadam bosgancha yonimda yurardi. Men o'zimga o'xshagan boshqa birovni hosil qilib, uning o'zini yo'q qildim deb o'ylardim. Sevgilimmi... Qanaqasiga sevgilim?

Nimalar qilganim to'g'risida gapirishni istamadim. Chunki hech narsa qilmagandim. "Qayta-qayta senga qo'ng'iroq qilishni istadim, ammo bu fikrimdan voz kechdim. Bunga jur'atim yetmadi" deyishim kerakmidi? Yoki "Menga nega qo'ng'iroq qilmading? Nega boshqatdan boshlamadik? Hali o'rtamizda tugamagan ko'p narsa bor edi" deyishim kerakmidi? Qo'lga ilashadigan biror narsa yo'q edi menda. Ichimda "Demak, hali ham yo'qotadigan narsalarimiz qolgan ekan... Masalan, hozir bir stol atrofida bo'lish imkoniyatini ham yo'qotamiz. Ehtimol butun umrga..." O'tirgan stulidan turib ketsa, nima ham qila olardim? Bu safar to'xta deya olarmidim? Ammo nima uchun? Borishi kerak bo'lgan boshqa joyi bor-ku endi! Eshitishi kerak bo'lgan yangi xabarlar, dollar kursining yil so'ngidagi qiymati, eshikdan kirishi bilan devorda osilib turgan, eri bilan to'ylarida birga tushgan suratlarining ustiga qo'ngan chang zarralarining tozalanishi lozimligi, kechki sayrlar, yelka chuqurlarini to'ldirgan kilolar,





o'tirganida sira qaltiramagan tizzalar, har doim shoshib yurishidan asar ham qolmaganligi, ichidan menga nisbatan qaynayotgan, ammo berkitishni uddasidan chiqayotgan g'azabi... Bularning ichida men bormidim? Agar bor bo'lsam, buni qanday yashirib yurdi? Yoki, aytaylik, unda men chindan ham mavjud edim. Xo'p, unda u men uchun qayerda edi? Hozir chindan ham turib ketarmikan? Yoki ketma desammi... Ikki eski sevishgan, ikki eski do'st, ikki eski dushman, ikki eski yo'qotish...

Va nihoyat stulga suyanib, "Hech narsa qilmadim" dedim. G'azab bilan aytdim buni.

Boy beriladigan oxirgi narsamni yo'qotish arafasida edim. U ham orqasiga suyandi va "Aynan sendan kutish mumkin bo'lgan bir harakat! Zotan, sen hech narsa qilmading" dedi. Ko'zlari bilan ofitsiantni qidirdi. Stulga osilgan sumkasidan hamyonini chiqardi. "Ruxsat bersang, bu hisobni ham men to'lashni istardim" dedi. Buning tugashini xohlardim. Butunlay yo'qotishni chin dildan istayotgandim. Chunki uni boshqasi bilan tasavvur qilish juda qo'rqinchli tuyg'u edi. O'sha erkakdan battar g'azablandim. Bu safar nafratlanayotganimni tan oldim. Jim bo'ldim. Ammo u erkakka nisbatan his qilgan nafratim yuzimda namoyon bo'lgandi. Ochig'i, ortiq buni yashirib o'tirishni istamadim. Va u oyoqlari qaltiraganicha, qo'llarida ochiq holatda tutib turgan hamyoniga qaradim. Nima uchun hamyonini ochib turardi? Ataylab qildimi? Hamyonda eri bilan yonma-yon tushgan surati bor edi. Hisob esa allaqachon to'langan edi...





## Alomat

Agar hozirgacha bunga haqqim bor deb o'ylaganimda, hech taraddudsiz qarshingga chiqib, "Seni sevaman! Ovozing — ichimdagi yirtilgan joylarni qayta tiklaydi. Qaytib hech bir ovoz bu yerlarga yetib kelolmaydi, degan qancha yer bo'lsa, yirik zarrali qumlarning ichiga sizib kiradigan suv singari, sening ovozing ham ichimga sizmoqda. Shunday bo'lsa ham sira tinchim buzilgan emas, vujudim sendan zarracha ham yotsiragani yo'q" derdim. Meni tushunyapsanmi? G'oyatda charchaganini va gaplashadigan holi qolmaganini iddao qilayotganlardan farqli o'laroq, sen bilan hech qachon jim bo'lmaslikni istayman. Qo'yib ber, ovozingning yomg'iri yog'sin ustimga. Ko'ksim qayta jonlansin. Bu o'lik yerdan meni xalos qil. Shubhasiz, har bir inson bir joyga kelib, to'xtashni istaydi. Ammo men sendan shuncha charchoq, sukunat va yo'qotishlarni qoplashingni kutmayman. Ham bilaman, istasak-da, ikkimizning ham bunga kuchimiz yetmaydi. Agar xohlasang, hayotimizni o'tmishning ustidan, buni xohlamasang yangidan boshlaymiz. Vaholanki, inson o'zidan qocholmaydi. Bor-yo'g'i bir vudujimiz va bir qalbimiz bor xolos. O'rniga darhol boshqasi keltirib qo'yiladigan stakan ham emasmiz. Bizdagi narsalar eskirmaydi. Yo nobud bo'ladi yo yo'qoladi. Buni sezmasak-da, biz doim nihoyalarning ichidamiz. Meni eshit... Menga yaxshilab quloq sol:

Aslida, birga bo'lganimizdan keyingina ajralishni boshlaymiz. Chunki bir-birimizni yaqindan taniymiz.

.....



Va bilish juda qo'rqinchli. Hamda bir vaqtning o'zida bu haqiqatdir. Lekin men bundan qo'rqmayman. Quch meni. O'tinaman, yuragimni joyidan qo'zg'at. Sog'indim... Ovozning ichimni yoritishini juda sevaman, buni senga aytgandim. Menga kuch ber. Bir bor bo'lsa-da, qo'ldan boy bermay. Bir bor bo'lsa-da, haqqim bo'lmagan narsaga ega bo'lish uchun menga izn ber...





**Yolg'izman deya to'yib-to'yib baqiring! Chunki yer yuzida quloq solinmaydigan yagona tovush faqat shudir...**

Meni o'z ichiga olgan va hatto ko'ksimdan itarayotgan bu tuyg'ularning na nomini bilaman va na boshqara olaman. O'tinaman, sen menga yordam ber. Buning nimaligini ayt! Menga bu cheksiz osmonda ahamiyatsiz narsa kabi uchib ketishimga indamay qarab turganing haqidagi fikrga yengilishni istamayman. Agar hamma gap erkinlik haqida bo'lsa, na osmonning va na qanotlarimning yetib boradigan joylar cheksiz emas. Na sen o'zingdan ham kattaroq bir bo'shliqqa ko'cha olasan, na men sendan ham ko'ra bepoyon yoki oydinroq osmonga ucha olaman... Biz besarhad bo'lolmaymiz. Shu vaqtgacha bu haqda o'ylamagan edim. Ba'zan bir uyning senga tanish bo'lgan devorlariga boqmoq, hashamatli uyning derazasidan tiniq dengizga qarashdan ko'ra iliqroq tuyuladi. Chunki qarshingdagi manzara qanchalar go'zal va maftunkor bo'lmasin, u yerga tegishli emasligingni va qisqa vaqtdan so'ng ajralishga majbur bo'lishingni bilasan. Men sendan boshqa hamma narsamni ortimda qoldirib, chiqqan sayohatlarimda buni boshdan kechirdim. Atrofimdagi har qanday narsaning beparvo tabassum bilan yuzimga qarab turishi va har safar buni boshdan kechirish dahshatli tuyg'u. Va menga ishon, men seni bu tuyg'ularni boshdan kechirishingni istamaganim kabi, bir kun kelib, ushbu tuyg'ularning sen bilan yuzlashish ehtimoli bilan ham kurashdim.

.....





Qayerda to'xtab qolgandik? Tez-tez o'zimga beradigan bu savolim meni juda charchatadi. Yana boshidan oxirigacha yuraman. Shu holatda boshdan o'tkazganlarimizni bir qur ko'zdan kechiraman va nega bunday bo'lganini tushunish uchun kichik tafsilotlargacha bosh qotiraman. Ehtimol, hozirgacha, o'ylagan hamma narsamda yanglishgandirman. Ammo men hayotni oddiy tarzda yashashni istardim. Masalan, oqimdagi toshga urilganча, kichik pufakchaga aylanib, shu yerda yorilib yo'q bo'lmoq g'oyasi juda jozibali. Bu men uchun yo'qligi ahamiyatga ega bo'lmagan, qiziqarli bir mavjudlik bo'lar edi. To'g'ri, buni juda istardim. Negaki, men butun hayotim davomida juda qiynaldim. Endi men aniqlik bilan ko'rayapmanki, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa mendan juda uzoqda ekan.

Kecha ertalab barcha odatlarimning o'zgarishini xohlab uyg'ondim. Bilasanmi, men har doim boshlang'ich nuqtani tanlash mavzusida qiynalaman. Nima qila olishimni va nimani o'zgartira olishim haqida o'yladim. Masalan, karavotning doim chap tomonidan turishim kerakmi? Balki ilk tark qilishim kerak bo'lgan narsa shudir. Axir, oddiy odamlar hayotlarini o'zgartirishni xohlaganlarida qila oladigan eng oson ishlardan boshlashni xohlashmasmidi? Kim uchundir sochlarini bo'yatmoq, kim uchundir soqollarini olmoq, kim uchundir eng oson voz kecha oladigan insonidan voz kechmoq. (Men aytgan narsalar orasida qayerdan boshlanganini ikkimiz ham yaxshi bilamiz) Men ham bu safar shunday qilishni istadim. Lekin ko'zlarimni ochar-ochmas karavotimning chap tomonida devor borligini



esladim. Birinchi urinishim omadsizlik bilan yakunlandi. Shunga qaramay, o'zgarish istagi menda juda katta edi. Ilgari rohatlanib qilgan narsalarim men uchun endi hech narsani anglatmasdi. Bir begona narsaga to'qnashgan kabi tuyg'ularning yotsirashi juda og'ir. Agar hamma narsa bunday bo'lmaganida, bu tuyg'uni chuqur his qilmaganimda, bu chuqur jarlikdan chiqish uchun, o'pkalari yorilib ketishi mumkinligiga qaramay, musobaqada g'olib chiqish uchun otini shafqatsizlarcha qamchilab, yugurishga majbur qiladigan chavandoz singari o'zimni majbur qilardim va qolaversa, sohibimning menga qilgan bu jirkanch muomalasidan sira xafa bo'lmasdim. Ammo bunga ehtiyoj sezmayapman. To'satdan, tuproqning ichidan biror narsaning chiqib, meni mahkam ushlagancha, keyin pastga tortib ketishiga umid qilyapman. Ushbu tushuncha men uchun yagona qutulish yo'lidek ko'rinyapti. Mana shuning nomi — o'zgarish. Tushunyapsanmi? Bu savolni yoqtirmasligingni bilaman. "Insonlar nima uchun tushunyapsanmi deb so'rashadi? Dunyoning eng xunuk va umidsiz savoli bu! Jahlim chiqmagan holatda ham, men ushbu savol tufayli g'azabga duchor bo'laman. Buning o'rniga, "Tushuntira oldimmi?" deyish kerak" derding. Ochig'i, hozir seni g'azablangan holatda ko'rishni istardim. Senga tegishli hech narsaga ega bo'lmaslikning dahshatli azoblari, meni hatto g'azabingga moyil bo'lishimga sabab bo'lyapti. Seni menga qarshi qo'zg'atadigan har qanday narsaga ehtiyojim bor. Sababi, sen har doim yon berib, chekinmaydigan darajada kuchli eding. Yoki mendan himoya qilganlaring endi birov uchun yengib o'tish oddiy bo'lgan to'siqlarga aylangan

.....



bo'lishi mumkin. Unday bo'lsa layoqatsizligimni so'roq qilishingning ayni fursatidir balki? Shuning uchun "Buni tushundingmi?" deb so'rashga ehtiyoj sezdim.

Bu ham yomon boshlanish edi. Lekin bu bor yo'g'i ehtimol xolos. Ehtimollarning asosida o'ta vayronkor tuyg'ularning bo'lishini bilmoq ham meni hamon ba'zi narsalar to'g'risida xayol surishdan to'xtatib qololmaydi. O'ylaymanki, mening sendan keyingi zaif tomonim shu, chunki men shunchaki biron narsadan o'tib, muqarrar oxirigacha tez yurishdan boshqa ilojim yo'q. Agar biz bularni bir chetga surib qo'yadigan bo'lsak, tushunilmoq-tushunilmaslik kabi g'alati va ayni damda halokatlidir. O'zini va holatini juda yaxshi ifoda etadigan va nuqta zarbasi beradigan odamning umidsizligini taxmin qila olasanmi? Hammasidan yomoni hech kim senga biror taklif bilan chiqmaydi. Dardlashasan, ichingni ochasan, sabablaringni va xatolaringni birma-bir oshkor qilasan, ammo hech kim bir tukini ham qimirlatmaydi. Hozirgina sodir bo'lgan baxtsiz hodisaga sira duch kelganmisan? Men bunga oxirgi safarimning qaytishida duch kelganman. Shoshilganча yonlaridan o'tarkan, diqqatimni tortgan yagona narsa insonlardagi shoshqaloqlik edi. Voqea sodir bo'lgan joyda dahshatli betartiblik hukm surardi. Ular umuman tanimaydigan odamlarini tirik qoldirish uchun qo'llaridan kelganча harakat qilardi. Bu juda g'alati holat edi. Biroz oldin jinoyat sodir qilib, tasodifan u yerdan o'tayotgan har qanday inson ham xuddi shu ishni qilishi mumkin edi. Nega? Bu shoshqaloqlik sof tuyg'ular uchun bo'lishi mumkinmi? Agar e'tibor bilan qarasangiz, vijdonlarini





ozgina tinchlantirib, hayotda biron-bir ishga yarashning beradigan zavqi bilan yolg'iz qolishga urinayotganlarini osongina ko'rishingiz mumkin. Bu anglamoq va anglamaslik o'rtasidagi bog'liqlikdir. Yo'l bo'yidagi tomi pachaqlangan to'q moviy tusli avtomobil tasviri butun hayotimning xulosasi edi. Men yurgan yo'lning kengligi bemalol yurishim uchun yetarli emas edi.


O'zimni o'sha avtomobilning ichida tasavvur qildim. Qisilib qolgandim. Yana yolg'iz edim... Bir necha soniyalik bu holat mening yodimga ba'zi qo'shiqlarni soldi. Qo'llarim titragancha o'sha qo'shiqlarni qo'ydim. Qo'shiqlarga jo'rlik qilar ekanman, yana o'sha halokat sodir bo'lgan joydagi to'q moviy tusli mashinani esladim. Mening vaziyatim bundan farqli o'laroq, tirbandlikka qaramay, o'z vaqtida yetib borgan, ammo voqea sodir bo'lgan joyda xotirjam qimirlamay turgan tez yordam mashinasiga o'xshardi. Odamlar shoshilmayaptilar va meni hayotga qaytarish uchun zarracha ham harakat qilmaydilar. Qila olmaydilar... Chunki tez yordam mashinasi o'z vazifasini mukammal bajarib, vaqtida yetib borishi, bu qurbon uchun o'z vaqtida qilingan harakat bo'lmasligi mumkin. O'sha ilk to'qnashuv vaqtida tugadim. Buni sen bilan ilk tanishgan kunimiz nimani his qilganimni yaxshiroq tushunishing uchun aytyapman. Va shuni ham bilamanki, meni yaxshiroq tushunishing natijani sira o'zgartirmaydi. Halokat joyiga kech qolmay kelgan-u, endilikda qo'l qovushtirgancha turgan tez yordam mashinasining ichidan hammaga g'azab bilan boqaman. Loqaqal hayotning ichidagi bir qancha inson (hayotimning ichidagi bir qancha inson deyishni istardim) men uchun bir





narsalar qilishga urinib ko'rishdi.

Hech kimga minnatdorchilik bildirganim yo'q. Har kim o'z vijdonidan kelib chiqqan holda yonimda bo'ldi. Achinish tuyg'usining og'ir isi o'zini har yerdan ma'lum qiladi. Menga achinishlarini istamayman. Tuzatib bo'lmaydigan shuncha narsadan keyin anglash va anglamaslikning biror ma'nosi yo'q. Ammo sening bo'yning qushlarning yo'lini yo'qotmasligi uchun ko'kda qoldirgan izlari kabi hanuz go'zal. Hanuz barcha yo'llardan muhim. Hanuz bir narsalarning boshlang'ich nuqtasi. Men seni umidning xira va soxta nurlari ichida kutyaqman. Ammo bilaman, bir kuni ertalab mening barcha odatlarim o'zgarishini istaysan.



**Sizning yoningizda bo'lgan, o'tmishingizni bezovta qilmaydigan va doim borligini his qildirgan insonni bag'ringizga bosing. Chunki sevgi — ishonch bildirmoqdir, davolamoqdir, suyana bilmoqdir...**



## Ehtimol

Yolg'izlikning g'alati tasallisi bor, azizim. Sen hech qachon, hech kimdan, hech narsa uchun javobgar emassan. Ma'lum biror narsa bilan aloqang yo'q. Boshingdan o'tkazgan kunlarni "Ha, chiroyli kunlar edi" deya yo'lingda davom etishing mumkin. Va o'zingni juda kuchli yoki befarq his qilishing, bir qancha vaqt o'tgach, yolg'izlikni yo'qotib qo'yish qo'rquvini keltirib chiqaradi. Qanchalar g'alati bo'lmasin, inson qo'rqqan narsalarini sevmasa ham, vaqt o'tgach ularni yo'qotib qo'yishdan qo'rqadi. Bu qo'rquv sening yagona egangga aylanadi. Ketganlar, qochirgan fursatlaring, ko'rmaganga olganlaring va avvalroq boshingdan kechirganlaring bu qo'rquvning yonida erib ketadi. Biroz muddat oldingi, ancha avvalgi va o'tmishning og'rig'i tobora kamayib boradi. O'tmish chirydi. O'tmish unutilib boradi. Albatta, o'tmish qachondir seni bir og'riq kabi yo'qlaydi va sen darhol kimnidir quchasan. Ammo hech kimda abadiy qololmaysan. Sen ham duolar bilan insonlarning o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rayapsanmi? Aslida, ikkisiga ham ishonishdan qo'rqasan! Chunki duo qilib, o'sha narsani bor ixlosing bilan so'raydigan bo'lsang, yolg'izligingni yo'qotish ehtimoli tug'iladi. Kimnidir ushlab turganday ko'rsatib, unga umuman ahamiyat bermaslik kabi.



Men seni xohlayman.  
Duo qilyapman.  
Juda qo'rqyapman.  
Bir oqshom yonimda uxla.  
Birga yurganimizda qo'limdan tut.  
Sigaret tutatganimda birinchi tutunni ichimga  
qanday tortishimni ko'r.

Jonimni nima azoblayotganini angla.  
Bularning hech biri bo'lmasligi  
ehtimoli meni aqldan ozdiryapti.  
Telbaga aylanyapman...  
Teginma!  
Gapirma!  
Quehma!  
Uxlama!  
Birov bilan sevishma!  
Bularning bo'lish ehtimoli meni  
aqldan ozdiryapti.  
Telbaga aylanyapman.





**Hech kim butunlay unutilib ketmaydi ammo qadsizlashadi. Xiralashadi, eskiradi, o'tmishda qoladi. Go'yo uzoq bir uyquga ketgandek eslanadi.**

“Yolg'iz odam” filmi yodimga tushdi. Filmning bir sahnasida erkak yonida yotgan ayolga g'alati-g'alati qaragancha, yotoqdan turib, tashqariga chiqadi va boshqa bir ayolning diydoriga oshiqadi. Agar uning hayotida hamma narsa yaxshi bo'lsa, odamning iflos dunyosi to'satdan tozalanardi, ammo u baribir o'zini-o'zi bo'lganidan ham yomon betartiblikda topar edi. Chunki odamlar endi unda adashish uchun hech qanday bahona topolmaydilar. U bunga ko'nikkandi: birovga hisob bermay yashashga, birovga bog'lanmaslikka, yotoqning sovuq sharoitiga, bir kishilik nonushtalarga, bir kishilik kechki ovqatlarga, bir kishilik sayrlarga... Chindan ham, birovni sevish boshqa, u bilan yashashga ko'nikish boshqa narsa edi. Men ham o'sha erkak kabi yonimda uxlayotgan ayolga qaradim. Eng oxirgi marta birov bilan birga uxlaganimni eslolmadim. Aslida, ikki kishilik yotoqqa ikkimiz ham bemalol sig'ardik ammo gap bunda ham emas edi. O'ngga ag'darildim, chapga ag'darildim, nihoyat karavotning boshqa chetiga joylashdim. G'ujanak bo'lib olgandim, chunki to'shakning o'rtasida tikanli simlarni ko'rdim. Xonaning tomi, devorlari torayib borardi va men tez fursatda ustimga qulaydigan toshlar uyumiga yolvorardim: “Yordam bering! Iltimos, kimdir menga yordam bersin!”

Karavotning bir chetiga o'tirib, sigaret tutatdim. Sigaretni chekishim, uch daqiqa davom etdi. Bu vaqt





tanish edi. Yotoqda uxlayotgan ayolni shkafning oynasidan uch daqiqa kuzatdim. Go'yo meni yengishga kelganga o'xshardi. Balki meni o'ziga o'xshatmoqchidir. Unga o'xshasam nima bo'ladi? Yaxshi bo'lishi aniq. Xo'p, kim uchun yaxshi edi? Buning ahamiyati yo'q edi. Sigaret tugashi bilan oynada ko'rgan tasvirimni o'zim bilan olib chiqib ketmoqchi bo'ldim. Shimim bilan ko'ylagimni kiydim. Hanuz uxlayotgan edi. Ora-sirada o'ngga va chapga ag'darilardi, ammo shu qadar orom ichida ediki, ertani qo'yaver, kamida yuz yil sira uyg'onmay uxlashi mumkindek edi. Uyning ichida ovoz chiqarmay biroz yurdim. Qorong'u xonalar bo'ylab, kalitimni qidirdim. Oshxona stolining ustida ekan. Nega u yerga qo'yganimni eslay olmadim. Bu ham ahamiyatsiz hodisa edi. Uydan chiqmasdan oldin, yotoqxonaga qaytib, unga yana bir bor boqdim. Ichimda tobora kuchayib borayotgan toshlar uyumiga monand bir tovush qidirardim. Bu safar shovqin chiqarishdan o'zimni to'xtatolmadim. Balki tovushdan uyg'onadi va mendan "Qayerga ketayapsan?" deb so'raydi. Men ham qarshisida bir aybdordek jimgina qo'l qovushtirib turaman va u ham jimligimdan nima bo'lganligini tushunib, soat nechi bo'lganidan qat'iy nazar chiqib ketadi, men ham ortidan "to'xta, ketma!" deya yuguraman... Keyin yana bir bor sigaret tutatib, uch daqiqadan keyin yotog'imga kirib, tinchgina uxlardim. Ammo u uyg'onmadi! Uyg'onmadi va sukunat qorong'u tuneldan qutulish uchun o'tishim kerak bo'lgan barcha eshiklarni yopdi. Tashqariga chiqqanimda soat 03:35ni ko'rsatardi.

Ipsv Iyunning oxirlari edi. Har oqshom ertalabgacha hurib





chiqqani uchun nafratlanadiganim — qo'shning ko'ppagi yana hurishni boshladi. Bu it ahmoqni o'zi edi. Parkda ikki kishi o'tirardi, ularni tanimasdim. Biri "Ichasanmi?" degandek qo'lidagi shishani havoda ko'targancha menga ko'rsatdi. Ikkinchisi esa ming'irlagancha qo'shiq aytayotgan edi. Qo'shiqning so'zlariga tushunmadim. Erkakning ham nima deyotganining farqiga boryapti, deb o'ylamasdim. Ammo mastlikning rostligi menga yoqardi. Jilmaydim. Yo'q degandek qo'limni yengilgina ko'tarib, yo'limda davom etdim. Qayerga ketayotganimni bilmasdim. Mening "Yolg'iz odam" filmidagi erkak singari boradigan ikkinchi eshigim yo'q edi. Hatto o'sha onda men uchun ochiladigan boshqa bir eshikning o'zi yo'q edi. Yotog'imdagi ayol hamma narsamni tortib olgandi. Binolarning chiroqlari birin-ketin yonardi. "Menimcha, ular ham birga uxlashni eplay olmayapti" deb o'yladim. Kim biladi, balki biroz vaqt o'tib, hamma ko'chaga oqib chiqib, qadamba-qadam meni ta'qib qilishar? Hattoki mushuklar, itlar, qushlar va chumolilar ham, umuman birga uxlashni eplolmaydigan kim bo'lsa, ortimdan kelar... Biroz piyoda yurdim. Ko'zim birin-ketin yonayotgan o'zga binolarning chiroqlariga ham tushdi, biroq hech kim ortimdan kelmadi. Tez-tez ortimga qaradim. Kichik umid bilan bino eshiklarining ochilish tovushini kutdim. Ammo hech qanday ovoz eshitilmadi. Bir-biriga urilgan ikkita temirning og'ir metall tovushi bir marta ham eshitilmadi. Undan ham yomoni, qadamlarim sekinlashib borardi. Yurishdan charchadim. Go'yo mendan boshqa hamma uxlayotgandek edi. Ehtimol, ular quchoqlashib uxlayotgandir. Uyga qaytdim. Atrof asta-





sekin yorisha boshlagandi. Oromgohdagi mast-alastlar ham ketishgan edi. Eshikni ochdim. Yo'lakning chirog'ini yoqdim. Poyabzalimni shovqin bilan yechib otdim.

Zal tomonga o'tdim. Televizorni yoqdim, musobaqa dasturi bor edi. Ammo nega musobaqalashishlariga tushunolmadim. Buning nima keragi bor edi? To'rt kishi o'z bilimlari orqali musobaqalashishar va bilgan narsalari bilan pul topishayotgan edi. Sababi shumidi? Hamma gap puldami? Shuncha narsani o'rganish uchun to'lagan badallari nima bo'ladi? Ushbu musobaqadan yutgan pullari o'sha badallarning o'rnini qoplarmikan? Aslida, menga nima? Televizorni o'chirdim va bir kishilik o'rindig'imga o'tirdim. Uning sigaretidan olib tutatdim. Haliyam uxlayotgan bo'lishi kerak edi. Uch daqiqadan keyin, yotoqxonaga tomon yuzlandim. Uni yana biroz kuzatdim. Nimadandir qo'rqayotgandim. Ha, bir narsadan qo'rqardim. Ustimni yechib, jimgina yoniga cho'zildim. Bag'rimga bosa olmadim. Chunki to'shakning o'rtasidagi tikanli simlar hali hamon joyida turgandi. Shift va devorlar, hatto zamin ham yana ustimga yopirilib kelayotgandek edi... Uy deb ataladigan bu toshlar uyumi o'z vazifasini bexato ado etayotgan edi. Juda qo'rqayotgan edim. Ko'zlarimni yumgancha, bolaligimda onamning qo'llarini qanday tutgan bo'lsam, shunday tutdim uning qo'lini. Men tomon o'girildi. U titrardi. "Sira uxlay olmadim" dedi, kutilmaganda. Menga go'yo borbudini yo'qotgandek qarardi. Bu qanday g'alati holat edi. Zulmatda inson yashirinishi osonroq bo'lsa-da, aksincha, aniqroq ko'rinayotgan edi. Hamda har bir belgisigacha... Nega uxlolmading, deb so'ramadim. Qiziqmadim! Zotan,

.....





hammasi kundek ravshan edi. U ham bir narsalarini yo'qotgan edi. Mendan yagona farqi: u o'zini uxlayotganga solgandi va men ham bunga ishongandim. Bundan ortig'ini o'ylay olmadim. Agar o'ylaganimda, menga tomosha ko'rsatgani uchun undan g'azablanishim mumkin edi. Ikkimiz ham yetarlicha charchagan edik. "Endi rostdan ham uxlaymizmi?" dedim. "Uxlaymiz" dedi. "Yana uch daqiqa. Dunyo kostyumini yechmasdan turib, rostdan ham uxlaylik."



## Chirik

U qon bilan aralashishi uchun atigi bir necha daqiqa vaqt sarflanadigan doridan ko'ra menga tezroq kirib bordi. Dorini tilimning ustiga qo'ydim, suvni boshimdan quydim va charchagan tanam dorini shu yerda qabul qildi. So'nggi eshigim, so'nggi bekatim va oxirgi choram ekanligini bilardi. Qayerga kelganini va menga nimalar qilishini ham juda yaxshi bilardi. Aslida, bizning tanishuvimiz hujjatli filmlardagi vahshiy hayvonlarning ovlanishiga o'xshardi. Boshqa arslonlardan qochaman deb yugurishdan charchab yiqilgan va bir butaning ichida nafasimni rostdash uchun turar ekanman, qarshimda uni ko'rgandim. O'lishim muqarrar edi, nihoya bitgandi va taslim bo'lgandim. Zero, bugun bo'lmasa ham, ertaga shunday bo'lishi aniq edi. Shunday ekan, nega cho'zib o'tiray? Buning nima keragi bor? Ammo bu ne tasodif bo'ldiki, "Men boshqalardek emasman" degandek, jim turardi. Ba'zan inson ishonishni xohlaydi. Baxtli bo'lmoq uchun ko'pgina narsadan voz kechib, ko'pgina yolg'onga o'zini ishontira oladi. Va albatta, sen boshida sotib olgan baxtni bir kun kelib sendan ham kimdir sotib oladi. Boshqa bir ovda boshqa yirtiqchlardan qochar ekan, ishini biladigan boshqa arslon, boshqa butaning yonida kutayotgan bo'lishi mumkin. Buni anglamagunimcha, qancha odamlar o'zlarini bu loyqalangan suvda ko'rishga intilayotganlarini tushuna olmagandim.

Oradan vaqt o'tgach, suvlar anchagina qurib qoldi va men u yerda yotgan jasadlarni uchratdim. Men bilaman deb o'ylaganim boshqa bo'lib chiqdi. Uning ko'zlari qamchi



ushlagan ot murabbiyiga o'xshardi. Ishonch bilan biron bir narsani teskarisiga ketgani haqida baqirardi. Yoki hamma narsa to boshidan beri teskari edi. Bu muhimmi, bilmadim. Bular haqida o'ylash meni charchatgan edi. Nima bo'lsa ham, hozir yuz berishini istardim. Chunki bu yo'ldan ilgariroq yurgan va yo'l chetiga kichik non urvoqlaridan sochib ketgandim. Bu holat menga g'alati yengillikni his etdirardi. Shkafni ochib, qo'shiq xirgoyi qilgancha, chamadonimni tayyorladim. U bu safar adashmayman, deb o'ylagan edi. Ortga qaytish uchun yana ko'p vaqtimni sarflashim aniq edi, lekin uyga olib boradigan yo'limni aniq topardim. U ham qayerga xohlasa, o'sha yerga ketardi. To'xtab, o'zimni tekshirib ko'rganimda, ozgina zarar ko'rganimdan xursand bo'lardim. Orqamga qaramasdim. Bugundan boshlab mohir ovchi bo'lardim va bundan keyin o'lim tomoshasini ko'rsatardim. Eskirgan go'sht bo'lagiga aylanardim. Shunda menga birov yaqinlashmasdi. Soyasidan qo'rqadigan yosh bola emasdim. Tajribalarimizni xotiraga aylantirmaslik uchun o'tmish haqida o'ylamagan bo'lardim. Masalan, men ertalab ko'zlarimni ochishdan oldin, yotoqning o'ng tomonini qo'lim bilan paypaslab tekshirish va uni yonimda his qilish kabi ulkan taskin beruvchi tuyg'udan yuz o'girardim. Shippaklarimni kiyib, oshxonaga ko'zlarimni yumib borish qanchalik qiyin bo'lar edi? Va u qanchalik mohir ovchi bo'lishidan qat'iy nazar, o'tmish uning uchun ham og'ir bo'lar edi va u o'ldirgan odamlarning jasadlari ko'zining oldida turishi kerak edi. Shuning uchun meni hozirgacha aniq ko'rgan, deb o'ylamayman.

Meni shuncha jasadlar orasidan ajrata olmasdi.

.....



Men ichimda faqat o'zim amalga oshirishni istagan narsalarim tasvirlangan manzarali rasm bilan yashayman. Uni o'zim chizdim. Ranglarini ham o'zim tanlaganman. Bir nechta daraxtlar, dengiz, ko'p savolga tutmaydigan bir qancha insonlar, daraxtlardan biroz uzoqda joylashgan va men doim sigaret sotib olishim uchun bir mahalla baqqoli, eng yoqtirgan qo'shig'imni yozish uchun yillab harakat qilgan, ammo uddasidan chiqa olmagan bir bastakor, (holbuki, istasam va so'zlarini bersam, ishini osonlashtirgan bo'lardim) men eng sevgan pishloq turlari va qancha yursamda charchamaydigan uzun bir yo'l... Yo'qsa hamma narsani mendan kutib, o'zlari bir tuklarini ham qimirlatmagan bu odamlarning orasida yo'qolib ketardim. G'azabimga yengilishni istamadim. Bu ulkan binolar orasida o'zimni juda kichik his qilyapman. Ko'kda ustimni qoplab, quyoshni mendan olgan qora bulut bor. Bular xotiralar... Yarim qolganlar... Berilgan-u lekin ustidan chiqilmagan so'zlar... Yolg'onlar... Bular qalbinga ta'sir qilishidan oldin, ichimga o'sha manzarani chizdim. Bor-yo'g'i onamning kular yuzini sog'inaman. Hamon avvalgidek chiroyli kularmikan?

Hammomdagi buzuq krandan tinimsiz suv tomadi. Bu uyning jimligini buzib turadigan yagona tovush. "Tiriklay chirishning eng yaxshi yo'li — kutishdir" derdi otam. U haq edi. Onam uni ko'p kechalar kutgan edi. Ko'zlarining osti chirigancha, "Uyg'ondingmi, bolam?" derdi hojatxonaga borish uchun turganimda. Keyin yotog'imga olib borib qo'yardi, chiriy boshlagan qo'llari bilan. Tong otardi va otamning chiriy boshlagan ovozi







eshitardim. Hammomdagi buzuq krandan tinimsiz suv tomardi. Otam chiriy boshlagan lablari bilan meni o'pard. Opa-ukalarimni ham o'pard. O'pichlari hammamizga yetardi.

Ishdan tashqari ishlab topgan pullari uning cho'ntagida ekan, bolalaridan uyalmaydigan ota sifatida "Sizga biror narsa kerakmi? Darhol olamiz" derdi. Barcha bolalar jim bo'lardik, chiriy boshlagan ovozlrimiz bilan. Otam ancha keksaya boshlagandi. Horg'in edi. Biz jim turganimizda onamning ko'ksi shishib ketardi. Tobora unga o'xshab borardik. Egnimizdagi chiriy boshlagan kiyimlarimizga qaramay, qadr-qimmat neligini kichik yoshdan bilardik. O'sha vaqtlarda ichimga rasm chizishni o'rgandim. Ilk bor otamning charchoqdan chirimagan qo'llarini va onamning kutishdan chirimagan qahvarang ko'zlarini chizdim. Rasmda hammasi go'zal edi. Biz ham ulg'aymasdik. Asta-sekin diydasi qotayotgan shahar sira bizga tegolmasdi. Endi har doim chiroyli narsani ko'rsam, darhol ichimga uning rasmini chizaman. Xushbo'y iforlar, chiroyli ovozl, chiroyli taomlar va chiroyli ayriliqlar bilan to'laman...





**Vaqt o'tib, ko'nikasan. Qalbing azoblanmaydi, jahling chiqmaydi va hozir qayerda hamda nima qilyapti deya jig'ibiyron bo'lmaysan. Ammo bu unutmogdan ham yomondir.**

Oradan qancha vaqt o'tsa ham ayrim narsalar unutilmaydi. Aniqrog'i, unutish uchun bo'lmasa ham, loaqal ko'ngil uzish uchun ishonarli yakun kerak insonga. Insonning ichidagi umid chirog'ini o'chiradigan, savollarga va kichik shubhaga ham o'rin qoldirmaydigan muhtakam bir yakun lozim. **NECHA YILLAB YIQILDIM O'SHA QORONG'U CHUQURGA.** Ovozi tubsiz quduqqa aylanib qolgan edi "Endi iloji yo'q, qo'limdan kelmaydi" deganida. Qarshimda men tanimaydigan inson turardi. Beixtiyor ovozingning men birinchi marta eshitgan g'alati ohangini kashf qilgandim. Ichim titrab ketgandi. Men bu tuyg'uni maktabda darsdan qochib chiqqanimda, otam tutib olganida boshdan kechirgandim. O'sha kuni Emel bilan ayrilgandik. Endi o'n olti yoshda edim. Qattiq sevib qolgandim. Men uchun dunyoda menikidan ham ko'ra buyuk muhabbat yo'qdek edi. U esa "Endi iloji yo'q, bu qo'limdan kelmaydi" degandi. Vaholanki, ishning oson yo'li shu edi: "Endi iloji yo'q, bu qo'limdan kelmaydi" deysan va qo'lingdan kelmagan hamma narsa bir onda yo'qqa chiqadi.

Emelning sehrli shlyapada yo'qolgan kaptardan farqi yo'q edi. U ketdi. Bu haqiqatga esa ishongim kelmasdi.

May oyining so'nggi kunlari. Maktab yopilishiga bir necha kun qolgan. Osmonning qudratli qo'li xuddi



quyoshni asta-sekin siqib chiqarayotgandek, kun yonardi. Hamma arang nafas olardi. Ayniqsa, menga nafas yetishmasdi, chunki Emel yo'q. Sinfdozlarim bilan maktabdan qochishga qaror qildik. Ammo biz bu ishda yangimiz, qochib qayerga borishni bilmas edik. Erdal, Hoqon, Ridvan, Levent va men... Yo'lda yonma-yon ketyapmiz. Besh kishilik ittifoq tuzganmiz. Go'yo yo'limizni hech kim to'solmaydigandek. Emeldan boshqa... Agar Emel kelsa, men ularning hammasini o'sha yerda sotaman. Balki bu yuz berar deya ortimga tez-tez qarayman. Ammo u yo'q! Oxirgi bor qaraganimda otamni ko'rdim. Shoshilib, oldimga burildim. Qo'lim bilan Hoqonni turtdim va pichirlaganicha: "Tamom bo'ldim! Ortimizdan otam kelyapti" dedim. Hoqon ham sarosimaga tushdi. Xuddi o'z otasining qo'liga tushgandek. Bir-birimizning pinjimizga tiqilganicha, qadamimizni tezlatdik. Qolgan bolalar nega shoshilayotganimizga tushunishmadi. Bor jur'atimni to'plab, ortimga o'girilganimda otam yo'q edi. Yana yurdik. Bir necha bor ortimga qaradim, hech kim ko'rinmasdi. Nima bo'lsa bo'ldi. Endi uyda kechqurun qiyomat bo'ladi, deb o'yladim. Otam ishdan qaytishidan avval uyga qaytdim. Xonamga kirib, karavotimga cho'zildim. Agar uxlasam, ertaga kechqurungacha otamni ko'rmasdim. Chunki barvaqt turib, ishiga ketardi. Shiftga termuldim. Otamning aksi namoyon bo'ldi. O'ngga-chapga ag'darildim, ammo uxlay olmadim. Otam har doimgi vaqtda ishdan qaytdi. U xuddi atom energiyasi bilan ishlaydigan soatga o'xshardi. Xonamdan chiqmadim. Otam ichkariga kirdi. O'zimni uxlaganga soldim. U kunning issiqligiga qaramay, ustimni



yopib, "Xayrli tun, o'g'lim" dedi.

U uxlamaganligimni bilardi. Ko'zlarimni chirt yumib oldim. Otamning horg'in sasi menga kerakli bo'lgan hamma narsani so'zlagan edi. Uning ovozi tubsiz quduqqa tushgan toshdan farq qilmasdi. U mening ichimda aks-sado berdi. Aks-sado berdiyu, lekin tosh tuproqqa kelib urilganida, chiqaradigan tovushini deyarli eshitolmadim. O'sha toshning ortidan sakrashni istadim. Ertalabgacha uxlay olmadim. Otamning horg'in ovozini emas, faqat Emel haqida o'yladim. Peshinga yaqin maktabga ketdim. Emel maktabga kelmagan edi. Ertasi kuni ham kelmadi. Zero imtihonlar ham tugagan edi. Emel hikoyasi ham nihoyalangan edi. To sentyabrda maktab ochilmaguncha undan darak bo'lmadi. Na bir vido na boshqa bir xabar... U to'satdan g'oyib bo'lgandi. O'sha dam hayotimda ilk bor chiroyli yakunga ehtiyoj sezgandim. Butun yoz bo'yi atrofda gandraklab yurdim. Odatda, ta'til juda tez tugardi. Ammo bu gal uch oyning o'tishi bir asrga teng bo'ldi. Va nihoyat maktab ochilganida u bilan uchrashdik. Bu safar menga eng uzoq partada o'tirdi. Hatto yuzimga ham qaramadi. Tanaffus paytlari yonimdan dugonalari bilan kulishib o'tardi. Biroz ulg'aygan va biroz go'zallashgan edi.

Menda hozir ham shu narsa bor edi. Gapirar ekan, Elifning tovushi chuqur bir quduqqa tushardi. Yillar o'tib, Emelni esladim. Ikkisi ham bir ovozdan gapirardi. Iloji yo'q edi, men bilan bo'lish ularning qo'lidan kelmasdi. Ovozining o'rnida bo'lib qolishni istadim. O'sha paytda unga tegishli bo'lish g'oyasi juda jozibali tuyuldi. Va aniq







bir oxiri bo'lmagan bu quduq qayergacha edi, men buni bilib olgan bo'lardim. Elif juda uzoq gapirdi. Sabablarini sanab o'tdi. Ammo sabablarining hech birida men yo'q edim, lekin bu badalni to'lashi kerak bo'lgan inson ham men edim. Yana may oyi edi. U qarshimda g'oyat xotirjam edi. Osmonning qudratli qo'li xuddi quyoshni asta-sekin siqib chiqarayotgandek kun yonardi. Hamma arang nafas olardi.

Bir yonim bu narsani tezroq tugashini istardi, bir yonim esa yana biroz cho'zilishini... Galstugimni bo'shatdim. O'sha kuni yangi ishga kirgandim. Maktabni tugatiboq darrov o'z ishini topgan omadlilarning ichida edim. Elif soatiga qaradi va go'yo biror joyga shoshayotgandek stoldan qo'zg'aldi. Uyiga kech qolayotganida o'zini shunday tutardi. Biroq bu safar boshqacha edi. Go'yo vidolashayotgandek qo'lini men tomon cho'zdi. U ham voz kechdi. Keyin sumkasini yelkasiga osdi. Ko'ylagi biroz chap tomonga siljidi u sumkasini yelkasiga osganida. Ikki qadam tashlab, to'xtadi. Ortiga qaytdi. Unga bergan uzugimni sumkasidan chiqarib, stolning ustiga qo'ydi. Lekin churq etmadi. Ovozidagi tosh ham uzoqlashdi mendan. U ketgach,— quyosh ham bo'shashdi va ustimga yukini ortishni to'xtatdi. Havo to'satdan salqinlashdi. Stolning ustida turgan uzukni olib, birinchi marta ko'rayotgandek uzoq termuldim. Stolning ustida aylantirdim. Yerga tushdi, oldim. Jimjilog'imga taqdim. Uning nomsiz barmog'i mening jimjilog'imcha kelardi. Bu uzukni olayotganimda ham, o'lchov uchun o'zining uzugidan foydalangandim. Uzukni ko'rganida juda sevingan edi. Elif ketganidan keyin





ham uni bir muddat cho'ntagimda olib yurdim. Ammo bir kuni ertalab uyg'onganimda, sira o'ylab o'tirmay uzukni derazadan tashqariga qarab uloqtirdim. Noyabr oyi edi o'shanda. Uchinchi qavatdan qanday yerga tushishini tomosha qildim. Yerga borib tushganida, past tovushini eshitdim. Keyin toshlarning orasida yumalagancha ko'zdan g'oyib bo'ldi. Va nihoyat o'sha tubsiz quduqning tubini topgan edim.



## Nozik tuyg'ular

Tashqariga chiqdim va soatlab piyoda kezdim. Playlistimni faqat bitta qo'shiqni ijro etish uchun sozladim. Semiramis Pekkan qayta-qayta qulog'imga "Menga yolg'on so'zladilar, qismatdan gapirmadilar" deya takrorlab turdi. Uning gapiga qo'shilaman. Uning gapiga qo'shilganimning sababi, chunki menga ham yolg'on gapirishgan, aldashgan edi. Qolaversa, bir qancha kishi, bir necha marta menga yolg'on gapirma deyishimga qaramay, menga yolg'on gapirishardi. Ortiq bular haqida o'ylashni istamasdim, ammo qo'shiqdan ham butunlay voz kecholmasdim. Bu safar esa, "Ikki qo'l va bitta bosh berdilar" degan joyi miyamga o'rnashdi. To'g'ri, ikki qo'lim va bitta boshim bor edi. Qaysi biri bo'lmaganida ko'proq og'ir bo'lardi deb o'yladim. Bir fikrga kelish juda qiyin edi, lekin agar qo'llarim bo'lmasa, hamma narsa tugaydigandek tuyuldi. Tobora yomonlashib borayotgandim. O'zimni, otam bolaligimda sartaroshga beradigan puli yo'qligi uchun, sochimni o'zi olib tashlagandagidek his qildim. Sochimning ayrim joylari kalta, ayrim joylari juda uzun bo'lardi va bundan uyalishimni otamga aytolmasdim. Chunki uning puli yo'q edi va shusiz ham otam buning uchun yetarlicha ezilardi... Buni bilardim. Xayolimda jonlangan hamma narsa o'lgan edi. Go'yo o'liklarning orasida kezardim.

O'zimni zo'rg'a kitob do'koniga boshladim. Shoshgancha, yangi chiqqan kitoblarga ko'z yugurtirdim. Tanish mualliflarning ismlari juda ko'p edi, lekin ularning hech biri menga tegishli biror kalom aytmayotgan edi,





hammasi eski mavzular edi. Ko'zlarimni yana javonlarga yugurtirdim. Ko'zim menga notanish bo'lgan bir muallif ayolning kitobiga tushdi. Kitobga biroz uzoqdan qarab turdim. Keyin qo'limga oldim va muallif haqida o'ylay boshladim. Qiziq, ayolning to'piqlari ingichkamikan? Go'yo hamma gap shunda edi. Bu haqida o'ylash axloqsizlikmidi? Balki... Ammo nega bunday o'ylayotganimning sababi bor edi. Bir necha kun avval, sevgan qizim bilan birga o'tirganimizda, ayollarda eng ko'p nimaning chiroyli ko'rinishi haqida gaplashgan edik. "Men uchun bir ayolning eng ko'rkam joyi uning oyoq to'piqlaridir. Ayniqsa, to'piqlar ingichka bo'lsa, ishonib bo'lmas darajada yoqimli" degan edim. Uning to'piqlari esa yo'g'on edi. Menga bir og'iz ham gapirmadi. Faqat ko'zlarini stolning ustidagi qog'oz salfetkaga tikkancha, bir muddat shu holatda turgandi. To'piqlarning ingichka yo'yo'g'on bo'lishiga ahamiyat berishim, mendan ayrilishiga yetarli sababmidi? Ehtimol... Ammo men uni to'piqlari yo'g'on holatda ham sevardim-ku?!

Kitob do'konidan chiqdim. Yana o'sha musiqani qo'ydim. Biroz piyoda yurdim. O'zim sezmagan holatda insonlarning dilini og'ritishimni sezib qoldim. Bir necha kun oldin sevgan qizimni, bir necha daqiqa avval esa men kitobini sotib olgan muallif ayolning dilini og'ritgandim. O'zimni-chi? Eng oxirgi marta qachon o'zimni xafa qilgandim? Biroz o'yladim. Xayolimga bir necha yillar avvalgi sevgan qizim keldi. Ilk bor uni deb dilim og'rigandi. Eng ko'p o'sha bag'rimni tilgandi. Go'yo shaharning qabristoni men edim. Mening qalbimni og'ritganlar, men







dilini og'ritganlarim. O'sha qabristonda men va hamma narsa yonma-yon yotardik.

O'liklarga qachon yaxshi bo'ladi? Men biladigan bir qancha duo bor lekin... Yangi kitob sotib olish ham vaziyatimni yaxshilamadi.

Biroz boshimdan kechirganlarim to'g'risida o'ylashga qaror qildim. "O'tinaman, meni kechir. Seni aldadim." degan edi telefonda. Tinmay yig'lardi. Oxirgi marta yakshanba kuni ko'rishgandik. O'sha kuni baqirib-chaqirib bir narsalarning tugaganini, ammo tugagan narsa nima ekanligini bilmayotganini, shunchaki endi o'zini menga avvalgidek yaqin his qilmayotganini aytgan edi. Bu bo'lishi mumkin. Churki inson ba'zi vaqtlar hatto o'zi-o'ziga begonadek tuyuladi. Uni o'z holiga qo'ydim. O'ylab olishi uchun vaqt berdim. Chorshanba kuni ertalab uchrashdik. Yana o'sha joyda. Biz har doim o'tiradigan stol ham bo'sh edi. Ikkita sutli qahva buyurdik. Xuddi qahva ichayotgandek o'tirardim stolda. Ammo bir qultum ham ichmadim. Qachon holati qandayligi haqida gapirishini kutdim. U bir kuni o'zini juda yolg'iz his qilibdi va bir o'zi shu yerga kelib o'tiribdi... Keyin ro'parasidagi stolda kimdir unga tez-tez nazar solayotganini payqab qolibdi. Avvaliga ko'zini olib qochibdi, boshini egibdi "Yo'q, unga buni ravo ko'rolmayman" deya ko'nglidan o'tkazibdi. Ammo oz fursatdan keyin ko'zini olib qochishga kuchi yetmabdi. Erkak ham mayl bildirganini sezib, kelib uning stoliga o'tiribdi. Birga qahva ichishibdi. Erkak qahvasiga ikki qoshiq shakar solibdi. (O'zim ikir-chikirigacha aytib berishini istadim) Men ham darrov qahvamga ikki qoshiq





shakar soldim. U yana bir qancha narsalar to'g'risida gapirdi. Nima uchun, qanday qilib va aslida hech kim eshitishni istamaydigan ko'p narsalarni tushuntirib berdi. Chunki shuni xohladim. Ammo sira baqirib-chaqirmadim. Hatto ovozimni ham ko'tarmadim. Hisobni so'rab, hojatxonaga ketdim. Yuzimni yuvdim. Qo'llarim muzdek edi. Qo'l quritgichning yonida devorga suyangancha biroz tin oldim. Keyin tashqariga chiqdim. Unga qaradim, hisobni to'lab, kelishimni kutayotgandi. Yoniga qaytib bormadim. Vidolashmadim. Meni butkul tugatishiga izn berolmasdim...

Necha soatdan beri yurayotgandim. Qo'llarim yana muzdek edi. Qo'llarimdan ajralib qolishdan qo'rqdim. Yaqinda olgan kitobimga qaradim, ammo muallifdan biroz oldin xayolimdan o'tkazgan narsalarim uchun uzr so'ramadim. Zotan xayolimdan o'tkazgan narsalarimning hammasi o'lik edi. Muallifning to'piqlari ingichka bo'lishi kerak edi. Unday bo'lmasa ham, muammo yo'q edi. Shunchaki ingichka bo'lganida chiroyli bo'lardi...



Oylar o'tib, ovozi eshitganimda, "Mendan buni nega tortib olding? Ishon, dunyodagi hech bir narsa bunga arziyas edi" deyishni istadim lekin yana jimgina ovozi quchdim...

Tan olaman, o'z qobig'imga o'ralib olganman. Ni-magaki, yangiliklarga unchalik tez ko'nikolmayman. Yangi insonlarga, yangi uylarga, yangi mahallalarga, yangi mahalla baqqollariga, avtobus bekatlariga, yangi yo'llarga... Men hechqachon chamadon bilan eshik oldida turadiganlardan bo'lmaganman. Garchi buyumlarimni o'sha chamadonga solib qo'ygan bo'lsam ham, ularning hech e'tibor bilan taxlanmagan. Qo'limga tushgan ko'yi ichiga joylaganman. Qisqasi, hozirlikim yo'q edi. Men oyog'imni divanda cho'zib, ayni dam mavjud bo'lgan joyimga egalik qilishni yoqtirardim. Ya'ni ketmaslik uchun oxirgi daqiqagacha chidashga urindim. Men har doim uyning devorlarida g'ubor bo'lishini va shu uyni ta'mirlash bilan vaqtimni o'tkazishni xohlardim. Ammo buning imkoni yo'q. Chunki qolish qolmaslik bir kishining ixtiyoriga bog'liq emas. Shu boisdan qaysidir payt ketish kerak. Noldan boshlangan o'sha la'nati hayotga kelsak, men buni qayta-qayta boshdan kechirdim. Va odatda biz nol deb ataydigan raqam aslida nolga teng emas.

Inson ba'zan qayerga bormasin, yangi narsalarga joy qoldirmaydiganchalik horg'in va bo'g'zigacha to'lgan bo'ladi.

Bir bayram tongida barcha ko'chalaridan voz kechgan bir shahar kabi uyg'ondim. Go'yo mushuklar





ichimdagi axlatni titkilayotgandek edi. Yuk mashinasi men bilan birga ulg'aygan yuz yillik daraxtlarni kesib, o'midan osmono'par binolar qurishibdi. Kanalizatsiya ichimlik suvi bilan aralashib ketgan va uning badbo'y hidi har tarafdin taralayotgandek. Nafas yetishmayapti! Yonimdan o'tayotganda kimdir meni shunday qattiq qarg'adiki, lekin men orqaga qaraganimda u jilmayib olomonga aralashdi va men uni odamlar toshqini ichida yo'qotib qo'ydim. Hatto "Qarg'ishing o'zingga ursin" ham deyolmadim.

Istiqlol ko'chasiga qachon yo'lim tushsa, shu hol takrorlanardi. Har doim bir-birini bosib ketaman degan olamon orasidan o'tib, ko'chadagi mehmonxonalarga qaraganda arzonroq mehmonxonalari bor yon ko'chalarga yuzlanardim. Suriyadan kelganlarni, Afg'onlarni, tag'in kim bilsin, yetmish ikki millatni bir yerda jamlagan ko'chalarga... Qora tanli ayollar, tor shimlilar, katta ko'zlilar, kunlik daromadni yalangayoq bolasining qo'lidan yulqib olayotgan yana qora tanli erkaklar...

Men tushunmaydigan ko'plab begona tillar orasidan sirg'alib o'tar ekanman, butun o'tmishim xuddi kino tasmasidek birin-ketin ko'z oldimdan o'tdi. Barcha ko'chalaridan voz kechgan o'sha shahar men edim. Mendan boshqa hamma hayotimdan zavqlanar edi. Kulayotganlar, uxlayotganlar, ovqatlanayotganlar, sayr qilayotganlar, qarg'ayotganlar, baqirayotganlar, kelayotganlar, ketayotganlar va men esa ularni tomosha qilayotgandim.

Shoshilib turganlari ko'p turolmaymiz deya yo'lga chiqishgan, ammo mendan ketishayotib, joylarini o'zining tanishlariga qoldirishgan, begonaga o'tib ketmay deb...







Ammo hammasi bir go'r ekan. Ular ham kulishgan, uxlashgan, ovqatlanishgan, sayr qilishgan, qarg'ashgan, baqirishgan, kelishgan, ketishgan va men yana tomoshabin bo'lganman. Dardim hech qachon chegaramdan oshmagan. O'z uylarida shippak kiyib yuradiganlar, mening uyimga loyli poyabzallari bilan kirishgan. Hatto toza, sovun hidi taralib turadigan choyshablar ham qolmagan, ular hammasini bulg'ab tashlashgan. Muzlatkichdagi bor narsalarni esa olib ketishgan edi. Bir kishidan tashqari...

Darhol u shahardan ketdim. Bundan ortiq qololmadim. Ikki yil ko'z ochib yumguncha o'tib ketibdi. Ora-sirada qalbimga quloq solganimda, atrof suv quygandek sokin bo'lganida yoki gapirayotganlar e'tiborimni tortmaganida, endi boshimni yosiqqa qo'yganimda, to'satdan mayxona derazasida "dafn marosimi sababli yopiqmiz" degan yozuvni o'qiganimda, havo qizitayotganida, sovuqqotayotganimda, sigaretning tutunini lablari titragancha puflagan ayolni ko'rsam, ismi biron joydan eshitilsa, hatto umuman boshqa bir odamni uning ismi bilan chaqirishganiga duch kelsam... Badanim dir-dir titraydi. Sog'inganimni yashirib turolmayman. Nima ham qila olardim? Xuddi kechagidek, yangi kesilgan etning qaynoqligi qalbimni tark etgani yo'q. Hadeb so'rashni bas qilsinlar deb tanishlarimga "Biz ayrilganmiz, oradan qancha vaqt o'tdi axir" desam, hammasi ustimga yopirilishi aniq. O'zlaricha haliyam umid uzishgani yo'q. Chunki bir-birimizga juda yarashardik.

Bir kuni Irfon qo'ng'iroq qilib, "Kelganingga bir hafta bo'ldi, ammo haliyam yuzingni ko'rmadim nomard! Biz har doim ko'rishadigan joydaman. Kel, ikki og'iz





suhbatlashaylik” dedi.

Ochig‘i juda charchagan edim, kayfiyatim ham yo‘q edi. Bir haftadan beri uydan tashqariga bir qadam ham bosmagandim. Soch-soqolim ham o‘tib ketgandi. Shkafdan qora futbolka bilan qora shimimni oldim. Majburan ustimga kiydim. Tashqariga chiqdim. Bu gal kalitni uyda unutib qoldirmadim. Boshida bunga hayron bo‘ldim. Keyin o‘ylab o‘zimdanda g‘azablandim. Unutarmidim uni? “Negadir sumkasida kaliti bordir” deya kalitdan hech xavotirlanmas va uyda unutib qoldirardim. Kelib eshikni ochardi. Keyin birga kechki ovqat tayyorlardik. Go‘yo kichikkina uy tashqaridagi butun olamdan kengdek tuyulardi. Uyning ichi doim may oyidek issiq haroratda edi. Yo‘lakda gilos daraxtlari bor. Shoxidan uzib, uning quloqlariga taqaman. Bolaga aylanamiz. Birgalikda doim bolaga aylanib qolamiz.

Bu gal kalitni unutmagandim. Agar boshqa uy bo‘lganida bu muammo emasdi, lekin bu yerning qadri o‘zgacha. Chunki birga yashaganmiz bu uyda. O‘zimdanda g‘azablanib ketdim. Vulqon meni eshikda kutib oldi. U bu yerning bosh ofitsianti. Har doimgidek samimiy ohangda “Xush kelibsan! Qayerlarda yuribsan, sen nomard?” dedi xuddi Irfon kabi. “Bugun qahvalar meni hisobimdan” deya davom etdi. Kuldim. U bilan suhbatlashishni sog‘inibman. Stolga qaradim. Yeguliklar bilan to‘lib toshgan. Ammo negadir Irfon ko‘rinmasdi. “Irfon qayerda?” dedim, Vulqon esa qo‘limdan tortib, meni eng chekka qatordagi stolga olib bordi. Stolning yoniga yetib kelganimda, birdan dunyo toraydi. To‘satdan barcha buyumlar bir-biri bilan aralashib ketdi. Men boshqa bir hajmga kirgandim. Qisqartirilgan

.....

olti yillik davga...

“Xush kelibsan” dedi, lablari qaltirab sigaret chekar ekan. O‘rnidan turdi. Bag‘riga bosdi. Xuddi ming yildan beri ko‘rmagandek quchdi. Ifori o‘sha-o‘sha edi. Qo‘llarim yelkasiga yugurdi. Sochlari yuzimga tegdi. Quchayotib, “Feruza” dedim pichirlab. Go‘yo u yangi tug‘ilgan-u, ismini men qo‘yayotgandek shivirladim qulog‘iga.

Chuqur nafas oldim. “Feruza” dedim takroran. Ikki martadan keyin yana bir bor... “Feruza...” dedim. “Juda sog‘indim seni.”

U kuldi. “Bu ahvoling nimasi?” dedi, soqollarimga o‘ralgan sochlarini ohista yig‘ishtirayotib. Bir vaqtda o‘tirdik. Yonma-yon emas, bu safar qarama-qarshi. Stolning ustida turgan kuldonga qaradim. Men kelgunimgacha to‘rtta sigaretni chekib tugatibdi. Bir oz oldin ismini tilga olgandim, ammo boshqa nima deyishni bilmay kalovlandim. Xuddi birinchi marta ko‘rishayotgandek, oramizda begonalikka o‘xshash nimadir bor edi. Masalan, yillar... Ko‘zlarining atrofida kichik ajinlar zohir bo‘lgandi. Yanoqlari hanuz gilos kabi... Qip-qizil... Yomg‘ir tegmagan tuproqlardek emas, aksincha, jonli va sho‘x, bolalarcha kulgusi hanuz o‘sha-o‘sha.

Yonimizga Vulqon keldi. “Biror narsa xohlaysizmi?” deb so‘radi. Ikkimiz ham lom-mim demadik. Bizni yolg‘iz qoldir degandek qaradik. U ham “Gaplashib, shu ishni tezroq hal qilinglar” deyotgandek edi. U ham ishonmasdi tugatganimizga. Ammo men kalitni uyda unutib qoldirmagandim. Qo‘limni cho‘ntagimga soldim. Xuddi jinoyatchi politsiya kelguniga qadar qotillik ashyosini




yo'q qilmoqchi bo'lganday, kalitni yerga uloqtirmoqchi edim. Birga sigareta tutatdik. Yanoqlari hanuz gilosdek... Qo'llarimni uzatsam yetadigandek. Cho'ntagimdagi kalit oyog'imga bota boshladi. Gapni cho'zishni sira yoqtirmasdi. "Xo'sh, qanday eplayapsan?" dedi. Tushunmadim degandek yuziga savolomuz qaraganimni sezib, "Kalitni aytyapman" dedi. "Hozir bu yerdan turib, uyga ketsang, ko'chada qolishing aniq. Hoynahoy yana unutmading." Kuldim. Yolg'on gapirsam, sezishi aniq edi. Undan hech narsani yashirib bo'lmasdi, buni bilardim. "Unutmading" dedim. "Na seni va na kalitni unutmading. Turamizmi, endi?" deya g'alati jur'at bilan gapimda davom etdim.

Tutunni puflayotib, yana lablari titradi. U ba'zan ko'zlarini qisib gapirardi. O'sha payti nima deyishini taxmin qilolmasdim. Yana o'sha holatga kirdi. Ko'zlarini qisdi. Sigaretasini kuldonga bosib, "Boshqa payti bo'lganida, kalitni uyda unutmaganing chakki bo'libdi derdim, ammo hozir bu vaziyatdan g'oyat mamnunman. Demak, seni uyda kutib oladigan birov yo'q" dedi.

Shu dam xayolimga Irfon keldi. Agar u hozir shu yerda bo'lganida, quvlarcha kulardi. Birozdan keyin telefonim jiringladi. O'chirib qo'ydim. Kimligiga qiziqishini istadim.





**Boshingdan kechirgan ko'ngilsizliklaring va charchoqlaring bir muncha vaqt o'tgach yo'qoladi. Hatto hamma narsani unutib, hayotingni noldan boshlashing ham mumkin. Ammo birovga qayta ishonish masalasiga kelsak, buning uchun shubhasiz hayotga boshqatdan tug'ilish lozim!**



**Yolg'iz ko'ringanim bilan yolg'iz emasman. Ammo qachonki, birovning qo'lidan tutsam, o'zi bilan yetaklab kelgan bir to'da insonlarning ichida yolg'iz qolaman...**

Qachonki insonning miyasi xotirjam emas ekan, yashayotgan sokin hayoti ham uni bezovta qilishni boshlaydi. Xavotirsiz, oyoqlaringni beparvo uzatib, hech narsani o'ylamay yotganingdagi sukunat boshqacha, ongingda o'nlab narsalar bir-biri bilan urishib, qirpichoq bo'layotganida paydo bo'ladigan sukunat boshqacha. Men birinchi misol qilgan sukunatni hozirgacha sira his qilmadim. Faqat bir taxminim bor. Bilasizmi, ba'zan bilmagan narsangizni orzu qilganingizda, shunday bo'lishi kerak deb o'ylaysiz-ku? Menda ham aynan shunday bo'ladi. Qolaversa, mening xayolimda u joydan bu joyga ko'chib yuradigan qaldirg'ochlar qanotlarining tovushlari yangraydi. Ular qanchalik ozod bo'lmasin, ularning aksi o'laroq men asirman. Aniq bir narsaga emas. Masalan, hech kimni qiziqtirmaydigan kichik tafsilotlarga, yerga tashlangan nonlarga, metroga chiqayotib insonlarning bir-birini turtib o'tishlariga. Bular o'zgarib turadi. U men yashagan, yashamagan va yuz o'giran hamma narsalar to'g'risida gaplashish uchun yolg'iz qolishimni kutadi.

Ustiga ustak bunday vaziyatlarda insonning tiliga egalik qilishi yoki qo'llari bilan quloqlarini berkitishi ham biror ishga yaramaydi. Chunki yuz berayotgan hamma narsa o'z ichingda sodir bo'ladi. Menda bepayon kenglikda yolg'iz yurish hissi bor, lekin ovozlar meni tark etmaydi.





Bir muddat o'tgach, chorasiz yengilaman ovozlarga. "Qani, gapiring" deyman ichimdagi ovozlarga va ular ham jim bo'lishni bilishmaydi. Men hali o'tib ketmagan o'tmish davri bilan yashayman. Hamma narsa go'sht va suyakka aylanadi. Yuz yillardan beri ichimga ko'milgan o'liklar uyg'onib, men bilan gaplashadi. Men kenglikda yurishni to'xtatib, turgan joyimga yotaman. Yo'qotish shunday narsa ekanligini bilaman. Ammo kurashishni istamayman. Shu sababdan shunday yo'l tutyapman. Va ichimdagi bir ovoz "Menga o'xshaganlar ketish uchun kelmaydi, nega unga buni tushuntirmading?" degan savolni har kuni to'xtamasdan beradi. Ichimda go'yo eski shkaf gapirayotgandek tuyuladi. U allaqachon o'zining ulug'vor davrlarini ortda qoldirganini hatto o'zi ham bilmaydi. Men shundayman, ichimdan go'yo chirigangga o'xshash hid taraladi. Yolg'izman... Haqiqatdan ham nega unga "Menga o'xshaganlar ketish uchun kelmaydi" demagan ekanman. Yo menda qolishidan qo'rqqanmidim? Agar menda qolsa, nima bo'lardi? Bir muddat o'tgach, men qolib, u ketarmidi? Qaydam... Buni sinab ko'rmadim. Eshikni och, seni bag'rimga bosgim kelyapti, deyolmadim. Shunchaki kutdim uyining yonida. Ko'cha chirog'ining sariq nuri bilan o'ynashdim. Ko'chaga qaragan oshxonada derazasidan, oshxonaga kirib chiqishini kuzatdim. Oshxonada nima qilayotgandi? Ovqat tayyorlayotganmidi? Yoniga borsam, menga ham suzib berarmidi? Bag'rimga bossamchi... Chunki buni juda yoqtiraman. Quchishni... Shu yo'sinda taslim bo'lishni. Biroq yoniga borolmadim.

Berkindim. Zotan o'zimdan boshqa hammadan





berkinishni uddasidan chiqardim. Borligimni his qilishlari go'yo meni o'ldiradiganga o'xshardi. Xo'sh, o'zi men tirikmidim? Qaydam... Balki dunyo bunga tayyor emasdi. Men ham tayyor emasdim. Katta, ammo davri allaqachon o'tgan shkaf men edim. Ichimda ketganlarning unutib qoldirgan buyumlari osig'liq edi. Qo'rqardim. Unga "Menga o'xshaganlar ketish uchun kelmaydi" deb aytolmadim. Kechir, sevgilim... Men borishni bilmas edim...



Samoga boq. Duo qil. Hayotni sev. Qo'shiq kuyla.  
Ulg'ayma (Sira ulg'ayma) Yomg'irda sayr qil.  
Bahorni sev. (Bahorni qattiq sev) Kuz kelganida  
qayg'uga botishdan uyalma. (Bu qayg'uning  
sababini bilasan va hamon seni behad sevaman)  
Yodga ol. (Unutma! Aslo unutma) Nima qilsang  
ham o'zing uchun qil. Jilmay... Tabassum qil...  
Jilmay... (Chunki shu turishda go'zalsan)



**Hech narsa aslida ko'ringani kabi emas. Ammo ko'ringani kabi emasligini ko'radigan odam yo'q.**

Agar vaqtingiz bo'lsa, men orqamga botayotgan narsa nima ekanligi haqida gaplashmoqchiman, demoqchi bo'lib, "Ona, qara, sochlarimda oq ko'payibdi" dedim dabdurustdan va yana jim bo'ldim. Uydan chiqdim. Keyin yog'och stulga suyanib, yon tomonda gapirayotganlarni tingladim. Dardlarimni kamsitishayotgan edi. Kuldim va devorlarimda o'rmalab ketayotgan o'rgimchaklarni biroz bag'ringa bosdim.

Inson yarasidan uyalmaydi.

Inson yarasiga ba'zi paytlar olov bosadi, darrov tuzalmasin deya.

Inson yarasiga Barbra Stresiandning "Woman in Love" kuyini puflaydi.

Gapimni qo'llaringda eritilgan temirning qaynoqligi bor deya boshlashim mumkin yoki agar dunyoda birgina gilos donasi qolsa, ont ichaman uni senga berardim deb aytishim mumkin. Sen uchun qaysi biri chin dildan bo'lardi? Mendan so'raydigan bo'lsang, (aniq so'raysan, koshki so'ramasang va gapirmasimdan tushunsang meni) qara, men ayrim narsalarga iqror bo'lolmaydigan darajada to'lganman, meni tushunyapsanmi?

Aslida, har ikki jumla ham bir ma'noni bildiradi. Agar dunyoga qayta keladigan bo'lsam, bir chetga chiqib, shunchaki "Men janjal qilishni istamayman" derdim. To'xta, bir soniya. Yana shuni ham aytib o'tay, istasang? Sen menga qaraganingda, go'yo yuragimdan ulkan yuk mashinalari





yurib o'tgandek bo'ladi. Balki xuddi shu singari yana bir qancha sevgi e'tiroflari bordir, biroq hamma masala bunga ishonib, ishonmaslikda deb o'ylayman. Masalan, kimdir burningdagi qora nuqtani siqib qo'ysa, seni yoqtirishi mumkindir. Qara, men yana to'lib qolyapman bir narsalarni tan ololmaydigan darajada.

Birgalikda yig'laymizmi? Chuqur g'azabni chiqarib tashlashning vaqti kelgan ko'rinadi. Yana mag'lub bo'lmaslik uchun inson boshdan kechirganlarini unutmaydi va shuning uchun yarasini tirik saqlaydi. Bu sog'inch yoki pushaymonlik tuyg'usi emas. Chunki qasos, yolg'izlik tirmoq uchlarimgacha singib ketgan va ko'zlarimdan yuz ming marta o'z jonimga qasd qilishga urinib, shuncha bor voz kechganim miltillab turadi. Har doim takrorlanib turadigan bu surunkali og'riq menda boshlanganidan beri orqamga botayotgan narsa nima ekanligi haqida gapirmoqchi bo'laman va agar vaqtingiz bo'lsa, deb boshlayman-u qolganiga jim bo'laman, hatto onamning qarshisida ham... Hozir dunyoda birgina gilos donasi qolsa, ont ichaman uni senga berardim deb boshlasam, anglarmikansan meni? Agar bu yetmasa, shuni ham ilova qilishim mumkin: "Sen menga qaraganingda, go'yo yuragimdan ulkan yuk mashinalari yurib o'tgandek bo'ladi. Xuddi shu singari yana bir qancha sevgi e'tiroflari bordir, biroq hamma masala bunga ishonish-ishonmaslikda deb o'ylayman... Qara, men yana to'lib qolayapman, bir narsalarga iqror bo'lolmaydigan darajada..."





**“Nega bunchalik oson voz kechasan va darrov hamma narsadan sovuysan” deganlarga, juda horg'in ekanligimni tushuntirgandim. Savol ham, javob ham sira o'zgarmadi.**

Inson hamma narsadan butunlay qutula olmaydi. Men na to'liq g'azabda, na quvonchda, na qayg'uda va na bo'shliqdaman, deb ayta olmayman. Chunki qanchalik kech bo'lmasin uxlayman. Balki bir soatdir, ikki soatdir yoki undan ham ko'proq... Natijada baribir uxlayman. Bu unutishning yo'li xolos. Ongimning biroz tinchlanish fursati. Yoki yaqinlashib kelayotgan elektr energiyasi uchun to'lovni, telefon to'lovini, bilmadim yana bir qancha to'lovlar haqida o'ylashim aniq. U holda bu nima? Hamma narsada mavjud bo'lgan-u, menda sira bo'lmagan bu narsa nima? Yoki nima ekanligini bilib turib, o'zimni bilmaydigandek tutaman va uni izlayotgandek ko'rsataman. Masalan, bu xuddi televizor pultidek, tugmani bosishim bilan, meni hamma narsadan chalg'itadigan soxta narsa. Yoki aksincha, barcha haqiqatlarni shafqatsizlarcha yuzimga soladigan qop-qora narsa. Bu juda aniq. Shubha uyg'otmaydigan, “Kimga nima haqida gapirayotgan bo'lsang, bu o'zing haqingda!” deydigan kuchli bir narsa..

Bu yuzlashishning turi. Bu bir kun davomida sodir bo'lishi mumkin. Balki bir soat yoki bir lahza... To'g'ri, bir on ham yetishi mumkin bu yuzlashmoq uchun. U meni istagan joyiga olib ketsin, faqat hamma narsa qop-qora tusda bo'lsin. Oppoq emas. Imkon qadar axloqsizlikni yashirsin. Chunki haqiqatlar juda bezovta qilishi

.....





mumkinligini ko'rdim. Men buni eng ko'p hatto lablarimni ham qimirlatolmay qolganimda boshdan kechirdim. Aynan o'sha damda jim bo'lmoq haqiqatni yashirishdan o'zga narsa emas. Bir oz iqror bo'lishim kerak bo'lganda va bu menga shifo bo'lishini bilganimda jim bo'ldim. Chunki shifo topmoq bir narsalarni butunlay yo'qotishning ma'nosini anglatadi. Og'riqni so'nggi zarrasigacha totmoq va qo'lni chorasizlarcha devorga suyangancha yo'lda davom etmoq, hech kimga turtilmay, insonlarning yonidan o'tar ekan, ko'rishni juda istagan kishisini ko'rish ehtimoli bilan hadik-la atrofni kuzatmoq... Bu asta-sekin ichdan chirish kabi bir narsa. Tashqaridan soppa-sog'lom ko'rinib, ichingda dardlarni ko'tarib yurmoq va bularni doimiy his qilmoq... Ya'ni insonning dardiga kim sabab bo'lganini bilmasdan ham dardini sevishi. Hamma narsadan oz-oz mavjud ekan, aslida u eng ko'p istagan narsasining endi umuman mavjud bo'lmasligi... Xotiralarni yo'qotishdan qo'rqish. Chunki xotiralar yig'ilib o'tmishga aylanadi. Ba'zan inson dardning qo'lidan tutishni istaydi. Ko'zlariga boqib to'yib-to'yib yig'lashni istaydi. Burishib yonida uxlashni, barcha chiroqlarni o'chirib, mudhish bir sukunat bilan qorishishni istaydi. Zulmat kabi bir his bu. Suv bo'yiga kelib, timsohlardan qo'rqqancha suv ichgan bir jayroning, o'lim bilan suvsizlik orasida qilgan tanlovida suvsizlikning og'ir bosishi va o'layotib ham "bunga arziydi" deganicha suvni ichishga urinishi kabi, butun suyaklari uvalanib ketar ekan, timsohning tishlari orasida ezilib yo'q bo'lar ekan, g'alati bir baxtiyorlikni butun hujayralari bilan his qilishi kabi.

Yoki aksincha, yashash uchun o'limga xavf soladigan





darajada hayotni sevmog va quchoq ochmog, taslim bo'lmog va bunga arziydi, deb hatto timsohning tishlari orasida qolmog kabi... Bu yuzlashishning bir turi hisoblanadi. Ya'ni zulmat kabi bir his bu. Juda aniq. Ichingda kichik bir shubha uyg'otmaydigan bir haqiqat. Masalan, men yolg'izman. Chunki ba'zi narsalarni mardlarcha qo'ldan boy berdim deya bilmog kabi. Yig'ilib, xotiralarga aylangan o'tmishini o'zi bilan olib ketmog kabi...



**Biz jimmiz. Chunki na so'zimizga, na qalbimizga  
istak bildirilmadi...**

Qachonki o'zimni bir gumbazning ichida his qilsam, qattiq sevgan insonlarimni yoki ular bilan o'tkazgan vaqtlarim haqida o'ylayman. Avvaliga bu menga ijobiy ta'sir qilardi. Masalan, bolaligimda ikki singlim bilan qo'rqinchli film tomosha qilganimizdan keyin, endi chiroqni kim o'chiradi deya janjallashishimiz yodimga tushadi. Chunki bolaligimizda qo'rqinchli filmni qorong'u xonada tomosha qilish u qadar oson ish emasdi, shu boisdan, tabiiyki, chiroqlar yoqilgan bo'lardi. Va nihoyat film tugaganidan keyin kimdir chiroqni o'chirishi lozim edi va bu yumush menga topshirilardi. Men ham yigitlik nomimga dog' tushirmasdan, majbur tarzda yugurib borib, chiroqlarni o'chirar va yana yugurgancha karavotimga ikki metr naridan sakrab, ko'rpamning tagiga yashirinardim. O'zimni go'yo qotil uyimizning ichidayu, navbatdagi qurboni mendek his qilardim. Agar ko'rpamning ostiga yashirinsam, qo'li qonga belangan qotil Freddy Krueger meni topolmasdi. Qanchalik ahmoqona bo'lmasin, ayrim narsalar insonga ishonch tuyg'usini beradi. Bu xuddi agar yakkama-yakka jang qilsang, og'zing bilan burningni joyini o'zgartirib qo'yadigan mushtumzo'r oldida yoningdagi do'stlaringga ishonib kerilish kabi... Ishonch tuyg'usi.. Ammo bu xayollar ham tezda o'tib ketadi.

O'zi sevgan narsalarni eslash ham insonni ma'lum nuqtagacha boshqaradi. Yaxshi kunlar haqida o'ylaganimdan keyin hozirgi zamonga va makonga qaytishim uchun uzoq




vaqt talab qilinmaydi. Ularning ba'zilar baribir biron joyda uzoq qololmaydi. Bu hattoki sizning o'tmishingiz bo'lsa ham. O'zingiz bilasiz, yo'qotilgan yoki qayta sodir bo'lishi mumkin bo'lmagan narsalarga yetkazilgan zararning og'rig'i chekiladigan turdan emas. Hattoki kun kelib, hech qachon boshdan kechirmagan bo'lishni xohlashingiz mumkin. Aynan shunday kuchli og'riq beradi. Endi ulg'aydik, singillarim boshqa uylarda. Ora-sira o'sha kunlarni yodga olamiz va kulib qo'yamiz xolos. Bor-yo'g'i shu. Hamma narsa o'zgardi. Biz vahima bilan tomosha qilgan filmlar ham endi yo'q. Qolaversa, filmlarda qo'rqadigan narsaning o'zi yo'q. Qotil o'ldiradi, chunki uning ishi shu. Shuningdek, filmdagi asosiy qizni qutqarish uchun qotilni o'ldiradigan oddiy bir qahramon ham bor, bu odatda shunday bo'ladi. Go'yo "yomonlar yutqazadi" degan fikrni bermoqchi bo'lishadi. Ammo hayotda unday emas. Yomonlar yutqazishsa-da, ularning bizdan tortib olgan ko'p narsasi bo'ladi. Ustiga-ustak har doim ham oddiy bo'lsa-da, bizni qutqaradigan qahramon bilan to'qnashavermaymiz. Nima qilsangiz ham, o'zingiz amalga oshirishga majbursiz. Chiroqni o'chirish masalasiga kelsak, bu vaziyat men uchun haliyam davom etmoqda. Chunki inson yashagan sari anglaydi-ki, qo'rqish kerak bo'lgan qotillar filmlarda emas, u insonning yo'chida ekan yoki ichiga keyinroq dahl qiladigan biri ekan. Va bu qotildan ko'rpaning tagiga kirib yashirinib bo'lmaydi. Joyingni biladi va qayerdan yaralashni ham yaxshi biladi. Yana bir gumbazning ichidaman, boradigan joyim yo'q, bu safar hatto ketishni istaydigan joyim ham yo'q. Iltasangiz, yigitlik nomiga dog' deb hisoblang buni. Ammo





o'tinaman, kimdir kelib ichimning chirog'ini o'chirib ketsin.  
Butun borimni mahv qilgan bu odamlar bilan ortiq ko'z-  
ko'zga tushishini istamayman.




**Hozir seni  
sevmayman,  
deyolmayman.  
Ammo ichimda  
huv o'sha  
avvalgidek sevinch  
yo'q. Qanday  
qilib, sezmasdan  
halokatli oqibatga  
duchor bo'ldik? Bu  
hammasidan ko'ra  
yomonroq emasmi?**



**Bir-birimizdan juda olisdamiz. Ovozim shu boisdan bulutli, umidim shu sababdan tugadi. O'tinaman, sevgilim, unutaylik...**

Shaharning tepa qismi osmonda muallaq turgan olovli dengiz bilan qoplangandek edi va olov dengizidagi ba'zi chiroqlar jahannamdan qutulish uchun sassiz qichqiriqlar bilan miltillab turardi. Menimcha, o'chganidan keyin qaytadan yonmaydigan chiroqlar hamma narsani hisobga olib o'limiga rozi bo'lgan chiroqlar edi, deb o'yvardim. Bir gala chiroqlarning ichida go'yo asirdek yashashdan bosh tortadigan ayrim chiroqlarning ajoyib namoyishi menga yoqardi. Ularning o'z xohish-irodalaridan shu tarzda foydalanishlari meni hayratga solgandi. O'lgan uylar, o'lgan uylarning ichidagi o'lgan karavatlar, o'lgan oshxonalar, o'lgan umidlar, o'lgan tovushlar, mehmonxonalar, o'lgan likopchalar, o'lgan kreslolar, o'lgan yostiq jildlari va yana kim biladi, bir qanchasi? Qanday ajoyib usul edi bu. Aslida, men ham xuddi ular singari yo'l tutishim mumkin edi. Mashinamning rulini tezlik bilan chap tomonga buraman va to'siqlarga tekkancha ag'darilaman. Hammasi shu yerda yakunlanadi. Xuddi o'sha chiroqlar kabi o'z o'limimni o'z xohish-irodamdan kelib chiqib amalga oshiraman, keyin esa qilgan ishimdan zarracha ham afsuslanmay, o'sha yerda yo'qolardim. Lekin yonimdagi ayol-chi? U ham shuni istarmidi? Uni ham o'ldirishga haqqim bormidi? Xo'sh, biz o'zi tirik deb hisoblanarmidik?

Bir og'iz ham gaplashmay asta-sekin yaqinlashgan dengizimizni ikkimiz ham tomosha qila boshladik.





Anqaraga yetish uchun yana yigirma kilometr qolgandi. Bir-birimizga oxirgi imkoniyatni berish uchun chiqqan bu ta'tilimiz ham biror ishga yaramagan, aksincha, hamma narsa avvalgidan ham yomonroq tus olgandi. Hatto mashinaning bagajida turgan ikki chamadonchalik ham bir-birimizga yaqin emasdik. Men mashinani boshqarish majburiyati bilan old oynadan olovli dengizga vertikal nuqtai nazar bilan qarardim, u ham men kabi old oynadan men qaragan tomonga qarayotgandek turardi. Ehtimol bir xil narsalar to'g'risida o'ylayotgan edik, balki ikkimiz ham boshqa boshqa xayollar ummonining ichida edik. O'sha paytda buni aniq bilib bo'lmasdi. Zotan biz uzoq vaqt davomida nonushta stolimizda bo'lishini istagan zaytunning qaysi turini tanlashni ham kelisha olmadik. Har mavzuda shu qadar begonaga aylangan edikki bir-birimizga, bir to'shakda yotib turishimizni hisobga olmasa, hatto tovushlarimiz ham bir-biriga urilmay, bir xonadan boshqa xonaga o'tardi. Agar biron bir gap aytiladigan bo'lsa, men uni orqasidan gapirib qolardim, u ham yurib ketayotgan yerida to'xtamay menga javob qaytarardi. Biz har doim o'zimizning bo'shlig'imizni qo'llab, biz tushgan, ammo undan xalos bo'la olmayotgan bu narsa nima degan savoldan charchagandik. Biroq buning surunkali tus olishi ham mumkin emasdi. Bir kuni ertalab, eshitadiganlarimdan hadiksiragan holda bor jasoratimni to'pladim va ko'zlarining ich-ichiga boqqancha, "Bizga nima bo'ldi?" deb so'radim.

Ovozimdagi hadik bilinmasin deb, o'ta qat'iy va shu bilan birgalikda to'satdan birinchi qadamni qo'ygandim. O'ylashimcha, u ham buni payqagandi. Oldin sukut







saqladi. Keyin yana biroz sukut saqladi. Vujudi dag'-dag' titrayotganini ko'rdim. Juda asabiy edi. Peshonasiga tushgan sochlarini barmoqlarining uchlari bilan har soniyada to'g'irlab turardi. Moviy ko'zlarining ustiga go'yo ulkan binolarning soyasi tushgandek edi va nigohlarida nur degan narsadan asar ham yo'q edi. U sanchqini bir xil zaytun ichiga kamida o'n marta sanchgan bo'lsa ham, eplab likopchadan ololmagan va zaytunni xuddi bir mahkum kabi o'lim jazosidan ozod qilib, sanchqisini ham jang oxirida yengilgan bir askarning qurolini umidsizlarcha tushirib, dushmaniga taslim bo'lishi kabi voz kechgan bir suratda stolga qo'yishi bilan gapirish ohangi bir bo'ldi. Nihoyat u ham mening ko'zlarimga boqib, ishonchsiz ovoz ohangi bilan "Bilmayman" dedi. Go'yo dunyoda biladigan so'zi faqat shu kabi. Bilmasligini bilmoq... Aytildigan boshqa so'z yo'qdek. Ammo bu mavzuda u xolis edi. Chindan ham bilmasdi. Biroz sukutdan keyin go'yo bilmagan narsasini mustahkamlamoqchi bo'lgandek gapirishda davom etdi: "Haqiqatan ham bilmayman! Senga nima uchun teginolmayotganimni, nima sababdan sen bilan gaplasholmayotganimni, menga nima uchun teginolmayotganingni, nima sababdan men bilan gaplasholmayotganingni chindan ham bilmayman! Bir oz oldin so'ragan savolingning javobi menda yo'q! Senda ham yo'qligini bilaman..."

O'tirgan stulidan turib, sochlarini to'zg'itayotgan va bundan tashqari, derazani g'azab bilan urayotgan shamolni ichkariga kiritmaslik uchun derazani yopishga borganida u yurgan ikki metrlik masofadan qanday yurganini





kuzatdim. Hatto shuni ham unutgandim. Uning qayerda bo'lmasin oyoq uchida yurishi menga har doim muz ustida sirpanib ketayotgan bir qush patini eslatardi. Shu qadar nafis ediki... Yana o'sha hisni tuydim. Uning yurishini boshqa narsalarga ham qiyoslardim: uning oyoqlari porloq toshlar orasidan oqayotgan zilol suvga o'xshardi. Ba'zan esa bir go'dakning ilk kulgusi kabi edi. Huzur to'la... U odatda oyoq barmoqlariga qo'yadigan qizil lakning rangi, shaharning barcha yo'llarida bir vaqtning o'zida barcha avtomobillarni va hatto barcha tirik mavjudotlarni to'xtatib turadigan svetofor chirog'i edi. Buni ko'rish men uchun hayotning to'xtaganligini anglatardi. Va u o'rnidan turarkan, ustidagi oppoq xalati shamolning so'nggi zarbasi bilan yechib olinganida, ochilgan tizzalariga qarab, yana unga anchadan beri teginishga botinolmaganimni o'yladim, lekin uning o'zi ham ta'kidlaganidek, bu safar ham unga nima uchun teginolmaganimning sababini topolmadim. Shunchaki uning ta'rifga sig'mas yurishini tomosha qilish bilan kifoyaladim. O'ylashimcha, bu soniyaning o'ndan biri edi. Ehtimol undan ham qisqa bir fursat... Biroq men boshqa bir ish qilishim kerakligini bilardim. Va joyimdan turdim va bir paytlar turishidan, gapirishidan, kulishidan, yig'lashidan, qiziq-qiziq savollar berishidan hamda soatlab, to'xtamay gapirishini tinglashdan hayajon tuygan ayolimning yoniga borib, orqasidan quchdim. Qanday qilib bu qadar jur'at to'plaganimga o'zim ham tushunmagandim. Bu ikkimiz uchun ham ulkan olovni yuzga keltiradigan kichik bir uchqun bo'lishi mumkin edi. Shuni xohlayotgandim. Yana uning taftini his qilmoq muhtasham bir tuyg'u edi.

.....

Bu o'tib ketmasligi va shunday qolishi kerak edi...

Sabablari to'g'risida o'ylamadim. Bu unga bo'lgan kuchli istak yoki haqiqiy rahmdillik tuyg'usimidi?

Bularning sira ahamiyati yo'q edi. O'sha onda amalga oshirishni istagan narsam uni quchish edi va men buni qildim. Aniqrog'i, ichimdagi o'sha past ovoz menga buni qilishni buyurdi. Aslida, ichimdan kelayotgan o'sha past ovoz derazani yopish uchun ketganining asl sababi menga ko'rsatmay, bermalol yig'lab olish ekanligini ham menga aytgandi. Buni bilgan holda yoniga borgandim. Bu qo'rqinchli hodisa edi. Oshxona bir nafasda qorong'u bir chuqurga aylangan edi.

Biz chiqqan ta'tilga ham o'sha kuni qaror qilgandik. Bu oxirgi imkoniyatimiz edi. Yo hamma narsa butunlay nihoyasiga yetardi yoki tugatgan hamma narsamizni bir chetga surib, barchasini yangidan boshlardik. Bu bir ehtimoldan yiroq bo'lsa ham ishonishga harakat qilardik va hattoki oldinga yurib, ikkimiz ham o'zimizni ishonchimiz komildek tutardik. Ishonchlidek ko'rinib, ishonarsiz tabassumlar, ovozlarimiz bir-birini quchgandek ko'rinib, aslida, bir-biriga hatto yaqin yo'lamasligi.. Bu yuzaki xushmuomalalik hamda yaqinliklar bilan o'tgan bir qancha kun, yo'lga chiqishimiz uchun hozirlik ko'rishni boshlagunimizgacha davom etdi. Ko'r-ko'rona o'yinlar o'ynayotgan edik. Biroq har bir o'yin kabi ushbu o'yinlar ham tugashi shart edi. O'yinlarimiz tugashi bilan biz yangi bir o'yinni boshlar edik. Barcha o'yinlarning asosiy sharti yaxshi ko'rinishga ega bo'lish edi. Baxtli kabi kulish, baxtli kabi gapirish, baxtli kabi yurish, baxtli kabi quchib, baxtli kabi teginish, baxtli kabi taomlar



tayyorlash, baxtli kir kiyimlar, baxtli pishloqlar, baxtli bo'salar, baxtli yaqinliklar, baxtli pardalar, uydan chiqib ketayotganda kalitni yonimizga olishni unutib, qaytib kelganimizda eshik qo'ng'irog'ini bosganicha eshik ortidan ko'ringan baxtli uzun soqolli bir erkak yoki umuman bo'yanmagan baxtli ayolni topish o'yini. Kel, mushuk boqib olamiz, bu holatimizga ijobiy ta'sir qiladi, degan suhbatlarning bizga beradigan baxtiyorlik tuyg'usi, baqqoldan so'nggi qolgan nonni sotib olganimizda omadning bizga qaytib kelganiga bo'lgan ishonchning beradigan baxtiyorlik tuyg'usi, g'amgin zaytunlarga bir hamlada sanchqini sanchishning beradigan baxtiyorlik tuyg'usi, bargidan yetishtirgan binafshamiz gullaganida beradigan baxtiyorlik tuyg'usi, azaldan sevib ko'rgan filmlarimizni takroran tomosha qilishning beradigan baxtiyorlik tuyg'usi, baxtsizlikdan olayotgan baxtimiz, bizdan boshqalarning ham baxtsiz ekanliklarini ko'rganimizda ularning baxtsizliklarining bizga bergan baxtiyorlik tuyg'ulari... Ammo oramizda turgan va biz bir-birimizdan astoydil yashirgan bu og'riqqa o'xshash narsa bizdan sira tarqab ketmayotgan edi. Ha, buni aynan og'riqqa o'xshagan narsa deya olaman. Ba'zi vaqtlar og'riq qadar kuchsiz, ba'zi vaqtlar og'riq qadar kuchli yoki ba'zi paytlar og'riqni tinchlantirish uchun paydo bo'lgan sariq sochli va moviy ko'zli, do'mboq qo'lchali bir qizaloqqa aylangan bu narsa ham og'riq bo'lishi mumkin edi. Agar yanayam ochiqroq gapiradigan bo'lsam, bu juda qisqa vaqtdan keyin yo'qotishni boshdan kechirish ehtimolining bergan qo'rquvining keskinlashgan holati edi. Buning bir qancha ismi va bir qancha qiyosi bo'lishi mumkin. Lekin

.....



endi buning nima farqi bor?

Ta'til uchun (hammasini qaytadan boshlash uchun) ilk bor tanishgan shahrimizga ketdik. O'sha vaqtlari u universitetning oxirgi bosqich talabasi edi. Men ham ish yuzasidan tez-tez Istanbulga qatnardim. Katta shaharda boshqa-boshqa shaharlardan kelgan ikki insonning ayni paytda ayni joyda bo'lishiga tasodif deyish qiyin, albatta. Bizni bir narsa o'sha yerga tortgandi. Go'yo bir-birimizni kutayotgan edik. Ilk tanishgan vaqtlarimiz ikkimiz ham gapga chechan insonlardan emasdik.

Bu kamchiligimizni bildirmaslik uchun ko'rgan hamma narsamni suratga olar va rasmlarga qisqa jumlar yozardim. U ham bir binoning o'n sakkizinchi qavatidagi balkonning temirini bir qo'li bilan tutgancha, har lahza o'zini pasta tashlab yuboradigandek va hamma narsani boshdan kechirgan (voz kechishni, sevishni, o'lishni) bir ayolning "Kim nima desa ham, ahamiyati yo'q" holati bilan gitara chalib, qo'shiq kuylardi. Biz keyinchalik bir-birimizga ko'nikib bordik. Olgan suratlarim va yozgan jumlarim uning kuylari bilan birlashdi. O'qishini tugatishi bilanoq turmush qurdik. Ayni dam yagona istagimiz o'sha vaqtlarga qaytish edi. O'sha joylarga bordik. Istanbulda yashaydigan do'stlarimiz bilan ko'rishdik. Buyuk Adada<sup>1</sup> qolishga qaror qildik. O'zimizga qadrdon bo'lgan mehmonxonaning qabulxonasida ishlovchi qadrdonimiz bilan o'tgan kunlarni xotirladik. U keksa bir odam edi. Bir necha kun oldin uchinchi nabirasi dunyoga kelibdi, bizga shuni aytib berdi. Ismini Umar qo'yishibdi. Zamona davrida tug'ilayotgan

1 Buyuk Ada - Istanbuldagi shahar



bolalarga qo'yilayotgan zamonaviy ismlar kabi o'zgacha ism tanlashmabdi. Umar harbiy xizmatda tanishgan eng yaqin do'stining ismi ekan. Birgalikda kichik Umarga uzoq umr va baxtli hayot tiladik. Biroz kulishdik. Oradan kunlar o'tdi. Yana o'rtamizga sukunat kira boshladi. Yotoqning bir chetida u, bir chetida men yotishni boshladik. Anqarada yuz bergan yaqinlashishimizdan asar ham qolmadi. Go'yo bu narsa imkonsiz narsadek edi. Qancha harakatlarimiz samarasiz ketayotgan edi. O'ylashimcha, ba'zi narsalarning tugashi uchun biron bir sababga hojat yo'q edi. Bu ingichka bir chiziq edi xolos. Go'yo umidsizlik kabi, ammo bu butunlay umidsizlik ham hisoblanmasdi. Va umidsizlik bilan vahima tuyg'usi bir-biriga o'xshar ekan. G'alati tomoni shundaki, ikkisi birlashganida umuman boshqa bir tuyg'u hosil bo'lardi. Bu holatimizga ikkimiz ham hayratda edik. Bunday holga tushmasligimiz lozim edi va shunday vaziyatda ekanligimiz uchun ham o'zimizdan ham bir-birimizdan nafratlanayotgan edik.

Anqaraga qaytadigan oxirgi kunimizning ertalabki nonushta dasturxonida yana bir-birimizning yuzimizga ham qaramadik. Bu gal zaytunlar horg'in emasdi. Ikkimiz ham sanchqi bilan birortasini ham tutolmadik. Chamadonlar yig'ishtirildi. Ta'tilni boshlagan vaqtimizga qaraganda, chamadonlarda ham o'zimizda ham juda ko'p narsalar bor edi. Xuddi jasad solingan sumkani sudrab ketayotgandek mehmonxonadan chiqdik. Qabulxonadagi keksa amaki bizning boshqa kelmasligimizni tushundi, lekin u biz bilan xayrlashmadi. Kema bilan Beshiktoshga o'tib, biz mashinani qo'ygan avtoturargohga bordik. Ko'prikdan o'tayotganda,

.....



yaxshi, yomon, chiroyli va xunuk, boshdan kechirgan va kechirmagan nima bo'lsa, orqamizda qoldirdik.

Anqaraga yetishimizga o'n kilometr qolgandi. Uyqusizlikdan ko'zlarim yumilib ketayotgan edi. Men yana yoqimli baxtsiz hodisa yuz berish ehtimoli haqida o'yladim. Chap tomondan shiddatla yugurib o'tayotgan to'siqlarga e'tibor qaratdim. Aslida, ular harakat qilmayotgan edi, aksincha, biz bor tezligimiz bilan o'z nihoyamizga qarab ketayotgan edik. Yumilib ketayotgan ko'zlarimga qaramay, yo'lni mo'ljallashga urindim. Ikki yo'lning o'rtasidan haydab ketayotgandim. Shaharning ko'ki bo'lmish osmondagi chiroqlar shaharga yaqinlashganimiz sari kattalashdi, yiriklashdi va xuddi bizni yutib yuboradigandek edi. Qaytib sira yonmaydigan va endi-endi yonishni boshlagan chiroqlar ko'zga tushishni boshlagandi. Keyin olovli dengizda to'lqinlar mavj urayotganini ko'rdim. Unga qarab, "Umid qilamanki, bir kuni ertalab uyg'onganimizda qilgan ishimiz uchun afsuslanmaymiz" dedim. U yana jim edi. Ehtimol sukutining boisi pushaymonligidir? Uyga keldik. Chiroqlarni yoqdik. Chamadonimni yotoqxonaga olib chiqmay, eshikning ortida qoldirdim. Chunki kiyimlarimni shkafga taxlashning ma'nosi yo'q edi. Qaytib sira yonmaydigan va o'lgan chiroqlardan biri biz bo'lgandik...

**Tugasin! Tugashi kerak bo'lgan hamma narsa  
vaqtida tugasin! Masalan, shu la'nati televizorning  
seriallari, bir mavsumdan ziyod bo'lmasin.**

**Birga bo'ladimi, o'ladimi, baribir, bu zaqqum  
cho'zilmasin.**

**Siyqasi chiqib ketgunigacha davom etib, o'zidan  
jirkantirmasin! Stolga o'tirganingda shishadagi  
narsa tugasin, yarmida turib ketma! Yonimga  
kelganingdan keyin boshqa joyga ketma!**

**Yo'qsa yo'llar boshlanmay turib tugasin! Sen  
yonimdaligingda umrim tugasin, biz bilan kimning  
ishi bor? Sen ham sezding, to'g'rimi? Vaqt  
qanchalar tez o'tyapti va uni to'xtatib turadigan  
biror tugma yo'q. Yo bo'lmasa kel, tomog'imiz  
yirtilgunicha birgalikda baqiramiz, tugasin bu  
sukunat! Ovozimizni eshitishadi deya qo'rqma.**

**Men ovozingning bir zarrasini ham ichimdan  
tashqariga chiqarmoqchi emasman.**

**Koshki bilsayding... Qo'yaver... Ketaylik bu  
yerdan? Sen yo'qligingda tugamagan hamma narsa  
tugasin bir nafasda! Atigi bir kun,**

**bu la'nati yigirma to'rt soat sen menga  
nimalarnidir aytib berayotganingda tugasin!**

**Shu yetadi... Shu qadari yetarli...**

**Shunchasi yetdi...**



**Ba'zilarning "keyin"i mavjud emas va  
"avval"i ham boshqa birovga tegishli.**

Sen hamma narsani shu qadar chiroyli sevar edingki... Masalan, ijro qilgan odamning o'zi ham allaqachon unutib yuborgan bir kuyni toparding va "Qara, bu kuydan voz kechishibdi, sho'rlik yolg'iz qolibdi. Hozir birov eslolmaydi ham. Juda achinarli to'g'rimi? Ammo qo'yaver, yoqimli yoki yoqimsiz ekanligini. Kel, birgalikda bu kuyning yolg'izligini sevamiz" derding va men ham go'yo o'zimni bunga majbur his qilgandek, sen bilan birga sevar edim o'sha kuyni. Chunki bilardim, sen hamma narsani juda chiroyli sevarding... Mendan tashqari! Ehtimol, buni sinab ko'rgandirsan... Lekin chindan ham sinab ko'rganingda, sen ham jozibangni yo'qotarding. Nimagaki, "Vaqt o'tgan sari inson sevgan narsasiga o'xshab boradi" deyishadi. Sen hamon go'zal eding. Meningdek ko'rimsiz bo'lolmasding, sira o'xshamasding menga. Chindan ham... Sen va men... Va yana o'rtamizda o'zimiz sindirgan oynalar ham bor. Bo'laklarga bo'lingan oynalar seni, meni, hammamizni ko'paytirib ko'rsatadi, ammo ovozlarni ko'paytirolmas ekan. Meni tushunayapsanmi?

...  
Meni "sevgilim" deb chaqir. Chunki sen sevgilim desang, tirnoqlarim moviy rangga bo'yaladi. Hammasi shu darajada... Juda go'zal... Biroq... Men ham yolg'iz edim. Sendan avval ham, sen bilan birgalikda ham yolg'iz edim. Bilasanmi, chunki sevilishini kutish insonni yolg'izlikka yetaklaydi.



Va inson kutayotganida vaqt har doimgi vaqtdan ko'ra ikki yoki uch baravar uzundek tuyuladi. Bir yilning menda uch yil kabi o'tganidan bilaman buni. Chunki nimani kutayotganingni bilmay, ongsiz ravishda kutmoq — insonni ichdan yemiradi... Ichdan yemiradi... Bularga ahamiyat berma. Sigaretim tugayapti. Ichdan yemirayapti... Ichdan... Sigaretam... Murathonni chaqiramizmi? Yolg'iz bir operani kuylab bersin bizga. Ketdingmi?

## 2

“Boshqalardan farqli o'laroq baxtiyorlikni suymayman. Gapimga e'tibor berma, aslida, baxt hissini sevmalik mumkin emas, lekin men uchun asl masala yashayotgan va ko'rayotgan kunlarimizda haqiqiy baxtiyorlikning yo'qligi. Hammasi tugagach, qozonning pastki qismini kavlayotganda taomning yuqi bilan qo'shib chiqadigan kuygan qoldiq kabi bir ta'm qoladi og'zimizda. Eng tubi yoki eng boshi — Yaratganning zarralari bari... Ehtimol shuning uchun men hamma narsani juda oson sevarman? Chunki hamma narsani juda oson sevmok, aslida, ichingdagi g'azabdan qutulishning eng qulay usuli bo'lishi mumkin emasmi? Ehtimol menga aldanayotgandirsan? Bu qadar xotirjam ko'rinishimga, doim kulishimga, ovozimni sira ko'tarmasligimga... Balki baqirgan paytlarim meni eshitadigan birov bo'lmagandir, shunday bo'lishi mumkin emasmi? Ehtimol dunyoning eng bezovta insoni mendirman? Bir o'ylab ko'r! Biroz tin ol, mening qo'limdan kelmayapti. Hatto nafas yo'llarimda ham zuluklar bordek. Qonimni



ichishyapti, qonimni. Qonimni..." deganding sendan meni sevishingga umid qilayotganimni bilganingda va nafas ham olmay davom etganding gapingda: "Sen omadlisan! Hozirga qadar o'zimni seni sevgandek ko'rsatmaganim uchun chindan ham omading bor! Istasam sen bilan o'yin o'ynashim mumkin.

Aldab,tashlab ketardim. Tushunayapsanmi? Bir kuni menga seni sevmaganim uchun rahmat deysan. Chunki sen men uchun qozonning tagidagi kuygan qoldiq bo'lishing mumkin. Chunki boshqa chorang yo'qdek birovdan seni sevishini kutib yashash ichingdagi dardni ulg'aytiradi. Qo'yaver, sevmaydigan sevmasin seni! Bu hattoki men bo'lsam ham! Zero menda ayrim narsalar nihoyasiga yetgan. Yo men yoki sen ba'zi narsalarning oxiriga to'g'ri keldik." deganding.

Hamma narsani chiroyli sevgan tarzda nega aynan meni... Qaydam. Balki sevgandirsan. Esingdami, o'pishishga berilib, baliqlarni kuydirib yuborganimiz? Buni bu yerda aytmashligim kerak edi. Lablarim uchyapati. Ishonaolasanmi? O'pishganimizni eslashim bilan jag' suyaklarim esnadi. Hatto shu xona ham xuddi kinolardagi kabi birdan kengayib, ustimga yopirilayapti. Agar, yana, shu yerda, istasam... Ahmoqona ish bo'ladimi?

### 3

Meni "sevgilim" deb chaqir. Chunki sen menga sevgilim desang, men o'zimni Titanik borib urilgan o'sha muz qoyasidek kuchli his qilaman! Okeanning o'rtasidagi eng telba to'lqin men bo'laman. Bir kit bilan it baliq





Gollandiyaga borib turmush qurishibdi. Chunki u yerda hamma erkinliklar bor. Nima deysan, biz ham o'sha yerga ketamizmi?

...

So'zlar hech narsani o'zgartirmaydi. Suhbatimiz hanuz menga ishonarli tuyulgani yo'q. Sen hamma narsani shu qadar chiroyli sevardingki... Masalan, boshi berk ko'chaga kirar va devorga suyanib, o'tgan ketganni tomosha qilarding. Chuqur nafas olib, "Ko'ryapsanmi, bu yer gavjum emas va shuning uchun yonimizga birov kelolmaydi.

Nima uchun yolg'iz ekanligimizni endi tushunyapsanmi? Chunki insonlar ham gavjumlikdan shikoyat qilishadi, ham gavjumlikda o'zlarini ishonchliroq his qilishadi. Hatto biz hech qachon zavqlanmasak ham bir kuni ularning ichiga aralashib, g'oyib bo'lamiz deb qo'rqaman" deganingdan keyin jimgina o'yg'a tolib, boshingni ikki qo'lingning orasiga qo'yib, so'ng birdan o'ringdan turarding. Chindan senga tegolmasdim. Bor-yo'g'i o'sha devorchalik omadli bo'lishni istardim. Unga orqangni suyaganing uchun... Bir sigareta tutatib, tutunini ichimga yutardim. Ichimda bir o'rmon yonardi. Qiz Qal'asining ichida restoran ochilibdi, ko'rdingmi? Sharob berisharkan u yerda. Qizning otasi allaqachon vafot etgan. Agar qiz sevgilisini qal'aga olib kelsa, bundan hech kimning xabari bo'lmaydi. Yuzimga boqarding. Uzoqdan barmoqlaringni soqollarimga tekkizadigandek o'ynatarding. Chindan ham teginolmasding menga. Bor-yo'g'i "Juda dardlisan, kim seni bu holga soldi?" derding. Hushtak

.....





chalishni boshlarding. Ko'zlarining ichi soat o'n ikkini ko'rsatardi. Yuzingda zulmat ortardi. Hatto lablaring ham sendan qo'rqardi. Haqiqatan ham, meni sevishga urinib ko'rdingmi? Modomiki sen hamma narsani juda chiroyli... Unda meni nima uchun...

4

Eslaysanmi o'sha devorni? Xotiralar ko'paygan sari bir tomonimiz kamayib borar ekan. Ammo hanuz shuni da'vo qilamanki, sening kipriklaring dunyoning tashnaligini qondira oladi. Sening kipriklaring bilan Masai Marada<sup>1</sup> jayron ovlagan bir arslonni quvalay olaman. Sening kipriklaring bilan yadroni qurolsizlantirish bo'yicha uchrashuvda oyoqlarimni chalishtirib o'tirgancha, hammaga qarshi chiqaman va ilk sinovini o'z ustimda o'tkazgan bu qurolning soyasida dunyoga tinchlik olib kelaman. Chunki bundan ko'ra halokatli qurol mavjud emas... Yostiqa tushganlardan tashqari... Ular meniki.

...

Sen hamma narsani shu qadar chiroyli sevardingki... O'sha devor bilan xayrlashayotib, "Qo'lga kiritgan narsalarimiz bizni hayotga asir qiladi. Ya'ni yo'qotishdan qo'rqadigan narsalarimiz ko'paygan sari hayotning ham mazasi qochadi. Vaholanki, hozir shu yerda kiyimlarimizni yechib, qip-yalang'och bo'lsak, yaxshigina sharmanda bo'lamiz. Havaskorlar bizni kameraga olishadi va kechqurun sakkizda barcha kanallarda namoyon bo'lamiz. Hozir hamma

---

<sup>1</sup> Masai Mara — Keniyada yirik milliy qo'riqxona



yangiliklar payida-ku... Ammo voqeaning tub mohiyatiga ahamiyat bermaymiz “Jin ursin, bu nimasi?” deymiz xolos. Ongimizni elektrik bilan o‘lchashadi, ichimizga hapdoriga o‘xshab o‘ralgan ayg‘oqchilarni yuborishadi, keyin bular telba bo‘lishgan deb asabimizga o‘ynashadi. Balki yonimizga bizni qutqarish uchun To‘maris kelar? Sen nima deb o‘ylaysan? Ammo nima bo‘lsa ham, bizdan hech narsamizni tortib olisholmaydi hamda vaqt o‘tgach hammasi unutiladi” deganimda menga qarab kulganding... Keyin esa, “Modomiki, hamma narsani tushungan ekansan, nima uchun hali ham seni sevishimni kutyapsan?” deb so‘raganingda, “Chunki sen hamma narsani juda chiroyli sevasan” deganimni eslaysanmi? Xudbinmidim? Bor-yo‘g‘i seni necha yillardan beri kutayotgan edim. Hech qachon sevimaganingni ham yaxshi bilardim. Chindan ham sen ham meni kutayotganmiding?”

5

“So‘ngra bir kuni, bir ovozni eshitib, yashiringan joyingdan ovozning qayerdan kelayotganini va kimga tegishli ekanini bilish uchun tashqariga chiqishni istaysan. Chunki tovush tinmay seni chaqiradi. O‘zingda kuch to‘plab, eshikkacha o‘zingga hamrohlik qilasan. Hatto eshitayotgan ovozing hech kimnikiga o‘xshamasligiga ishonasan.

Aslida, yolg‘izlikdan juda charchaganing uchun o‘zingni aldash hisobiga ishonishni xohlaysan. Va eshikni ochganingda, ro‘parangda turgan yuzga, ko‘zlarining ichiga boqqaningdan bir muddat o‘tgach, butun xayollaring chippakka chiqqanini bilib, eshikni yopasan. Darhol





yashiringan joyingga qaytib, biroz avval "Balki ko'chalarda birga sayr qilarmiz" deb o'ylab kiygan poyabzallaringni yana jimgina oyoq kiyimlar turadigan javonga qo'lasan. Bog'ichlarini ham yechmaysan, hatto buning uchun ham kuching yo'q, shunday mustahkam bir g'amginlik ichidasan. Keyin qayta-qayta eshitib ham charchamaydigan o'sha kuyni burab, ustiga tabassum shakli tushirilgan bokalga uchdan bir vaqt oraliq'ida qahva tayyorlaysan. Chunki hayotingda qahvadan tashqari bir joyda muntazam turadigan boshqa hech narsa yo'qligini yaxshi bilasan. Ba'zilar boshlanmasdan tugaydi. Poyabzallaring javonda saqlanadi. Bu mening hikoyam. Men sira Zolushka bo'lolmadim. Yana bir narsa, Zolushka o'sha tufisini ataylab orqasiga tashlab ketganini bilarmiding? Chunki bu uning ilk va oxirgi imkoniyati edi. Ammo men tashqariga chiqolmadim, uyda mutlaqo yuvilishi lozim bo'lgan kir kiyimlar bo'lardi. Negadir, menga doim yangi oshxonada buyumlaridan sovg'a qilishardi. Aytishlaricha, ko'proq oshxonaga yarasharmishman... Men hamma narsani shu qadar chiroyli sevamanki... Sevgilim deb chaqiraymi seni? Chindan ham shuni istaysanmi? Yoki ketaymi?" deganding menga. Qizil chiroqda yo'lning narigi betiga o'tayotgan edik. Qo'limdan tutgancha meni mashinalarning yonidan yetaklab o'tarding va signal chalgan hammani qarg'arding.

6

Meni "sevgilim" deb chaqir... Chunki sen menga sevgilim desang... Bir narsaga iqror bo'laymi?

Aslida, sen menga "sevgilim" deganingda, hech vaqo sodir bo'lmaydi. Qolaversa, kim kimga "sevgilim" desa

.....



ham, hech vaqo yuz bermaydi. Hammasi yolg'on! Ovozing devorga borib uriladi xolos, o'z ovozingdan sovuysan. Biroq sen hamma narsani shu qadar chiroyli sevardingki... Yonimda uxlarding, ortingni menga o'girib. Ilk bor yig'layotgan eding, buni bo'yningning titrayotganidan payqagandim. Lablarimni ensangga bosib, "Yuzing ko'kka to'kilgan suvdir. Moviy tusi go'zalligini sening boqishlaringdan olgan. Ko'zlaringning eshigida uxlagan yulduzlardan o'paman. O'tinaman, yig'lama" degandim va kutilmaganda men tomon o'girilib qaraganding. "Hamma narsani shu qadar chiroyli sevgan holda, nima uchun yig'layapman, bilasanmi?" deganding o'sha kecha. Keyin davom etganding: "Unutolmaydilar, ammo unutolmaganlarini ham ahamiyatga olmaydilar. Qaysisi ko'proq jirkanch deydigan bo'lsang, men uchun ahamiyatga olmaslik jirkanch! Meni unutma" deganding. Derazaning oldida ikkita binafsha bor edi. Ularni ham shu qadar chiroyli sevardingki... Mening qalbim nopok edi, ulardan qutulishni kutayotgandi. Endi gullarga suv quymayman. Ammo hali ham hammomda suvning ostida kutishni yoqtiraman, poklana olmasam ham... Qalbimni ham sevmadingmi? Vaholanki, sen hamma narsani... Chindan ham, nega meni? Qo'yaver... Ehtimol sevgandirsan... Ketdingmi? Bu gal ketding... Yig'laganingni ko'rganimda ketding, to'g'rimi? Chunki ilk bor birovga tutilganding. Axir sen hamma narsani... Dekabr oyidamiz... Qattiq sovuq qotdim. Axir sening yuzing... Ko'kka to'kilgan suv...





**Ehtimol yana yurishda davom etarmiz. Yana qucharmiz bir-birimizni. Balki tabassum ham qilarmiz g'alati bir og'riq bilan... Ammo biz uchun hammasi shu yergacha. Buncha darddan keyin biz ortga qaytolmaymiz.**

Sen uchun bir mo'jizadek tuyulgan, ammo hayot tarzi uchun bu oddiy holat bo'lgan narsalar ba'zan insonning qalbini qanchalar og'ritadi. Shunday kunlar bo'ladiki, hech qayerga sig'maysan. Bir narsani barcha tafsilotlari bilan eslaysan. Nima uchun go'zal bo'lgan narsalardan bu qadar uzoqlashib ketganingni anglolmaysan. Qalbing parchalangandir. "Insonlar erishish uchun sira qiynalmagan va odatiy holdek har kuni boshidan o'tkazgan barcha narsalarni boshdan kechirish uchun astoydil kuch sarf qildim, ammo baribir xayollarimning qirg'og'idan ham o'tolmadim" deb ich-etingni yeysan. O'sha onda butun dunyoni bo'g'ishga qodir bir g'azabga taslim bo'lasan. So'raydiganlarga sabablarini tushuntirishga kuching yetmaydi. "Agar hamma narsadan qisqacha xulosa qilish kerak bo'lsa, hamma narsa xulosa qilib bo'lmaydigan darajada qo'rqinchli" deysan xolos.

"O'tinaman" dedim bugun...

"O'tinaman ichimni bir pichoq bilan sug'urib ol. Istasang, bu uchun yolvorishim mumkin. Hatto qovurg'alarimning ustida bir parcha ham et qolmasin. Na bir iz, na bir yara... O'tinaman, menda o'tmishga yoki hali yashamagan kunlarimga doir biror iz qoldirma. Ishon, shunday qilsang dardimni yengillatgan bo'lasan! Menga

.....



yomonlik qilgan emas. Chunki mening dardim etimning azoblanishi emas. Xayolimdan chiqib ket. Qayerda yashayotgan bo'lsang, o'sha joyda bo'l. Bunday so'roqsiz kelma menga. Tarqoqman! Tartibga sololmayapman va shu sababdan sendan nafratlanishni istamayman! Negaki sen bilan bizning yo'llarimiz boshqa kesishmaydi. Chunki seni kechirolmaydigan darajada qattiq sevdim. O'tinaman menga tegishli bo'lgan narsalarni endi tinch qo'y. Bu o'tmish ikkimizning ham kelajagimizga yaramaydigan darajada eskirdi. Ovozingni eshitish uchun o'lib tirilardim, ovozingning dengizga olib boradigan karomati bor edi, ovozing ko'chmanchi qushlarning yo'li edi.

„ Ammo avval shunday edi... Hozir emas.”



**Bizning endi yerga tashlaydigan gulimiz qolmadi.  
Bundan keyin yonimizda turmaydiganlar o'zlari  
yarashadigan eshikning ortida kutsin.**

“Hanuz tashlab ketganimdekmi?” dedi. Hali ham yuzimga avvagi kabi tik qarardi. Chunki kuchli ko'inishni yoqtirardi, ammo hech qachon kuchli bo'lolmagan edi. Bilardim, ko'zlarimga boqqanida uyalardi. U doim o'zidan uyalardi. Badanidan, boqishlaridan, chorasizligidan... Chunki bir uyi yo'q edi. Uy bo'la olmasding unga. Bir joyda turolmasdi. G'oyib bo'lgandi. To'satdan yo'qolib qolgandi. “To'g'ri, seni kutdim” dedim. Yana hayot bilan kurash olib borayotgani ovozidan ma'lum edi. Yana ba'zi narsalardan g'azabda edi. “Nega kutasan! Men sen uchun kelmadim” dedi yuzini burishtirib. “Bilaman, men uchun emas, yashayotganingni taxmin qilgan yagona joyga keladigan darajada chorasiz qolgan bo'lsang kerak. Balki, aksincha, menda o'z jasading bilan to'qnashishni o'ylagandirsan. Ehtimol, shuning uchun kelgandirsan. Agar shunday qilsang, o'zingning haq ekanligingni isbotlagan bo'larding. Men ham seni unutsam, ko'ngling joyiga tushardi. Keyin esa hech kim meni sevmaydi, hech kim meni istamaydi deya o'zingni aldarding. Biroq hamon juda go'zalsan” dedim.

Chunki ba'zilar har doim go'zaldir. Orqasidan borolmasang ham go'zaldir... To'satdan g'oyib bo'lib, yillaringni isrof qilsa ham go'zaldir... Seni arzon bir buyumdek tashlab ketsa ham go'zaldir... Ammo yana keladi... Bir kuni mutlaqo ortiga qaytadi. Biroq kutgan narsang kelganida, bu gal sen ketasan. Qasos olish uchun

.....



emas! "Hamonki, hali ham tirik ekansan, o'zing oyoqqa tur va yo'lingni top" deya ketasan. Chunki unga qiladigan eng katta yaxshiliging shudir. U hali ham juda go'zal. Kulishi ham avvalgidek. O'sha damda o'tgan kunlar ko'z oldingga keladi. O'tmish biroz jonlanadi. Iching g'ash bo'ladi. Ammo u bilan bundan ortig'iga o'tolmaysan, buni yaxshi bilasan. Unga umid bog'lab bo'lmaydi. Chunki ayrimlar bir joyga tegishli bo'lmaydi. Qum zarrasi kabi uchib ketadi va yashayotganini taxmin qilgan yagona joyiga qaytib, o'zining o'limiga guvoh bo'lishni istaydi. Ustiga ustak, seni ham o'ldirish evaziga...





## Uzoq


Hech qachon masofa to'siq bo'lolmaydi. Agar hamma masala masofalarda yoki ketishda bo'lsa edi, ketgan joyingizda derazangizning yonida turgan gulga suv quyishni unutganingiz esingizga tushmasdi. Ba'zi narsalardan ayrilolmaysiz. Hatto bu bir gul bo'lsa ham. Bo'm-bo'sh xayol bilan yangi bir kelajakka qadam qo'yolmaysiz. Men buni sinab ko'rdim. Chin ko'ngildan istab, urinib ko'rdim. Ammo bo'lmadi. Eplay olmadim. Shuning uchun xotiralarga qarab, "Qayerga ketsa ham, inson oxirida o'ziga qaytadi" deyman... Va xotiralar shunchalar g'aroyibki, umuman boshqa bir shaharda, bir marta ham birga yurolmaydigan o'nlab ko'chalarda xuddi birga yurgandek his qilasz. Chunki aql bovar qilmas o'xshashliklar bo'ladi. Uylar bir-biriga o'xshaydi. Odamlarni aytadigan bo'lsak, hammasi bir xil. Ayni avtobuslar, ayni taomlar, ayni janjallar, ayni tabassumlar, ayni vahimalar, ayni yolg'izliklar... Menda bir joyga sig'ish yoki o'zimni bir joyga oid his qilish tuyg'usi ham yo'q. O'zimni biroz bo'lsa ham tushungan bo'lsam, qaytib o'z ichimdan chiqishni istamayman, hamma gap shunda. Chunki charchadim. Bekorga meni qo'limdan tutib, tashqariga olib chiqmoqchi bo'lyapsiz. Ishoning, bilmagan joyingizda yashamoq sira ham oson ishemas.

Modomiki, bu shunchalar oson ekan va oldin sira bilmagan bir yeringizda yashashni eplay olganingizni da'vo qilayotgan ekansiz, avval o'zingizda yolg'izlikni sinab ko'ring. Atrofingizga bir qarang. Ammo juda xotirjamsiz, buni uddalay olmaysiz. Bir insonga, bir uyga,





mashinaga, uyquga va tovushlarga ega bo'lsangiz, chindan ham o'zingizni nimalargadir erishganman deb hisoblaysiz. Unday emas! Bunga o'zingiz hali guvoh bo'lasiz. Ehtimol, ayrimlaringiz buni yaxshi bilarsiz. Hayotda hech narsaga ega bo'lish mumkin emas. Shunchaki yashirinasiz xolos. Eski bir surat ko'z oldingizda jonlangunga qadar yashirinasiz. Gapirsangizchi, la'nati fotosuratlarning isi bo'lishini bilarmidingiz?

A black and white photograph of a person sitting on a bench by a body of water. The person is seen from behind, looking out over the water. In the foreground, there are dark, silhouetted tree branches. A bird is flying in the sky on the left side. The text is centered in the middle of the image.

**O'z bilganingizcha yashashda davom eting. Chunki  
hayot birovlariga o'zingizni izohlaydigan darajada  
uzun emas.**



**Qo'yavering, ortda qolsin. Yarangiz bilan buncha ko'p ovora bo'lmang. Yarani qoldirganga bir tiyin bu!**

Tilga chiqarolmagan so'zlarimni bir onda gapirishni istab, yana tilimni tishlayman. Chunki ko'p hollarda buning hech bir ma'nosi bo'lmaydi. Kech qolmoq bu dunyoning eng halokatli holatidir. Bir narsalar qiymatini yo'qotadi. Kalimalar, yuzlar, ovozlar, tuyg'ular, xotiralar, stoldagi ikkinchi likopcha va hatto eng oddiy narsalar ham...

Shitir-shitir yomg'ir yog'ardi. Men o'tirgan o'rindiqa quruq joy qolmagan, ammo buning ham sira ahamiyati yo'q edi. Ko'kka qop-qora bir choyshab tortilgandi. Shundoqqina yonimda bir kaptar yomg'irda qolmaslik uchun u yerdan bu yerga qochayotgan insonlarning aksi o'laroq ikkiga ajralgan yo'lakning o'rtasida to'planib qolgan suvning ichiga tushib olgancha, suv bilan o'ynardi. Oktaybrning oxirlari edi. Paltoyimni yechib, tizzamning ustiga qo'ydim. Endi yomg'irni yanada yaxshi his qilayotgan edim, biroq sovuq ham o'zini yaxshigina sezdirayotgandi. Nega deb o'yladim? Tushuntirishni istagan narsalarimni nega unga tushuntirayin? Yoki nima uchun boshqa birovga? Yoki bo'lmasa o'zimga? O'zimga buning keragi yo'q edi.

Chunki bir narsani gapirish natijani o'zgartirmaydi. Yana kaptarga qaradim. Chunki bir narsani gapirishnatijani o'zgartirmaydi. Yana kaptarga qaradim. Ehtimol hech narsadan bexabar yashasang baxtiyor bo'lish mumkindir. Bir kaptar kabi... Bir tomchi suv kabi. O'rnidan yulib otilgan bir plita toshi kabi. O'zining ulg'ayayotganini sezgan







bir bola kabi. Shakar mumi bilan tuklarni tozalagani kabi. G'am bilan boshlanib, oxiri chiroyli tugaydigan ertaklarga ishongancha... Shakar mumi orqali joyidan yulib olingan o'sha qil kabi. Boshqa birovga yoki o'ziga chiroyli ko'rinish uchun insonlar o'zlaricha eng keraksiz deb hisoblagan narsalardan osongina voz kechishadi. Buni tushunganimgidan keyin men ham ko'pam boshimni qotirmay, tuppa-tuzuk yashashga harakat qilayotgandim. Shu boisdan yangi tanigan insonimni o'rgana olmayotgandim. Yoki azaldan beri taniydiganlarimni unutayotgandim. Sigareta chekish chekmasligini, qaysi ko'cha, qaysi binoda turishini qo'yib turing, qaysi tumanda yashashini, badanidagi qaysidir belgisini, hidini va hattoki ba'zan ismini ham eslay olmasdim. Nazarimda, hamma narsa, har kim va hattoki o'zim ham bir marta foydalaniladigan bir buyum kabi edik. Qaysi yo'ldan bormayin, qaytishim aslo o'sha yo'ldan chiqmasdi. Yashagan joyimga qaytib kela olish uchun ulkan doiralarda chizardim. Ammo bir kuni hozirgacha adashib keldim degan hamma narsamga takroran nazar soldim. Aslida, uni uchratgunimgacha, bir qo'shiqni tinglab, jigarim tilka-pora bo'ladigan darajada ezilmaganman. Qo'limni eshik siqqanida jonim og'rikanichalik, hech qachon bir insonni yo'qotganimga jonim og'rimagandi. Aslida, yo'qotish shu emasmi? Eng boshidan beri buyuk bir yolg'onning ichida edim. Sevmadim, sevilmadim, rostdan tark etmadim, tark etilmadim. Hamma narsa shunchaki kerakligicha yashalgandi.

Hatto onamning balkon temirlariga baqlajonlarni osib quritishi ham qishning hayotimga erta kirib kelishi edi.





Hali bugunni yashab ulgurmasdan, doim ertalar haqida o'ylardik. Shuning uchun nazdimda begunoh biror narsa qolmagan edi. Bu dunyoda nima uchun bor edim? Onam nega bor edi? Qo'llarining ustki qismi burishganini ko'rish va undan battar dahshatga tushish uchunmi? Inson ulg'aygan sari kamayib borardi. Pulim bor edi. Bir uyim, mashinam, yaxshi bir ishim, biroq onamning burishgan qo'llari yo'q edi. Uning ham qo'llari yo'q edi. Sevgan edim. Eng ko'p qo'llarini sevgandim. Menga har tomondan qishni eslatsa-da, onam kabi balkon temirlariga baqlajonlarni osib quritishini orzu qilgandim. Ammo bo'lmadi... Hozir hamma narsaning tayyori chiqib ketdi. Sevgilarning, ayriliqlarning, dardlarning va xayolingizga nima kelayotgan bo'lsa, hamma narsaning tayyori chiqdi.

Biz yo'qoldik.



**Bir kun kelib, "Ha, biz ham sevgan edik" deymiz. Aslida, kech aytilgan haqiqatlar qanchalik to'g'ri bo'lmasin, shunchalik samarasizdir.**

Bu davrga kelib, birovni rostan sevib, sevmasligimizni bilmayman. O'ylashimcha, tanlovlar ko'paygan sari, sevgining kuchi kamayib boradi. Chunki o'zimizni hech narsaga majburdek his qilmaymiz. "U bo'lmasa, boshqasi" deymiz. "U ketadigan bo'lsa, o'rniga boshqasi keladi..." Agar men ketadigan bo'lsam, unga birov kelmasin va u ham boshqa birovga bormasin. Masalan, ilk insonlar yaratilganida, Momo Havo Odam Atoga qarab: "Seni ko'rganimda me'damda kapalaklar parvoz qiladi" deganmidi? Demagan bo'lsa ham balki buni his qilgandir, ammo hamma gap me'dasining me'da ekanligini bilmaganida deb o'ylayman. Har holda "Kim u ayol? Nima uchun unga qarading?" deyish imkoni bo'lmagani uchun bunday g'alati sabab yuzasidan janjal qilishmasdi. Ular ikkisi ham mana shunday mustahkam ishonchichida edilar. Internet yo'q, televizor yo'q, qo'l telefoni yo'q, qimmat mashinalar yo'q, tamaki mahsulotlari yo'q, ichkilik yo'q... Yugurib boradigan boshqa bir eshiklari ham yo'q edi ularning. Daraxt novdalaridan yasalgan bir chodirda yashashar edi.

Yoki biror bir g'orda... Shunday qilib, bizga huzur bergan hamma narsa bizni majburiyatdan uzoqlashtirdi. Shunchaki tanlovlar bizning nihoyamizni olib keldi. Kurashmoq yo'q, ishonmoq yo'q, davom etmoq yo'q. Yugurib boradigan bir eshigimiz bor, qimmatbaho





mashinalar bor, internet bor, tamaki mahsulotlari bor, to'qqiz oylik to'lovli ta'tillar bor, qo'shiqlar, bor ammo baxtiyor emasmiz.





## To'qnashuv

Zobitning farzandlari yaxshi bilishadi — o'yning o'n beshi yorug'ligini. Chunki uydagi hammaning ko'zi qushdek maoshga tikilgan. Bola yangi o'yinchoq xohlaydi, ota raqamli lotoni ajratib, pulni da'vo qiladi, uyning bekasi ayol vaqtning beshafqatligiga qarshi turish uchun zamonaviy bichimdagi siynabandlarni orzu qiladi. Ammo maosh bularning hech biriga yetmagani uchun bir qancha narsalardan muqarrar ravishda voz kechiladi. Lekin bularga ham u qadar ahamiyat berilmaydi. Bola uchun nima qilish kerak bo'lsa, hammasi qilinadi va qolgani maosh kelgunigacha kechiktiriladi. Uyning erkagi ayolini oxirgi marta qachon kiyimsiz holatda ko'rganini eslolmasdan: "Senga zamonaviy siynabandning keragi yo'q. Shusiz ham juda chiroylisan" deydi va ayol aslida o'zi ishonmagan bu so'zning yolg'on bo'lib chiqishidan qo'rqib, sira oynadagi aksiga qaramaydi. Hatto erkakning buni tushunmasligini bilsa ham, "Men sening eng katta omadingman, senga boshqa omadli o'yinlarning keragi yo'q" deb tasalli berishga urinadi eriga. Haqiqiy omadli kun esa erkak ish haqini olgancha, mayda-chuyda solingan paketlarni qo'lida ko'tarib, uyiga g'urur bilan kirib kelgan kundir.

...

Bundan biroz avval seni yo'qotganga o'xshayman. G'azab bilan yugurib eshikdan chiqibsan, eshikning zanjiri uzilibdi. Ovozim ham orqangdan sen bilan ketibdi, ovozim ham uzilibdi...

Ortingdan oynaga qarayman: ikki kun oldin o'lgan





badbo'y hid taratayotgan itning, o'lmasdan avvalgi yolg'izligi kabi yolg'izman. "Sizni payqashlari uchun o'limni kutsangiz, unaqada payqaganlarining nima ahamiyati bor?" degandi o'sha it oxirgi nafasini chiqarmasdan oldin...

...

Bundan biroz avval seni yo'qotganga o'xshayman. Tashqarida juda issiq havo, ammo uyning devorlarida muz parchalari osilib turibdi. Muzlarni ham tashlab ketibsan. Endi yuz yilda ham erimaydi bu muzlar... "Zotan qaysi rayhonning umri bir yozdan oshiq bo'lgandi?" degandi binafshaning yonidagi rayhon iforini yo'qotar ekan. Nimani kutgandik ikkimiz ham, bir umr yonma-yon yurishnimi? Mutoyiba qilmaylik, qaysimizning ovozymizdagi og'riqlar tunlari bezovta qilmadi?

...

Bilasan, oddiy bir shokolad paketining ustidagi "Bu yerdan oching" degan yozuviga ham tavakkal qilolmayman, boshqa joyidan ochishga harakat qilaman. Chunki bizni doim bir narsalarga yo'naltirib, istagan qoliplariga solishga urinishadi. Qolaversa, umrim bo'yi kimgadir yoki nimagadir erishishga urinmadim. Va bu hayotdan ham umid qilganim bor-o'g'i, menga teginmasliklarini istadim. Maqsadim sasadossiz yo'q bo'lib ketishedi.

...

Bundan biroz avval seni yo'qotganga o'xshayman. Ko'rmadingmi, insonlar gavjumlikka kirganida yo'qolib qoladi. Hatto eng kichik tirbandliklarda ham insonlar birbirlarini ayamay ezib o'tishadi. Bular yetmagandek, hamma ketayotgan edi va men o'zimda qolish uchun birma-bir

.....

eshiklarimni yopayotgan edim.

Yoki ularning ortidan men ham ketishim mumkin edi. Keyin seni ko'rib qoldim. Umidim yo'q edi. Butun tolesizliging bilan bu horg'in vujudimning hijron mavsumiga to'g'ri kelganding. "Senda kelajakning belgisini ko'rolmayapman" deganding eshikni qarsillatib yopib ketayotib. "Chunki o'tmish ham vaqt o'tib xiralashadi va bunga unutish deyiladi..." deya ilova qilganding, gapni boshqa cho'zib o'tirmaslik uchun.

...

Sening kulishing maoshini olgan bir otaning maydachuyda solingan paketlarni qo'lida ko'tarib, uyiga g'urur bilan kirib kelishiga o'xshaydi. O'sha ayolning oynaning qarshisida o'ngga chapga aylanib, erining yolg'onini sevishi kabi eding... Ovozingdan gul to'la bog'larga chiqilardi. So'zning po'stini archib gaplashardik sen bilan. Shuning uchun bizni jim deb o'ylashardi.

Qachonki hammasi tugadi, deb o'ylasak, doim bu safar oxirgisi degan yerimizning boshidan topdik o'zimizni. Chunki sevmoq bir eshikni qarsillatib yopib ketishga o'xshamaydi. G'azab hech qachon davomiy emas. Bundan biroz avval seni yo'qotganga o'xshayman. Ikki kun oldin o'lgan, badbo'y hid taratayotgan itning o'lmasdan avvalgi yolg'izligi kabi yolg'izman. Va men endi yangi varianti chiqarilganidan keyin asl varianti deyarli unutilgan kuy singari sevilmoqdaman. Hech qaysi rayhonni kelasi yozgacha asray olmadim... Kechir, sevgilim.



**Insonning butun umri kurashish bilan o'tadi.  
Yashash uchun, sevgi uchun, non uchun, tushunilish  
uchun, bir siqim vafo va sadoqat uchun...**

Tasavvur qiling, bir suratga juda chiroyli tushgansiz, lekin ishning baxtsiz tomoni suratga hojatxonada tushganingiz uchun orqa foningizda suv quvuri va plitkalar ko'rinib qolgan. Nima demoqchisiz, buni hech boshdan o'tkazmaganmisiz shu paytga qadar? Qiziqchilik qilmang. Shu on hatto yuzingizdagi quv tabassumingizni ko'ryapman. To'g'ri, menda shunday holat bo'lgan va buni yashirishga hojat yo'q deya gapirib beryapman. Qolaversa, asl masala va e'tibor berilishi kerak bo'lgan narsa qilgan ishimni gapirish bilan o'zimga diqqat tortish emas. Bor-yo'g'i ana o'sha payti hayotda hech narsa o'z yo'lida ketmasligini anglaysiz. Hozirgacha xush ko'rgan narsalarimning qarshimdan chiqish suratlari o'ta ham yoqimli bo'lmadi. Qayerda imkonsizlik bor bo'lsa, men o'sha narsaga mayl etdim. Qayerda imkonsizlik bo'lsa, ortidan yugurtirib, keyin esa hammaga juda yoqqan, ammo meni yerga urgan qattiq bir hazil kabi jonimni siqib ketdi. Hatto mashina sotib olayotganimda, bu ishning ustasiga ko'rsatdim, ammo mendan avvalgi egasi bundan oldingi baxtsiz hodisalarni shunday mohirona berkitibdiki, "Usta biron aybi yo'qmi?" deb so'ragan odamim ko'zini yumib kafil bo'ldi, lekin yanglishdi.

Bu bir omadsizlik deb qutuldim va endi "kaputi va dvigatelning turg'unligiga" ahamiyat bermayman.

Oxir oqibat qirq yilda bir sodir bo'ladi, degan

.....





narsalarim, sal kam o'ttiz yillik hayotimda bir necha bor takrorlandi. To'g'ri, bahonada ba'zilarning qiziqib so'raydigan yoshim bilan bog'liq savollariga javob bergan bo'ldim. Nima? Tabiiyki, o'zimni yoshroq ko'rsataman. Chunki inson ba'zan ichidagi dardini yuzida namoyon etmaydi va hamma ko'rganiga ishonadi. Yoki ishongingiz kelgan narsaga ishonasiz. Chunki undan ortig'i boshingizni og'ritishini g'oyat yaxshi bilasiz. Bunga "menga tegmagan ilon ming yil yashasin!" sindromi deyiladi.

Qayerda qolgandik? Yoki to'xtagan joyimizni qo'yib turaylik va voqealarning analizini qilishda davom etaylik: Hatto birini sevgan vaqtim "Ketmayman, men boshqalar kabi emasman. Menga ishonishing mumkin." deganining ertasi kuni uni undan oldingi kunlarda yonimdan ketganlarning yonida ko'rdim. Bu ham omadsizlikka kiradimi? Nizo chiqarishni istamayman, lekin ichki ovozlaringizni eshitish va so'zlarning tagida nima yashinganligini bilish — odamlarga nisbatan bag'rikenglik xususiyatimni toraytirdi. Va tabiiy ravishda, hatto qimirlashga ham joyi qolmagan inson yoniga kelgan hammadan bezovtalanadi. Qisqasi, meni bezovta qilmang! Agar qirq yilda bir tug'ilsangiz ham, men uchun odatiy hodisadan nariga o'tolmaysiz. Endi nazdimda, bu na sizni va na meni ma'sumga aylantirmaydi. Vaholanki, ma'sumlik deyiladigan narsaga har kim so'zda qiymat bersa ham, hozir insonlardan buning amaldagi isbotini topolmaysiz.

Hammangiz daf bo'ling! Mening qalbim sinmaydi. Sinsa ham, qaynonasining yonida tug'ishga majbur bo'lgan kelin kabi tishimni tishimga qo'yib, dardimni sizga bil-





dirmayman. Jim bo'laman... Jim bo'laman va endi agar so'nggi tomchi suv bo'lsangiz ham qayrilib ham qaramayman, mayl etmayman. Ortimni o'giranman! O'giranman va bu gal qaytib kelmayman. Dardimni sez dirmayman. Orqa fonda suv quvurlar va plitkalar bo'lsa ham, sizdan tortinmay, hojatxonada olgan rasmimni oldingizga qo'yaman. Keyin esa siz quvurlarga qarar ekansiz men boshqa bir suv quvurini yuzingizga to'g'ir layman. Parvo qilmayman! Na ichimda ko'tarib yurgan g'azabga, na muloyim ko'rinishingizga...

Parvo qilmayman!

Tamom.

Sevgilim... Bu ham o'tib ketadi.

“Ehtimol, aslida, unday emasdir” deya ichidan yaxshilik izlagan har narsamda mavzuni cho‘zgan bo‘lib chiqdim. Hozir biror yaxshilikka umid qilishning davri emas ekan.

\*\*\*

Yaxshi ko‘rgan insonlarimga havo va suvdan gapirayotgan bo‘lsam, “Meni bilasan, ahvolim yaxshi emas. Yana ichim junjikayapti” deyishni istayotgan bo‘laman. Alohida, ahvolim qandayligini so‘rashingizga hojat yo‘q.

\*\*\*

Yaralar o‘tmishni eslaganingda emas, kelajakdan o‘tmishni topa olmaganingda ma‘lum bo‘ladi. Buni boshdan kechirganingni bilaman... Eslaganingni ham... Topa olmaganingni ham...

\*\*\*

Hech qayerda turolmaslik qanday yomon... Meni ilk bor bu vaziyatga solgan narsa — go‘yo har yerda meni kutayotgandek.



\*\*\*

Xotiralar ba'zi insonlarni hayotlarining so'nggi onigacha qo'yib yubormaydi... Chunki kunlar qo'yib yubormasligini istaydiganchalik go'zal kechgan.

\*\*\*

Nega yolg'on so'zlay.. Ba'zan hanuz.. Yarasi chuqur bo'lganlarning, umidini yo'qotganlarning, boshi yerga egilsa-da, baribir buni

sezdirmaganlarning qalbida gullar ochilmaydi. Yolg'on gapirib nima qildik, u kunlar o'tmishda qolgan.

Ayni yo'llarda boshqasi bilan birga yurmoq, insonni o'tmishga olib boradi, ammo u yerda ham qololmaysan. Chunki unutib bo'lmaydi, deganlarimiz yoddan ko'tarilgan, ortimizda birorta iz qolmagan.

\*\*\*

Ehtimol, eng go'zal narsalarni oxirigacha borolmaganim uchun o'tkazib yubordim.

Ammo oxirigacha borishimiz uchun bizda kuch qoldirdilarmi? Mana bu tomoni ham bor...





\*\*\*

Chunki bir umrga sig'adigan charchoqni qisqa vaqtda boshdan kechirganim uchun, hozir kim kelsa ham, "oq yo'l senga" deyishdan tortinmayman.

\*\*\*

Sevgan insonlaringizni xuddi bu oxirgi kuningizdek mahkam bag'ringizga bosing. Va kelajakda joningizga azob beradigan taqdirda ham, iforini yaxshilab eslab qoling.

\*\*\*

Ortga qaytadigan darajada bo'lmasa ham, orqangizga bemalol qaraydigan darajada yuzingiz qolsin. Bu qadar o'zingizni tugatmang.

\*\*\*

Tegishli bo'lishni qo'yib turing, na bir kishiga va na biror yerga o'zimni yaqin his qilmayman. Ketolmayman. Qololmayman. Gaplasholmayman. Qisilib qolganga o'xshayman.

\*\*\*

Na miyamdagi savolni va na qalbimdagi xiralikni bir chetga surib qo'yolmayman. Endi hech narsa avvalgidek emas. Hech qachon seni kechirmayman.

\*\*\*

Umud juda charchagan. Tunlar uzaydi,  
so'zlarga sig'maydigan yo'qotishlar ko'payib  
ketdi. Endi kim tushunadi meni, o'zimni topa  
olmayapman desam?

\*\*\*

Bir ayolning otasi — yo uning yarmidir yoki  
yarasi.

\*\*\*

Nusxasini qo'yib turing, ba'zi narsalarning  
hatto o'xshashi bo'lmaydi. Bu bo'shliqning boisi  
shundan. Xotiralarga suyanishimizning sababi  
shundan. Yana qoqilib tushmaslikka urinyapmiz.  
Bor-yo'g'i shu.

\*\*\*

Hayot g'alati... Uzoq muddat davom etadi,  
degan narsalarimiz bir onda nihoyalaniishi mumkin.  
Sevgi ham, kutish ham, ayriliq ham. Qo'yib bering,  
vaqt o'z ishini qilsin.

\*\*\*

Bir qadam bosishdan avval buni yaxshilab o'ylab ko'rayotgan bo'lsam, demak bu bejizga emas. Sabahattin Alining aytganidek: "Insonlar mendan ishonish qudratimni tortib olganlar."

\*\*\*

Biror hodisa yuz berganida, endi hech narsa sodir bo'lmaydigandek tuyuladi. G'o'yo bundan ortig'i bo'lmaydigandek. Bo'lsa ham, avvalgidan battarroq bo'ladigandek. Bor kuchi bilan devorga qichqiriqlarini sochganlar biladi: Butun borlig'ing bilan biron kishini bag'ringga bosgan bo'lsang, keyin nima qilsang ham, uni ichingdan chiqarolmaysan.

\*\*\*

Ba'zan o'zimni shu qadar kuchsiz, horg'in va har narsadan shu darajada uzoq his qilamanki... Tilka-pora qilsalar va hatto do'pposlasalar ham, bu bir og'iz gapirishchalik jonimni og'ritmaydi. Yana kutmagan joyimdan sindirildim. O'tinaman, jim bo'ling.

\*\*\*

Agar hozir quchsang, badaning barcha yaralarimdan qolgan izlarning o'rnini to'ldiradi. Ammo "Kel" deyishni istab, sukut saqlayotgan yana bir tundaman. Va ertaga ham shu hol davom etadi.

\*\*\*

Boshqalarga borligingizni isbotlayman deb, sizning borligingizdan boshqa narsani bilmaganni yo'qotdingiz. Bu sizga yetadi.

\*\*\*

Balki hozir emasdir, ammo hammasi o'tib ketadi. Chunki "Seni aslo unutmayman" deganlarga qarang. Bu so'zni kim uchun, qachon va nima sababdan aytganlarini allaqachon unutishdi... O'tib ketdi... O'tib ketadi...

\*\*\*

Yo'qotmaguningizgacha yo'qotgan narsangiz joningizning bir bo'lagi ekanligini anglamaysiz. Ahamiyat bermaysiz. Ammo na ketgan, na o'lgan ortga qaytmaydi.



\*\*\*

Ba'zan tashqariga chiqib, "Biror narsa o'zgaribdimi? Chindan ham yashashga arziydigan nimadir bormi?" deya atrofga boqib, yana ichkariga qaytib kiraman. Adashmaslik qanchalar yomon.

\*\*\*

Bu hayotda hamma narsaning o'lehovi bordir. "Yoningdaman" deganlarning soyasiga qarab aldanmang. Chunki fidokorlik hammaga ham xos emas.

\*\*\*

Yana qancha yo'qolaman bilmayman, lekin endi senga qaytib kelmayman.

\*\*\*

Ko'pincha g'azabga berilib, voz kechib, yana ko'p bor so'nggi imkoniyatni bergandirsiz. Ammo ma'lumingizkim, hech narsani his qilmaganingizda, chindan ham hammasi tugagan.

Butun umrim sukut qilish bilan o'tdi. Jimgina ortimdan xarobazor qoldirdim. Indamay o'zim ham xarobaga aylandim. Endi nimani tushuntirasiz, nima haqida gapirasiz menga. O'tdi, ketdi. Havasim qolmadi hech narsaga!

\*\*\*

Yoningizda turishga kuchlari yetmasligini tushunishganida, ilk fursatda yarangizni tirnashni xohlashadi.

\*\*\*

Qalbi singan insonlar hayotini jimgina yangidan boshlaydi. Ichidagi o'likka teginmasdan, uni uyg'otib yubormasdan. Jimgina... Kimdir sizga "Oxirgi imkoniyatimsan" desa, "Endi o'zga bilan tanisholmayman, chunki hamma narsam bilan senga bog'liqman. Sen ketsang, hammasi tugaydi" deyishni emas, "Horg'inman. Shusiz ham birovga ishonch bildirish mushkul. Sen ham meni adashtirma" deyishni istayotgan bo'ladi. Va aslida, bu sizning oxirgi imkoniyatingiz bo'lishi mumkin.

\*\*\*

Yashagan sarimiz tuproqning vazifasini o'g'irayapmiz. Qanchasini ko'mdik ichimizga, Xudo biladi.

\*\*\*

Shu joyda o'zimni aldayapman, ammo bilaman, u eshiklarning hech biri qaytib ochilmaydi va na ovozimiz qaytib bir-biriga urilmaydi. Bu haqiqat.

Boshqalar bilan  
kulishamiz va unutish uchun  
ataylab uyga kech kelamiz.

Ammo shu bilan darhol  
o'tib ketmaydi. Birovni  
quchoqlab, uning hidini

bilishga urin, ovozi  
butun diqqating bilan  
eshit va qo'llaridan  
tutib, ayni yo'llardan

yur! Shunda

tushunasan nima  
deyishni istaganini!

Shuncha odamlar

orasida o'tmishni eslash yolg'izlik  
emas. Xotiralar yoningdaman  
deganlardan ko'ra go'zalroq! Ulardan  
ko'ra samimiy va haqiqiy. Hatto  
tugagan bo'lsa ham, boshqa qaytib  
kelmasa ham, juda go'zal.

Biroz vaqt o'tgach, bu hisslar  
tasishimni deb o'ylangiz, deb  
g'ala. Ammo shu bilan  
unutib qiz kelib, uning  
eshitib o'lsangiz...



\*\*\*

Hamma narsadan bezdim, hatto o'zimdanda ham. Tabiiyki, bu tang holim bir narsalardan umidimni uzganim sababli. Hozirgacha kim mendagi umid chirog'ini yoqishga urinib ko'rdi?!

\*\*\*

Ba'zan inson hamma narsadan voz kechadi. Lekin biron joyga kelganida to'xtab, so'nggi bor ortiga qaraydi va o'zimni qiynagan ekanman, deya yana yashashda davom etadi.



Sevdim shu ko'rdimni, degan  
qalbigizda, ishonib, hali bu boshlangich  
bo'ladi. Hayrat bilan kuzatib. Men o'zi  
qalbi ishonib ekanman, deya ichki ishonimni  
yeh qolasiz.



\*\*\*

Balki qattiq  
pushaymon bo'lib,  
ortingga qaytish uchun  
jasorat topa olarsan.  
Ammo yarim yo'lda  
tashlab ketgan odaming  
qaytib yuzinga qaraydi  
deb o'ylaysanmi?

\*\*\*

Ehtimol, bu  
shunday davom etar,  
ammo biz haqiqat va  
yaxshilikni kutib turamiz.  
Chunki o'z hurmatini  
bilgan qish, qimmatini  
bilmagan bir bahordan  
yaxshiroqdir.

\*\*\*

Agar yashashdan qiyinroq narsa bor bo'lsa, u ham biror narsani yashirib yashashdir. Hammaning ko'ziga kuchli ko'rinaman deb, qonli bir daryoning ichida yo'q qildim o'zimni.

\*\*\*

Inson qanchalar horg'in ekanligini yangi narsalarga duch kelganida anglaydi. Masalan, yangi bir insonga, oldin yurilmagan bir yo'lga yoki yangi bir sevgiga... "Nega tanishay, nega qadam bosay, nega sevey, nima uchun harakat qilay? Menga shunday yaxshi" demoq, hamma narsadan osondek tuyuladi.

\*\*\*

Kamayib qolmadim-ku, voz kechdim. Ba'zan odam hatto o'ziga ham toqat qilolmaydi. Hamma endi jim bo'lsin.





\*\*\*

Siyosatchilar va zo'rovchilar yomonroq bo'lish uchun bir-birlari bilan raqobatlashadigan bu dunyoda, birovni sog'inib, yuragida muhabbat ko'tarib yurgan hech kim mag'lub bo'lmaydi.

\*\*\*

Ko'p bor kechirdim, haddan ziyod kutdim. Ammo kutganimga arzimadi. Bu aybni mening nomimga yozing.

\*\*\*

Insonning butun umri kurashish bilan o'tadi. Yashash uchun, sevgi uchun, non uchun, tushunish uchun, bir siqim vafo va sadoqat uchun.

\*\*\*

U bir zumda asta-sekin qo'lga kiritgan joyini yo'qotdi. Men buning og'rig'ini tuymoqdaman. Endi bir ovoz hech qanday ma'noni anglatmaydimi?

\*\*\*

Qanchalar harakat qilganimni bilsangiz edi. Endi men qalbimni kimga olib borsam, bu yarani kimga ko'rsatadigan bo'lsam, o'zimdanda uyalam.



\*\*\*

Odamlarga “Sen haqsan” deb aytadigan va mendan tushunishimni kutadigan ahvolda emasman. Hammasi tugadi. Siz bir xil edingiz, endi ham bir xilsiz. Yo‘qoling.

\*\*\*

Bor-yo‘g‘i ikki kun oldinga qaytib, “Sharmandalik” deb aytsangiz, o‘zingizni kechirmang. Hech narsa bir zumda o‘zgarib qolmaydi. Hech kim yuzini boshidan oxirigacha yashira olmaydi.



\*\*\*

Sizni shunchalik ko‘p tark etgan va  
shunchalik qattiq charchatganki, “Sendan  
voz kechdim” o‘rniga “Endi sendan xafa  
bo‘lmayman” deysiz.

\*\*\*

Hatto qo'llarimni  
butun yer yuziga yoysam-u,  
butun tanam bilan osmonni  
quchsam ham baribir senga  
yetolmayman. Dunyoda  
bunday ayriliq boshqa  
bo'lmaydi. Birozdan  
keyin oladigan nafasimni  
kutayotgandek kutayapman.  
Senga shu qadar muhtojman.  
Shu qadar sog'indimki  
ovozingni.





\*\*\*

Hammasi o'tmishda qoldi.  
Na ovozingga, na yuzingga kichik  
bir havasim ham qolmadi. Va  
yuragim zarracha ham hapqirmaydi  
seni desa...

\*\*\*

Vaqt o'tib ham hech narsa  
o'zgarmaydi. Ishongan insonlaringiz  
tark etib ketishadi va ichingizda  
dard bilan yashashga ko'nikasiz.  
Bor-yo'g'i shu...



\*\*\*

Bir qancha yolg'onlar ko'rdim.  
Ishonmadim, ammo balki o'zgarar deya  
kutdim. Biroq o'zgarmadi. Shuning uchun  
mendan insonlarga nega ishonmasligimni  
so'ramang!





Men bilan sira qiziqmaydigan hayotda nafas oldim.  
Men bilan umuman qiziqmaydigan manzillarda go'yo  
yonimda birov bordek yurdim.

U uchun kuylar tanladim. Qo'llarini tutdim. Albatta,  
baxt haqida gapirishni ham juda istardim. Ammo  
menga o'xshaganlar, ya'ni dard chekayotganligiga  
hech kimni ishontira olmaganlar, baxtga olib  
boradigan yo'lni yoddan chiqarishadi. Chunki meni tik  
tutgan, oyoqarim ostidagi toshni bilib turib,  
hayotimdan tortib olishdi. O'zimning ustimga  
quladim. Shuncha muddat unimni chiqarmaga-  
nimdan barcha ovozlari ichimda yig'ildi.

Endi men hatto shamolning uvillashiga ham havas  
qilaman...

Xurmatli kitobxon  
kamchiliklar bo'lsa  
uzr so'rayman

[t.me/FirDaws\\_21](https://t.me/FirDaws_21)

**HALIS KARABENLI**

